




ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR

TADBIRLI AYOL

o'zbek xalq ertaklari



ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR



TADBIRLI AYOL



O'zbek xalq ertaklari

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent – 2019

UO*K: 398.2(=512.133)

KBK 82.3(50')

T 14

Tuzuvchi:
Zilola Asqaraliyeva

T 14 **Tadbirli ayol: O'zbek xalq ertaklari / – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 208 bet.**

ISBN 978-9943-07-698-3

Aziz bolajonlar! Inson va tabiat, jonli va jonsiz mavjudotlar o'rtasidagi o'zaro iliq munosabatlar faqatgina ertaklarda hayotiy va yorqin aks etadi. Do'stlik, mehr-oqibat kabi chin insoniy tuyg'ular ertaklarda ulug'lanadi. Ertakda g'aroyib sarguzashtlar hayolotdagi barcha tasavvurlarda haqiqatga aylanadi. Shunday ekan, sehrli olam sirlariga guvoh bo'lishni istasangiz mutolaa qilishga shoshiling!

UO*T: 398.2(=512.133)


KBT 82.3(50')

ISBN 978-9943-07-698-3

© Zilola Asqaraliyeva, 2019.
© “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti, 2019

KENJA BOTIR

ch og'a-ini ovga chiqibdi. Qosh qoraygach, bir o'rmonzorga kelib yotishmoqchi bo'lishibdi. Birinchi kun kechasi katta akasi poyloqchilik qilibdi. Yarim kechadan so'ng uxlab qolibdi, qozondagi ovqatni kimdir yeb ketibdi. O'rtancha og'asi poyloqchilik qilgan kechada ham shu hodisa takrorlanibdi. Uchinchi kuni kechasi Kenja botir poyloqchilik qilibdi, yarim kechadan keyin uyquasi kelibdi. Shunda yonidan pichoqchasini olib, jimjilog'ini biroz qonatibdi. Uning og'rig'iga chiday olmay uxlamabdi. Bir qancha vaqt o'tgach, o'rmon ichidan bir narsa chiqib, to'g'ri qozon tepasiga kelibdi. Kenja botir o'zini panaga olib, kelgan narsani kuzatib turibdi. Bu maxluqning bo'yi bir qarich, soqoli o'n qarich ekan. U qozonda pishib turgan go'shtlarni sekin olmoqchi bo'lib turgan paytda Kenja botir qilich bilan shartta kallasini kesib tashlabdi. Kesilgan kalla dumalab keta beribdi, Kenja botir qozonlab bora beribdi.



Kalla dumalab-dumalab borib, o'rmon chetidagi bir o'raga tushib ketibdi. Kenja botir bir belgi qo'yib qaytib kelibdi, ovqatni pishirib qo'yibdi.

Ertalab Kenja botir kechasi bo'lgan voqeani akalariga aytib beribdi. Akalarini boshlab, kalla tushib ketgan o'raning tepasiga olib kelibdi. Qarashsa, o'ra juda chuqur ekan. O'rtancha bilan Kenja og'a-ini katta akasining beliga arqon bog'lab, uni tushirishibdi. U o'raning yarmiga borgach, "Dod, tortib olinglar!", deb baqiribdi. Ikki og'a-ini uni tortib olishibdi. Keyin o'rtanchasi beliga arqon bog'lab tushibdi. U ham o'raning yarmiga bormay: "Dod, tortib olinglar!", deb qichqiribdi. Uni ham tortib olishibdi. Nihoyat navbat Kenja botirga kelibdi.

Kenja botir belini mahkam bog'lab akalariga:

— Agar men "dod", deb yig'lab, baqirsam ham tortib olmanglar, arqonni bo'sh qo'yib, tushira beringlar! — debdi. Akalari "xo'p", deb uni o'raga tushiribdi. Kenja botir o'raga tusha beribdi, tusha beribdi. Yarim yo'lda nafas olish og'irlashib dod degisi kelsa ham indamay, tishini-tishiga qo'yib tushib bora beribdi. Bir vaqt uzun arqon ham tugabdi, yigit ham yer ostiga yetibdi. Yer osti qop-qorong'i, zim-ziyo ekan. Yigit nima qilishini bilmay, timirskilab, emaklab, so'qmoq yo'l bilan boraveribdi. Biroz yurgach, bir shu'la ko'rinibdi. Shu'laga qarab

emaklab boraveribdi. Kenja botir yurib-yurib shu'la tushib turgan teshikdan yorug' bir hovliga chiqibdi, qaddini rostlabdi. Uzoqdan bir uy ko'rinibdi. Uyning derazasi yoniga borib, quloq solib tursa, bir chiroyli qiz haligi kallani qo'liga olib:

— Men sizga ehtiyot bo'ling, har kuni yer yuziga chiqavermang, qo'lga tushib qolsangiz sizni o'ldirib qo'yadilar, deb aytmabmidim. Mana endi mening aytganim keldi. Tanangiz yer yuzida qoldi, kallangiz mening qo'limda. Endi nima qilamiz, — debdi.

Shu payt Kenja botir qizning qoshiga kirib boribdi. Qiz qo'rqib qochmoqchi bo'libdi. Shunda Kenja botir:


— Qo'rqmang, singlim, men sizni ozod qilgani keldim. Siz kimsiz, qayerliksiz, nima uchun bu yerda yashaysiz? — deb so'rabdi. Avval qo'rqqan qiz yigitning mehribonligini ko'rib, o'zini bosib olibdi. Yigitga shunday javob beribdi:

— Men yer yuzidagi podshohning qiziman. Tog' sayrida yurganimda meni devlar o'g'irlab, shu yerga keltirishgan. Mana bu kalla Serka botirning xizmatkori, yer osti boyligining egasi ekan. Meni Serka botir xotin qilib olmoqchi edi.

Kenja botir qizdan:

— Kallaning joni qayerda? — deb so'rabdi.

Qiz yigitni bir uyga olib kiribdi. Sandiqni ochibdi.



Uning ichida kichkina quti, quti ichida paxtaga o'ralgan bir qurt bor ekan. Uni ko'rsatibdi. Yigit qurtni ezib o'ldiribdi, kalla harakatdan to'xtabdi. Kenja botir qirq hujraning kalitini so'rabdi, qiz kalitni topib beribdi. Hujralarda turli mamlakatlardan olib kelingan qimmatli mollar, asboblari, durlar, gavharlar, zabarjadlar, yoqutlar, oltinlar, kumushlar bor ekan. Bularning hammasini sandiqlarga solib, yer yuziga chiqarib yubormoqchi bo'libdi. U qizga:

— Men sizni yovuz kuchlardan qutqardim, endi yer yuziga olib chiqib qo'yaman, — debdi.

Qiz:

— Xo'p, — debdi. Yigit sandiqlarni ko'tarib, o'raning tagiga olib kelibdi. Arqonga bog'labdi. Arqonni qimirlatibdi, akalari arqonni tortishibdi. Sandiqni ochib qarashsa, turli qimmatli mollar. Yana arqonni tushirib, tortishibdi. Yana sandiq ichida dur-u gavharlar...

Akalari yana arqonni tushirib, bir sandiqni tortib olibdilar. Uning ichini ochib qarashsa, bir qiz: oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor, nihoyatda go'zal. Aka-uka uni ko'rib, hushidan ketay deb qolibdi. Ular yana arqonni tushirishibdi, arqonni tortib qarashsa Kenja botir chiqayotganini ko'rishibdi. Shunda ikkisi maslahat qilishibdi. Katta akasi:

— Agar ukamiz chiqsa, bizga boylik ham, qiz ham tegmaydi. Shuning uchun arqonni kesib yuboraylik, — debdi. Ikkisi arqonni kesib yuborishibdi. Bechora Kenja botir yerga yiqilib tushibdi. Juda xafa bo'lib: "Ha, men akalarimga yaxshilik qilsam-u, ular meni shu ahvolga tushirishdi-ya. Bu qanday gap bo'ldi. Boshim omon bo'lsa, axir yer yuziga chiqib murod-maqsadimga yetarman", deb o'ylabdi. Biroz o'tirib damini olgach, hovliga qaytib kirib, u yerdan kerakli narsalarni olib, yer osti bo'ylab yo'lga chiqibdi. Bir qancha vaqt yo'l yurgandan so'ng uzoqdan "ho'-ho'k", degan tovush eshitilibdi. Tovush kelayotgan tomonga borsa, bir chol-dehqon qo'sh haydayotgan ekan. Yigit cholning oldiga borib:

— Assalomu alaykum, ota! — debdi.

Chol:

— Sekin, sekin, o'g'lim, devlar sezib qolmasin, ko'rib qolsa seni sog' qo'ymaydi. Sen bu yerda nima qilib yuribsan. Axir bu yer odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan joy-ku! — debdi.

Yigit cholga:

— Ota, men adashib qoldim, yer yuziga chiqish yo'lini ko'rsating! — debdi. Chol:

— O'g'lim, mana shu yo'l bilan ehtiyot bo'lib borasan. Uzoqda bir chinor ko'rinadi. Shu chiningorda Semurg' qushning uyasi bor. Shu kunda Semurg' bola ochadi. Semurg' bolalariga ovqat

keltirish uchun ketganda bir ajdaho kelib bir bolasini yeb ketadi. Agar sen botir bo'lsang, shu ajdahoni o'ldirsang, balki Semurg' seni yer yuziga olib chiqib qo'yar, — debdi. Yigit chol ko'rsatgan yo'l bilan chinor yaqiniga boribdi, o'zini panaga olib yotibdi. Bir vaqt ajdaho o'rmalab kelib, chinorga chirmasha boshlabdi. Semurg' bolalari ajdahoni ko'rib chirqillashibdi.

Kenja botir sekin o'rnidan turib, qo'lga qilichini olib, chinor tagiga borib ajdahoni shartta ikkiga bo'lib tashlabdi.

Semurg' bolalari sog' qolibdi. Semurg' bolalaridan biri Kenja botirni o'z qanoti ostiga olib saqlabdi. Kechga yaqin osmondan Semurg' uchib kelibdi. Semurg' bolalari onasiga bo'lgan voqeani aytib beribdilar. Semurg' bolalaridan:

— Qani o'sha sizlarni ajdaho changalidan qutqarib qolgan odamzod? — deb so'rabdi. Kenja botirni qanoti ostida yashirib o'tirgan Semurg' bolasi yigitni ko'rsatibdi. Semurg' yigitga:

— Ey, odamzod, mening bolalarimni o'limdan qutqarib qolibsən. Tila tilagingni, — debdi. Yigit Semurg'dan yer yuziga olib chiqib qo'yishini so'rabdi. Semurg':

— Qiyin ishni so'rading-ku. Ha, mayli, buning uchun ikki mesh tayyorla. Bir meshda suv, bir mesh-

da go'sht bo'lsin. Men suv desam, go'sht berasan, go'sht desam, suv berasan. Men seni yer yuziga olib chiqib qo'yaman, — debdi.

Yigit Semurg'ning aytganiga rozi bo'libdi. Uning hamma narsalarini tayyorlabdi. Semurg' qush ustiga meshdagi suv bilan go'shtni joylab, o'zi ham chiqib olibdi. Semurg' parvoz qilibdi. Bir qancha vaqt o'tgach. Semurg' yigitdan:

— Yer osti qanday ko'rinyapti? — deb so'rabdi. Yigit:

— Qutichadek, — deb javob beribdi.

Semurg' yana uchishni tezlatibdi. Biroz o'tgach "Endi-chi", deb so'rabdi. "Danakdek", deb javob beribdi yigit.

— Endi oz qolibdi, — debdi uchib keta turib Semurg', — Suv! — debdi. Go'sht tamom bo'lgan ekan. Yigit shartta sonidan kesib, Semurg'ga beribdi. Semurg' uning mazasidan odam go'shti ekanini bilib, tilining tagiga tashlab qo'yibdi.

Semurg' uchib-uchib yer yuziga yetibdi. Yigitni ustidan tushiribdi. Semurg' yigitga:

— Keyingi bergan go'shtni qayerdan olding? — deb so'rabdi. Yigit:

— Meshdagi go'shtdan, — debdi. Semurg' ishonmabdi.

— Mendan yashirma, to'g'risini ayt! — debdi.

— Meshdagi go'sht tamom bo'lgan edi. O'ng sonimdan kesib bergan edim, — debdi.

Semurg' tili ostida saqlagan go'shtni olib yigitning soniga yopishtiribdi. Keyin:

— Xayr, yigit, men seni yer yuziga olib chiqib qo'ydim, — debdi-da, o'z bolalari yoniga uchib ketibdi.

Yigit yer yuzida yura-yura ovora bo'lib, o'z akalari turgan o'rmonga yetib kelibdi. Qarasa, ikkala akasi o'rmondagi o'sha o'ra tepasida o'tirgan emish. To'ng'ich akasi: "Qizni men olaman", deb aytsa, o'rtanchasi: "Men olaman", der emish. Yigit akalarining janjallashib turgani ustidan chiqib qolibdi. Qiz Kenja botirni ko'rgan zamonAQ, unga o'zini otibdi. Akalari hayron bo'lib, uyalib qolishibdi. Ikki og'ayini Kenja botirga xiyonat qilgan bo'lsa ham, u akalariga jazoni ravo ko'rmabdi. Kenja botir ularga ham oltin, kumushlardan beribdi, o'zi qizni nikohlab olibdi, murod-maqsadiga yetibdi.

SIRLI TUSH

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, qadim zamonda, Bag‘dod tomonda Zunnun ismli podshoh yashar ekan. Podshohning bir necha xotinlari bo‘lib, hech biridan farzand ko‘rmabdi. Farzandsizlik alami podshohning jon-jonidan o‘tibdi. Oxirgi marta uylanishga ahd qilib, boy ham, kambag‘al ham bo‘lmagan bir kishining qiziga uylanibdi. U homilador bo‘lib, dunyoda go‘zallikda tengi yo‘q bir qiz tug‘ibdi. Qizga Oina deb ism qo‘yibdilar. Oina kundan kunga katta bo‘la boshlabdi. U juda ham ziyrak, aqlli qiz bo‘lib o‘sibdi. Sakkiz-o‘n yoshlarida qiz podshohlik ishlarida otasiga yordam bera boshlabdi.

Podshoh toj-taxtinga, davlatimga ega bo‘ladigan qizim bor deb, xotirjam bo‘libdi.

Kunlardan bir kun podshoh ko‘shkda dam olib uxlab qolgan ekan, bir qush sharq tomondan uchib kelibdi-da, uning boshida ikki marta “g‘aq-g‘aq” deb, g‘arb tomonga uchib ketibdi va birozdan so‘ng g‘arb tomondan qaytib kelib, yana “g‘aq-g‘aq” deb,

sharq tomonga uchib ketibdi. Podshoh uygʻonib qarasa tushi ekan. Hayron boʻlib, bu sirni kimga aytishini bilmasdan, besh-oʻn kun sir tutibdi. Lekin tashvish tortib, koʻrgan tushining taʼbirini bilmoqchi boʻlibdi. Buning uchun avval vazirlarini chaqirib, maslahat soʻrabdi. Vazirlar shahardagi butun mulla va ulamolarni chaqirib, ulardan soʻrashni maslahat beribdilar. Podshoh uch kun ichida shaharning butun katta-kichik ulamo-fuzalolarini chaqirib, koʻrgan tushining taʼbirini aytib berishni soʻrabdi, lekin bironta odam ham javob bera olmabdi. Podshoh ularni zindonga tashlabdi. Buni eshitib qolgan dono qiz — Oina otasi oldiga chiqib, salom va taʼzim qilib, tushning taʼbirini oʻzi aytib berishini bildiribdi. Podshoh ruxsat beribdi. Shunda Oina:

— Otajon, qushning sharqdan gʻarbga uchib ketayotib aytgani “Yaxshi xotin gadoni shoh qiladi”, gʻarbdan sharqqa qaytishidagisi esa “Yomon xotin erini gado qiladi”, deganidir, — debdi. Bu gapni eshitgan Podshoh dargʻazab boʻlibdi, Oinaga qarab:

— Meni podshohlik darajasiga yetkazgan sening onang emas, — debdi-da, Oinani zindonga tashla, deb buyuribdi. Vazirlar va jallodlar qizni zindonga tashlamaslik uchun hiyla oʻylab topibdilar. Ulardan biri podshohga:

— Podshohi olam, Oina har holda farzandingiz, uni hurmat yuzasidan bir dasht-biyobonga olib borib tashlaymiz, — debdi. Podshoh boshini qimirlatib, “mayli” degan ishorani bildiribdi. Shundan so‘ng qizni dasht-biyobonga olib chiqib, qo‘l va oyog‘ini mahkam bog‘lab tashlab kelibdilar.

Oina dasht-biyobonda qo‘l-oyog‘i bog‘liq holda ikki kun ochlik azobini tortib yotibdi, uchinchi kuni Oina uzoqdan bir odamning qorasini ko‘ribdi. Ko‘ringan odam qizning oldiga kelib, darrov uning qo‘l-oyog‘ini yechibdi va qizdan hol-ahvol so‘rabdi, qiz biroz dam olib o‘ziga kelgach, bo‘lgan voqeani yigitga aytib beribdi va yigitning nima ish qilishini so‘rabdi. Yigit o‘zining hech kimi yo‘qligini, tirikchilik uchun faqat o‘tin terib, uni bozorga olib borib sotib, kun kechirishini aytibdi.

Yigitning ota-onasi yoshligida ochlikdan o‘lib ketganidan keyin, u o‘tin terib kun ko‘rishga majbur bo‘lgan ekan, u har kuni bir bog‘ o‘tin terar, tergan o‘tinini bir dona non badaliga sotar ekan, yigitning nomi Salom ekan. Salom bir dona nonga qanoat qilib yashar ekan, Oina bilan uchrashganidan so‘ng Oina unga yordam beribdi. Bir bog‘ o‘tinini yigit tersa, bir bog‘ o‘tinini qiz teradigan bo‘libdi. Ikki bog‘ o‘tinini ikki nonga sotib, birgalashib tirikchilik qilishibdi. Bir kun Oina Salomga:

— Endi ikki bog‘ o‘rniga uch bog‘ o‘tin teraylik: ikki bog‘i non uchun bo‘lsa, bir bog‘i boshqa kamchiligimiz uchun yaraydi, — debdi.

Bir necha kun shu xilda ishlab, oz-moz pul orttirishibdi. Oina bu pulni Salomning qo‘liga berib, bir dona igna, ipak, bosh kiyimi tikish uchun tag olib kelishni buyuribdi. Salom olib kelibdi. Qiz bir necha kun o‘tirib do‘ppi tikib, Salomga beribdi:

— Buni bir dona oltinga soting, puliga bozorda nima ko‘rinsa shuni oling, — debdi.

Salom ajoyib do‘ppini bir oltinga sotibdi. Yigit bozorni aylanib, ko‘ringan narsani olib kelmoqchi bo‘libdi. Bir joyda ko‘pgina odamlarning to‘planib turganini ko‘ribdi. Shu to‘plangan odamlar oldiga borib qarasa, o‘rtada turgan bir qalandar: “Bitta gapim bor, kim bir tilla bersa aytaman”, der emish. Salom: “Xayr, qalandarning gapini shu bir oltinga sotib olsam ola qolay”, deb bir oltinni qalandargaga beribdi. Qalandar esa bir oltinni olib: “Omin, boshing bilan kirib, oyog‘ing bilan chiqqin”, deb duo qilibdi. Salom uyga qaytib kelib, Oinaga:

— Bosh kiyimni bir oltinga sotdim, bozorni aylanib ko‘ringan narsani olay desam, bir qalandar “Bir tillalik gapim bor”, deb turgan ekan, shu gapni eshitgim kelib bir tillani unga berdim, u menga: “Boshing bilan kirib, oyog‘ing bilan chiqqin”, dedi, — debdi.

Oina bu safar mayli deb, yana ikkinchi marta ipak va tag oldirib, do'ppi tikib tayyorlab beribdi va:

— Buni bir tillaga sotib ko'ringan narsani olib keling, — deb tayinlabdi.

Salom bosh kiyimni olib borib bir tillaga sotibdi. Yana aylanib yurib, haligi qalandarga duch kelibdi. Qalandar yana kechagi gapni hadeb takrorlamoqda ekan. Salom bu safar ham qalandarning gapini eshitgisi kelib, bir tillani unga beribdi.

Qalandar: — “Bugungi achchig'ingni, albatta, ertaga qo'y”, — debdi. Yigit qilgan ishini Oina-ga borib aytibdi. Sabri tugagan Oina oxirgi marta bosh kiyim tikib berib, bir tillaga sotishni va ko'ringan narsani olib kelishni buyuribdi. Salom bu safar ham bosh kiyimini avvalgidek sotib, yana o'sha qalandarga uchrab, bir oltinga gap sotib olibdi. Bu safar qalandar:

— “Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga”, — debdi.

Salom uyga qaytibdi. Bu voqeani eshitgan Oina juda xafa bo'libdi.

— Har safar shu hol qaytarila bersa, nima yeb tirikchilik qilamiz. “Bo'lmaganga bo'lishma”, deganlaridek sizga yordam qilay desam, siz mening mehnatimni qadrlamadingiz, oltinlarga gap sotib olib keldingiz, — debdi.

Oina Salom bilan uchrashgandan keyin umr ip-larini bir-birlariga bog‘lagan ekanlar. Ular shahar-ning eng chekkasida katta bir qayrag‘och tagida o‘zlariga kichkina bir yerto‘la qilib olgan ekanlar. Ikkisi shu yerto‘lada yashashar ekan. Oina Salom-ning qilgan ishidan xafa bo‘lib o‘tirganida, ko‘cha-dan o‘tayotgan karvonlarning qo‘ng‘irog‘i eshi-tilib qolibdi. Oina yugurib chiqib, karvonboshiga o‘z eri Salomni karvon bilan birga olib ketishni, o‘ziga yarasha bir ish berishni iltimos qilibdi. Kar-vonboshi rozi bo‘lib, Salomni, karvonni yetaklab borishi uchun xizmatga olibdi. Salom Oinaga o‘zi qaytib kelgunicha yetadigan oziq-ovqat qoldirib ketibdi.

Oina eri qoldirgan narsalarni juda ehtiyotlik bi-lan sarflab, uning kelishini kutibdi.

Salom uzoq yo‘lda yurib karvonlarning xizma-tini qilib, boshidan ko‘p mashaqqatlarni kechirib-di. Karvon uzoq shaharlarga borib qaytib kelayot-ganida jazirama qum cho‘llaridan o‘tmoqda ekan. Karvon ahliga ma‘lum bo‘lgan bu qum cho‘llari-da faqat bir quduq bo‘lib, yo‘lovchilar undan bah-ramand bo‘lar ekanlar. Bu cho‘lda undan boshqa quduq yo‘q ekan. Bu safar suvsagan karvon ahli quduqdan suv olmoqchi bo‘lsa, hech suv chiqmab-di. Shundan so‘ng odam tushirishga majbur bo‘lib-dilar. Bir xizmatkorni belidan bog‘lab quduq ichi-



SAMARQAND IQTISODIY
VA SERVIS INSTITUTI
AJBOROT RESURS MARKAZI

No 54469

ga tushiribdilar. So'ngra tortib olsalar tushgan odamning boshi kesilgan holda tanasi chiqibdi. Yana boshqa odamni tushirishibdi. Yana shunday bo'libdi. Kimni quduqqa tushirishsa, boshi kesilgan holda tanasi chiqaveribdi. Bu ahvoldan taajjublangan karvon ahli nima qilishini bilmay, shoshib qolibdi. Manzil yiroq, suv albatta kerak. Agar suv bo'lmasa, hammasi halok bo'lishi mumkin. Shunda Salom:

— Mayli, men tushay, baxtimni sinab ko'ray, meni belimdan bog'lamang, oyog'imdan bog'lab, boshim bilan sekin-sekin tushiring, — debdi. Chunki xuddi shu paytda qalandardan bir tillaga sotib olgan gapi esiga tushgan ekan.

Salomni quduqqa sekin-sekin tushirayotganlarida esiga "Assalomu alaykum" so'zi kelibdi-da, "Assalomu alaykum", deb yuboribdi. Quduq tagida ikki dev bir-biriga ro'baro' bo'lib o'tirgan ekan. Birinchisining qo'lida toshbaqa, ikkinchisining quchog'ida bir go'zal qiz turgan emish. "Assalomu" so'zi devlarga ma'qul bo'lib, yigitning boshini uzmaabdilar, undan gap so'ray boshlabdilar. Devlardan biri yigitga:

— Ey, odamzod, biz ikkimiz bir yildan buyon tortishib o'tiribmiz. Birimiz mana bu qizni, birimiz esa mana bu toshbaqani yaxshi ko'ramiz. Seningcha qaysi biri yaxshiroq, agar to'g'ri javob bersang, har qanday talabing bo'lsa ham bajarishga tayyormiz, — debdilar.

Salomning esiga qalandardan bir oltinga sotib olgan gapi tushib, darhol:

— Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga, — debdi.

Bu so'zdan xursand bo'lgan devlar qah-qah otib kulib yuboribdilar va suv yo'lini ochib beribdilar. Salom chelakda suv chiqara berib butun karvonni ta'minlabdi. Suv chiqarib bo'lgach, devlar Salomga juda ko'p oltin, gavhar va qimmatbaholar narsalar in'om qilishibdi. Salom quduqdan chiqqach, suvga sarxush bo'lgan karvon ahli uni juda xursand bo'lib kutib olishibdi. Karvonlar manzilga tezroq yetib olish uchun yana yo'lga ravona bo'libdilar.

Oina eri ketgach, o'zi yolg'iz kun kechira boshlabdi. Uning qornida gumonasi qolgan ekan, oy-kuni yetganda bir o'g'il tug'ibdi.

Xuddi o'g'il tug'ilgan kuni Oinalar yashab turgan yerto'la tepasidagi qayrag'ochda qaldirg'och ham bola ochgan ekan. Shuning uchun Oina o'g'liga Qaldirg'ochbek, deb ism qo'yibdi. Bola kundan kunga o'sib, katta bo'la boshlabdi. U endi onasiga yordam beradigan bo'lib qolibdi.

Kunlardan bir kun Oina ota-onasini va uzoq muddatdan buyon kelmayotgan erini o'ylab xafa bo'lib yig'labdi. Shunda Qaldirg'ochbek:

— Ona, nega yig‘laysiz? — debdi.

Oina:

— O‘g‘lim, senga qarab turib yig‘layapman. Sen ancha katta bo‘lib qolding, qo‘lingdan har ish keladigan bo‘ldi, otang bo‘lganda sen unga yordam berarding, bechora otang tirikchilikning hasratida ketganicha dom daragi yo‘q. Tirikmi, o‘lganmi, bilmayman. Seni ko‘rganda albatta quvonar edi, — debdi. Shu kuni ona-bola uzoq gaplashib, hasratlashib uyquga ketibdilar.

Tun yarmidan o‘tganda karvonlar shaharga yaqinlashibdi. Salom uyiga yaqinlashgan sari xotini Oinani o‘ylab: “U meni kutmagandir, boshqa erga tekkan bo‘lsa kerak yoki ochlikdan o‘lgan bo‘lsa kerak”, deb o‘ylayveribdi. Qayrag‘och tagiga yetib kelganda, tong yaqinlashgan ekan. Salom tuyaga ortilgan o‘ziga qarashli oltin, gavhar va qimmatbaho narsalarni tushiribdi, karvonlar bilan xayrlashib, sekin yerto‘laga tusha boshlabdi. Tushib qarasa, Oina qattiq uyquda, yonida bir chiroyli yigit yotgan emish. Darhol pichog‘ini qinidan olib, uni o‘ldirmoqchi bo‘libdi, lekin qalandardan bir tillaga sotib olgan “Bugungi achchig‘ingni, albatta, ertaga qo‘y!”, degan gapi esiga tushib qolibdi. Salom achchig‘ni to‘xtatib: “Avval uyg‘otay, gap so‘rab, anig‘ini bilamas”, deb xotinini uyg‘otibdi. Oina ko‘zini ochib qarasa, qarshisida eri Salom turgan emish. Sevinganidan birdan qichqirib yuboribdi:

— Tur, Qaldirg'ochbek, dadang, keldi, — deb o'g'lini ham uyg'otibdi. Ota-bola yig'lab ko'rishibdilar. Shundan so'ng er-xotin boshidan o'tgan barcha voqealarni bir-birlariga aytib beribdilar. Achchig'ini ertaga qo'yganiga Salom xursand bo'libdi. Chunki uxlab yotgan yigit o'g'li ekaniga quvonibdi. Salomning keltirgan boyligini ko'rib Oina benihoyat shodlanibdi. Ehtiyot bilan sarflash uchun reja tuzibdi. Oina avvalo otasining saroyiga o'xshagan saroy bino qilishni, saroy tayyor bo'lgach, ota-onasini mehmonga chaqirib, o'zini tanitishni o'ylabdi.

Oinaning maslahati bilan Salom shahardagi eng yaxshi ustalar, duradgorlar va naqsh soluvchi o'ymakorlarni to'plab, bino qurdira boshlabdi. Oina saroy rejasini o'zi chizib beribdi. Imoratlarni otasining binosi taxlitida qurdiribdi. Imorat bir oyda tayyor bo'libdi. Binoning ichki-tashqi bezaklari juda yaxshi qilinibdi. Binoga qo'yish uchun podshohning uyida qanday jihozlar bo'lsa, shunday jihozlarni olibdi.

Ungacha Oina va Salomning dong'i butun shaharga, hattoki boshqa shaharlarga ham tarqalibdi.

Salom podshohni xotini bilan mehmonga chaqiribdi. Podshoh: Oinaning onasi va yana bir necha xotinlarini olib, mehmonga kelibdi. Oina katta tayyorgarlik bilan ularni kutib olibdi.

Podshoh imoratga asta oyog'ini qo'yib kira boshlab, to mehmon bo'ladigan xonaga yetguncha ajoyib manzarani ko'ribdi. Uylar, uylardagi xilma-xil buyumlar go'yo podshoh uyidagidek. Bu holdan taajjublangan podshoh sukut bilan mehmonxonaga kirib o'tiribdi. Dasturxondagi turli mevalar, ajoyib taomlarni ko'rib, yana hayron qolibdi. Hammasidan ham, ayniqsa, shu uy podshohning mehmonxonasiga o'xshagani va undagi buyumlar ham podshohnikiga o'xshagani uchun podshoh ichida: "Men podshoh bo'lsam-u, mening fuqaroyim shu darajaga yetib, mendan o'tib ketsa, bu qanaqasi", deb rashk qilibdi.

Ziyofat davom etib turgan paytda Oina mehmonxonaga kirib kelibdi, mehmonlarga salom berib, ularning kelganiga o'z xursandligini bildiribdi, so'ngra otasiga shunday debdi:

— Otajon, meni kechiring, tush ta'birini aytgan gunohkor qizingiz Oina — men bo'laman. Men sizga haqiqatni aytgan edim. Mana, kuyovingiz kimsasiz o'tinchi edi. Ikkimiz birgalashib mehnat qildik, xor bo'lmadik, och qolmadik, reja bilan ish qilib bordik, mehnatdan bosh tortmadik, kam bo'lmadik. Natijada sizning darajangizga yetdik. Demak, gadoni podshoh qiladigan ham xotin ekan, — deb otasiga ta'zim qilibdi.

Podshoh Oinani ko'rib, hushidan ketibdi, hushiga kelgach, o'zining butun qilmishlariga pushaymon qilibdi va bu kechirilmas gunohlari uchun Xudoga tavba qilib, uzr so'rabdi.

Qiz otasini kechiribdi. Podshoh butun toj-u taxtini Oinaning o'g'li Qaldirg'ochbekka beribdi. Shunday qilib, er-xotin — Salom, Oina va o'g'li Qaldirg'ochbek har ikki saroyda tinch yashay boshlashibdi.



AJDAR QUSH

adim zamonda bir katta tog'ning tagida qo'rqinchli g'or bor ekan. Ovloqda yashashni ixtiyor qilgan kishilar shu g'orni makon qilishar ekan. Kunlardan bir kuni ota-onasi o'lib, yoshligidan yetim qolgan bechora bir qiz o'sha vahimali g'orni o'ziga makon qilibdi. Bu qizning boshqa kiyishga kiyimi, yotishga ko'rpa-to'shagi ham yo'q ekan. Shunday bo'lsa ham qiz o'zining husn-jamoli bilan to'lin oyni ham xira qilar ekan. G'or tepasidagi teshiklardan burgut, lochinlar changalidan tushib qolgan kichik go'sht parchalari qizning kundalik ovqati uchun kifoya qilar ekan. O'tkinchilarning g'ordagi qizni ko'rib, bu g'orni bir parizod makon qilibdi, deb ketar ekanlar. Kundan kunga el-yurt orasida bu gap tarqalla boshlabdi. Kichik bolalar g'or yaqiniga yo'lay olmay "parizod bor", deb qo'rqib qochar ekanlar. Shu g'or yaqinidagi bir daraxtda keksayib qolgan ajdar qush ham yashar ekan. Bir kuni ajdar qush qizni ko'rib oshiq bo'libdi. U shu vahimali g'ordagi

qiz yoniga kelib, qizning jamoliga tikilib tomosha qilar ekan. Shunday qilib, ajdar qush ham g'orni o'ziga makon qilibdi. O'zi ketganda qizni g'or ichida qoldirib, g'orning og'ziga katta tosh qo'yib, tilla shoxi bilan tilsimlab ketar ekan. Qaytib kelib tilsimli tilla shoxi bilan g'or og'zidan toshni olib, yana qizning jamoliga tikilib yotar ekan. Har kuni oqshom bo'lganda g'ordan chiqib, qishloqlar ustida uchib yurar, tortib na'ra tortib, odamlarni damiga tortar ekan. Oydan oy o'tibdi, yildan yil o'tibdi. Bu gap podshohning qulog'iga yetibdi.

Podshohning qizi "Kimki shu ajdar qushni o'ldirsa, shu odamga tegaman", deb jar soldiribdi. Hech kim yurak botinib, ajdar qushni o'ldirish uchun bel bog'lab chiqmabdi. Ajdar qush oqshomda shahar ustigacha keladigan bo'libdi.

Shu shahar yaqinida bir botir yigit bor ekan. U o'z g'ayrati, shijoati bilan hammani lol qoldirar ekan.

Bir kuni podshoh "Tog'lar orasida toshni toshga urishtirib yurgan yo'lbars bilakli, arslon yurakli polvon yigit bor emish", deb eshitibdi-da, o'z odamlarini yuborib, yigitni chaqirtirib kelibdi. Podshohning qizi yigitni yoniga chaqirib, ajdar qushni o'ldirishga buyuribdi.

Yigit rozi bo'lib ajdar qush yashagan g'or tomonga yo'l olibdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yu-

rib ajdar qush yashagan tog'ga yetibdi. Tog'ning past tomonga engashib turgan cho'qqilariga qarab, ajdar qushning uyasi qaysi ekanini bilmay o'tirgan ekan, kun botib, olam qorong'ilashganda ajdar qush uyasidan toshlarni dumalatib, ag'darib chiqib kelibdi. Polvon shunday qarasa, ajdar qush kelayotibdi, ikki yonida rosa to'rt qulochdan sakkiz quloch qanoti bor. Badanidagi nuqtalaridan yalt-yalt etib olov shu'lasini chiqib turibdi. Polvonning karkidon shoxidan qilingan o'q-yoyi bor ekan. Yerga oyog'ini tirab, Allohdan madad tilab, ajdar qushning qoq manglayidan ko'zlab otibdi. O'q borib ajdar qushning manglayiga to'rt qarich botibdi, ajdar qush uchmoqchi bo'lgan ekan, ucholmabdi, birdan yerga ag'darilib tushib o'libdi. Polvon ajdar qushning tilla shoxini cho'ntagiga solib qo'yibdi. So'ngra biroz damini olib, ko'ngli tinib tog' cho'qqisiga chiqib o'tiribdi. Podshoh qizi bilan qilgan shartini ham esidan chiqarib yuboribdi.

Kunlardan bir kun yigit yurib-yurib yana ajdar qush yashagan g'orga borib qolibdi. G'or og'zida ajdar qushning izlari hali ham turgan emish. Polvon yigit "Ajdar qushning g'ori shu ekan", deb g'or ichiga kiribdi. U g'orning to'rida katta bir tosh turganini ko'ribdi. Toshni oyog'i bilan itarib ko'ribdi, tosh qimirlamabdi. Yigit

hayron bo'lib toshning u yoq-bu yog'iga qarabdi. Qarasa, toshning chetida "Men tilsimli toshdirman, yuz ming polvon ko'tarsa ham ochilmayman. Mening kalitim ajdar qushning shoxi", deb yozilgan xati bor emish, polvon uning tilsimli tosh ekanini bilib, darrov cho'ntagidan ajdar qushning shoxini olib toshga tekkizibdi. Tosh birdan sharaqlab ag'darilib ketibdi. Polvon yigit ichkariga kirib qarasa, bir chiroyli qiz o'tirgan emish. Qiz ham ro'parasida turgan yigitni ko'ribdi. Yigit qizning qaddi-qomatiga, chiroyligaga boqib, unga mehr qo'yibdi. Shunday qilib, polvon bilan qiz bir-birlariga muhabbat qo'yib, birga yashay boshlashibdi.

Polvon har kuni tog'larga chiqib ov ovlab, kiyik va turli jonivorlarni tutib kelar ekan. Yigit bilan qiz g'orda yashay beshlabdilar.

Ajdar qush o'lgandan keyin xalqning ko'ngli tinchibdi. Podshohning qizi esa ajdar qushni o'ldirgan polvon yigit kelmagandan keyin, biror joyda o'lib qolgan bo'lsa kerak, deb vazirning o'g'liga tegibdi.

Kunlardan bir kuni podshoh "Polvon yigitning zarbidan ajdar qush o'lgan emish, g'orda yashovchi qizni olgan emish, shuning uchun kelmay qolgan emish", deb eshitibdi. Podshoh g'ordagi parizodga g'oyibona oshiq bo'libdi. U


bir qancha askarlarini olib shu g'or tomonga yo'l olibdi. Yo'l yursa ham mo'l yurib, uch kun deganda g'orga yetibdi. Tog'ning cho'qqilariga qarab to'plarni ota beribdi. G'orning atrofini askarlar o'rab olishibdi. Yigit tog' cho'qqisidan turib bir katta toshni dumalatib yuboribdi. Dumalagan tosh boshqa toshlarga urilib, o'zi bilan bir qancha toshlarni dumalatib tushibdi. Dushmaning ko'p askarlari tog' tagida yanchilibdi, qolganlari qochib ketibdi. Odamlar bu voqeani eshitib, polvonga ixlos qo'yishibdi. Uning xizmatiga kela boshlashibdi.

Podshohdan xalqning ixlosi kundan kunga susaya beribdi. Polvon yashagan g'orga har kuni yuzlab, minglab mehmonlar kelar ekan. Lekin ularni mehmon qilish uchun polvon hech narsasi bo'lmaganidan xafa bo'lar ekan. Kunlardan bir kuni polvon yigit uyqusidan uyg'onib ko'zini ochib qarasa, qorong'i g'orning to'rida ninaning ko'ziday yorug'lik shulasini ko'ribdi. Borib teshikni kattaroq o'yib qarasa, u tomonda katta bog', o'rtada chiroyli qasrlar, saroylar oldida turli-tuman daraxt mevalari pishib tagiga tushgan emish.

Shisha hovuzlar atrofi gulzor, marmar supalar, shirin so'zli qizlar ovqat tayyorlab yurgan

emish. Polvon yigit teshik yonidagi katta toshni ag‘darib tashlab, qiz bilan o‘sha bog‘ga o‘tishibdi. Qizlar ularni hurmat bilan kutib olishibdi. Shu bog‘ni qiz bilan yigit o‘zlariga makon qilib, tinch yashay boshlashibdi. Bu bog‘i chorbog‘ qizning azob chekkan kunlarida ko‘zidan oqqan yoshidan paydo bo‘lgan ekan.





OTA VASIYATI

Bir odamning uch o'g'li bor ekan, o'ladigan vaqtida katta o'g'lini chaqirib:

— O'g'lim, men o'lsam uch kun go'rimni poylaysanmi? — debdi.

O'g'li:

— Yo'q, men poylamayman, — debdi. Otasi o'rtancha o'g'lini chaqirib:

— O'g'lim, men o'lsam sen go'rimni uch kun poylaysanmi? — debdi. O'rtancha o'g'li:

— Yo'q, men poylamayman, — debdi. Kichik o'g'lini chaqirib:

— O'g'lim, men o'lsam uch kun go'rimni poylay-sanmi? — deb so'rabdi.

Kichik o'g'li:

— Ota, uch kun emas, yuz kun poylagin desangiz ham poylayman, — debdi. Vasiyat tamom bo'lgandan so'ng, haligi odam o'libdi. Kichik o'g'li otasi o'lgandan keyin go'rni poylab yotibdi. Yarim kecha bo'lganda bir oq ot osmondan yarog'-aslaha, kiyim-kechak bilan tushib go'rni uch marta ayla-

nibdi. Shu payt bola uygʻonib otni ushlabdi. Bola otdan:

— Nima uchun sen goʻrni uch marta aylanding? — deb soʻrabdi. Oq ot:

— Men otangning tirikligida uning amrida yurardim, hozir otangning goʻrini ziyorat qilib ketaman, — debdi-da, ketayotganida yolidan bir tola yulib, bolaning qoʻliga beribdi:

— Qachon boshingga bir mushkul ish tushsa, shu moʻyni tutatib yoʻqlasang, hozir boʻlaman, — debdi.

Bola ertasiga kechasi yana borib poylab yotibdi. Yana yarim kechada osmonda bir qora ot parvoz etib yerga tushibdi-da, goʻr atrofidan uch marta aylanibdi. Bola oʻrnidan turib qora otni ushlabdi va:

— Nima uchun sen kelib goʻrni uch marta aylanding? — deb soʻrabdi. Shunda ot:

— Men otangning oti edim, qachon mingisi kelsa chaqirar edi. Hozirda oʻlgan ekan, shuning goʻrini ziyorat qilib ketish uchun osmondan tushdim, endi mendan senga bir nishona qolsin, — deb bir tola yolidan yulib, bolaning qoʻliga beribdi.

— Qachon boshingga biror mushkul ish tushsa, mana shu moʻyni tutatsang, men hozir boʻlaman, — deb uchib ketibdi.


Uchinchi kuni bola yana borib goʻrni poylabdi. Yarim kecha boʻlganda yana bir saman ot osmondan tushib, goʻrni uch marta aylanibdi. Bu ham yasatigʻliq ekan. Bola saman otdan soʻrabdi:

— Nima uchun otamning goʻrini uch marta aylanding?

Ot aytibdi:

— Men otangning oti edim, qaysi vaqtda zarur boʻlib qolsam, kelib xizmatini bajo keltirib ketar edim. Otang oʻlibdi, uning goʻrini ziyorat qilib ketish uchun tushdim, — debdi-da, u ham moʻyidan bir tola yulib, bolaning qoʻliga beribdi.

Shu bilan uch kunlik vasiyat tamom boʻlibdi. Toʻrtinchi kuni bola yana borib goʻrni poylagan ekan, hech kim kelmabdi, shu bilan goʻrni poylash ham tamom boʻlibdi. Otadan qolgan mol-dunyoni uch oʻgil boʻlib olishibdi. Bu mol-dunyoni sarf etib, tamomlab, endi ular uch ogʻayni yurtning moli — podasini boqadigan boʻlishibdi. Shu bilan tirikchilik oʻtkazib yurishibdi. Lekin akalari shunda ham toʻgʻri yurmasdan yurtning sigiri, buzogʻini sotib yeb, soʻyib yeb, xalqni tinchitmay qoʻyishibdi. Shunda el kattalari koʻplashib bularning uchovini ham shahardan haydab yuborishibdi. Bular uchovi boshqa shaharga joʻnashibdi. U shaharda ham mollarni yigʻib podachilik qilib yurishibdi. Kichkina ukasi mol boqib yurganda, haligi ikki akasi sha-



harga tomosha qilgani tushib ketishibdi. Shaharda ular g'alati bir voqeaga duchor bo'libdilar. Podshoh bir ravoqqa qirq pog'onalik narvon qo'ydiribdi. U narvonning tepasiga qizining ravog'ini qurdiribdi va xaloyiqqa jar solibdi:

— Har kim xoh ot bilan, xoh eshak bilan, xoh tuya bilan chiqib qizimning qo'lidan bir kosa suv olib ichsa, uning qo'lidan nishonlik uzukni olib tushsa, qirq kun to'yini qilib, el-yurtga osh berib, nikoh qilib beraman, — debdi. Bu xabar yurtga mashhur bo'libdi. Ot mingan ham jo'nabdi, eshak mingan ham jo'nabdi, tuya mingan ham podshohning eshigi tagiga qarab jo'nabdi. Xaloyiq ko'rsaki, ot, eshak, tuya minganlar qirq pog'onalik narvonga chiqqa olmay, yerga qulab tushaveribdi. Bu hodisani ko'rgan ikkala aka-uka podachi ukalarining oldiga qaytib kelibdilar va ukalariga:

— Ey, uka, shaharda shunday tomosha ko'rdik, juda ajoyib, — debdilar. Shunda ukasi:

— Qanday tomosha ekan? — deb so'rabdi. Akasi:

— Podshoh qirq pog'onalik narvonni qo'yib, har kim ot o'ynatib chiqib, qizning qo'lidan bir piyola suv ichsa, uzugini olib qaytib tushsa, shu odamga qizimni qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib beraman, deb va'da beribdi. Ot mingan ham, eshak mingan ham, tuya mingan ham “chuh”, deb narvonga chiqish uchun harakat qildi, hech qaysisi

chiqolmadi — yiqildi, mayib boʻlib qaytib ketdi. Shunday tomoshalarni bizlar koʻrdik, uka! — debdi. Bu xabarni eshitgan ukasi:

— Ertaga molni sizlar boqinglar, men ham shaharga tushib tomosha koʻrib kelay,— desa, akalari:

— Yoʻq, sen ketsang biz och qolamiz, — deb unga javob berishmabdi. Ertasiga akalari yana oʻsha tomoshani koʻrgani ketishibdi. Ukasi kechgacha mollarni boqib toʻygʻazib, bir tolning tagiga toʻplab, yotqizib qoʻyibdi. Oq otning tutatqisini tutatibdi. Osmondan oʻsha oq ot yarogʻ-aslaha, kiyim-kechagi, sarposi bilan uchib tushibdi. Podachi bola sarponi kiyib, yarogʻ-aslahani beliga taqib, otni minib, podshohning oʻrdasiga kirib boribdi. Borib, narvonga otini toʻgʻri qilib “chuh”, degan ekan, ot oʻynab ikki kam qirq pogʻonaga chiqibdi, otning boshini tortib qaytib tushibdi. Pastda turgan olomon: “Ey, bola, yana “chuh” degin, “chuh” desang chiqib ketar edi-ya”, deb qola berishibdi. Bola qaytib kelib molini haydab, boqib yuraveribdi. Kechqurun akalari kelib bolaga:

— Bugun bir boʻz otliq odam kelib narvonga otni roʻpara qilib “chuh” dedi. Ot ikki kam qirq pogʻonaga chiqdi. Otning boshini qaytarib tushib ketdi, — deb ukasiga aytib berishibdi.

Ukasi:

— Bugun menga javob bersalaring, molni sizlar boqib tursalaring, men ham tomoshani bir ko'rib kelsam, — degan ekan, akasi:

— Ey, uka, sen ketsang biz nima yeymiz? — deb ukasiga javob bermabdi. U kecha o'tibdi, tong otibdi, akalari yana tomosha uchun shaharga ketibdilar. Bola mollarni boqib, to'yg'izib, tolning tagiga yotqizib qo'yibdi. Bola saman otning tutatqisini olib tutatibdi. Shunda saman ot yarog'-aslahalari, sarposi bilan osmondan tushibdi. Bola sarponi ki-yibdi, yarog'-aslahalarni beliga taqibdi. Otni minib podshohning o'rdasiga kirib kelibdi. Odamlar ko'rdiki, bu ot kechagi kelgan otdan qirq chandon yuqori. Bola narvonga otni ro'para qilib "chuh", debdi. Bir kam qirq pog'onaga ot o'ynatib chiqibdi. Otning boshini tortib, ketiga qaytaribdi. Ot narvondan tushib ketibdi. Odamlar: "Nomard ekan, yigiti tushmagur, "chuh" desa chiqib ketar ediya", deyishibdi. Kun kech bo'libdi, xaloyiq tomosha tamom bo'ldi, deb uyiga qaytib ketibdi. Akalari qaytib borib, ukasiga:

— Kechagi ot bugungi kelgan otning yarim barobaricha ham emas, o'zi saman, "chuh", deyishi bilan bir kam qirq pog'onaga o'ynab chiqdi, agar yana bir "chuh", desa qirq zinaga bermalol chiqib ketar edi, otning boshini tortib, qaytib tushib ketdi, — deyishibdi. Shunda ukasi:

— Bugun sizlar molni boqib tursalaring, men ham borib shu tomoshani bir ko‘rib kelsam, — debdi. Shunda akalari:

— Sen ketsang biz nima yeymiz? — deb ukasiga javob berishmabdi.

U kecha borib yotibdilar, tong otibdi. Akalari yana tomoshaga qarab ketibdi. Ukasi molni boqib to‘yg‘azib, to‘plab olib kelib, bir tolning tagiga yotqizibdi. Uchinchi qora otning tutatqisini tutatibdi. Qora ot osmondan yarog‘-aslahalari, kiyim-sarposi bilan tushib kelibdi. Bola sarponi kiyibdi, yarog‘-aslahalarni beliga taqibdi. Otni minib, podshohning o‘rdasiga kirib kelibdi. So‘ngra otning boshini narvonga ro‘para qilib “chuh”, debdi. Ot o‘ynab qirq pog‘onaga chiqib, qizning taxtiga yetibdi. Yigit otdan tushib qizning qo‘lidan bir kosa suv ichib, uning qo‘lidagi uzugini olib qaytib tushibdi. Bola o‘z joyiga qaytib, otni qo‘yib yuborib, o‘z podasini boqib yura beribdi. Akalari qaytib kelib podshohning uyida to‘y-tomosha bo‘lgani, qancha ot, eshak, tuya, odam o‘lgani haqida ukasiga birma-bir bayon etibdilar.

— Birinchi ot ikkinchisiga qaraganda hech ot emas, ammo bugun uchinchi bir ot kirib keldi. O‘rda-da o‘yin qilib, qirq pog‘onalik narvonga chiqdi. Bahodir yigit ham otdan tushib, podshoh qizi qo‘lidan bir kosa suv ichib, qo‘llaridan uzukni olib tushib ketdi.

Ukasi:

— Sizlar shuncha yaxshi tomoshani koʻrdinglar, menga ham bir kun javob bersalaring men ham shunday tomoshani bir koʻrib kelsam, — deganda, akalari toʻy tamom boʻlganini aytibdilar.

Uch aka-uka avvalgicha mollarni boqib yura-veribdilar. Kunlarning birida podshoh yurtga:

— Kimda-kim qizimning qoʻlidan suv ichgan, uzugini olgan boʻlsa, oʻrdaga kelib oʻzini tanitsin, toʻyni boshlaymiz, — deb xabar beribdi.

Podshoh bir odamning qoʻliga obdasta va chilopchin berib: “Har kim qoʻlini yuvsa, qizimning qoʻlidan olgan uzukni koʻrsang, menga xabar berasan”, — debdi. Har kuni el-yurti chaqirib, osh-non tortib, oʻttiz kungacha osh berib, odamlarning qoʻllariga suv beribdi. Hech kimdan uzuk chiqmabdi. Podshoh:

— Hech odam qolmadimi? — deb soʻrabdi. Vazir:

— Agarda qolgan boʻlsa, qishloqda mol boqib yurgan podachilar qolgandir, — deb javob beribdi. Podshoh ularni ham ayttirib kelishni buyuribdi. Bir vazir borib ularni olib kelibdi. Qoʻliga suv quyib qarasalar, haligi podshohning qizi qoʻlidagi uzuk kichik oʻgʻilning qoʻlidan chiqibdi. Ikki aka:

— Qanday qilib bizning ukamizga bu uzuk tegib qolibdi, — deb hayron bo‘libdilar.

Bola otasining go‘rini uch kun poylaganda bo‘lgan sir-asrorni aytibdi. Shunda akalari biz otamizning vasiyatini qulog‘imizga olmadik, deb pushaymonlar qilib, ukasining to‘yini tomosha qilibdilar.

Qirq kun to‘y-tomosha qilib, podshoh qizini unga nikohlab beribdi.

Oradan bir oy o‘tibdi. Podshoh o‘libdi. Uning o‘rniga kuyovini yurt podshohi qilib ko‘taribdilar. Kenja o‘g‘il murod-maqsadiga yetibdi.



ABDUAZIZ

Bir boyning o'g'li bor ekan. Uning ismi Abduaziz ekan. Kunlardan bir kun boy o'lib, mol-u davlati o'g'liga qolibdi. O'g'li esa o'ziga qirqta jo'ra orttirib, ularga ziyofat qilar ekan. Jo'ralari ketadigan vaqtida har biriga bir hamyondan tilla berib yuborar ekan. Bir necha yillar o'tgandan keyin otasidan qolgan mollar tugabdi. Qirqta jo'rasi ham uni tashlab ketibdi. Bir kuni yigitning hatto yeyishga ham hech narsasi qolmabdi. Bozorga chiqib qarasa, haligi qirqta jo'rasi har xil narsalar sotishyapti. Yigit ularning oldiga borib:

— Mening xotinim homilador edi. Yeyishga hech narsamiz qolmadi. Biror narsa beringlar, — debdi. Jo'ralar “Ey, bor yo'qol, bizning senday jo'ramiz yo'q”, deb hech narsa bermay jo'natishibdi. Yigit hech narsa topa olmay, ma'yus bo'lib xotini oldiga qaytibdi. Xotinini bir qo'shnisiga topshirib, o'zi biror narsa topib kelarman, deb yana chiqib ketibdi. Shahardan chiqib ketayotganda karvonlarga yo'liqibdi. Karvonboshi yigitga:

— Ey, yigit, yo'l bo'lsin, — debdi.

Yigit:

— Men ish qidirib chiqdim, — debdi.

Karvonboshi:

— Biz bilan yur, — debdi. Yigit xursand bo'lib, ularga sarboz bo'lib, karvon bilan jo'nab ketibdi. Bir necha kun yurgandan keyin sahroda bir quduqqa yetibdilar. Quduq yoniga kelishlari bilan tuyalari cho'kib qolibdi. Tuyalarni sug'ormoqchi bo'lib, quduqqa paqir tashlasalar, quduq suv bermabdi. Quduqqa odamlarni tushirishsa, ularning kallasi kesilgan holda chiqibdi. Navbat Abduazizga yetibdi. Karvonboshi:

— Quduqqa tushib suv olib chiq! — debdi. Abduaziz:

— Odamlarni tashlaganingizda qaysi tomoni bilan tashlaysizlar? — debdi. Karvonboshi:

— Belidan bog'lab tashlaymiz, — debdi. Abduaziz:

— Bo'lmasa meni oyog'imdan bog'lab, boshim bilan tushiringlar, — debdi.

Ular Abduazizning oyog'idan bog'lab, boshi bilan quduqqa tushirib yuborishibdi. Abduaziz quduqqa tushib ko'zini ochib qarasa, biri oq, biri qora ikkita dev o'tiribdi. Shu ikkita dev hech kimga suv bermay, tushgan odamlarning boshini olib qolar ekan.

Shuning uchun hech kim suv ola olmas ekan. Oq dev bilan qora dev Abduazizdan:

— Mana shu tizzamizdagi oq va qora qurbaqalardan qaysi biri chiroyli, — debdi. Abduaziz o'ylab turib:

— Ey, devlar, har kimning sevgani o'ziga chiroyli, — deyishi bilan, devlar quduq boshidan ketibdi. Abduaziz karvonlarga yetarlicha suv chiqarib beribdi. Karvonlar tuyalarga to'yguncha suv ichirdi. Suvni chiqarib bo'lgandan keyin devlar Abduazizga bir savat gavhar berishibdi.

Savdogarlar Abduazizning xizmatlari uchun oltita tuyani ustidagi yuki bilan unga beribdilar. Abduaziz uchta yukli tuya bilan quduqdan olib chiqqan gavharlarni bir odam orqali xotiniga yuboribdi. O'zi uchta yukli tuyaga bosh bo'lib, bir shaharga qarab yo'l olibdi.

Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib shaharga yaqinlashibdi. U shaharning xalqi ko'ktirnoq degan kasalga yo'liqqan ekan. Ko'ktirnoq kasaliga uchragan odam murch yesa tuzalar ekan. Abduaziz bu voqeani eshitib, to'g'ri podshoh saroyiga borib, o'zining o'ttiz tuya murch olib kelganligini aytibdi. Podshoh Abduazizga:

— Ey, yigit, murchingning narxini ayt, — debdi. Abduaziz:

— Ey, podshoh, menga hech narsa kerak emas, faqat shahar xalqi kasaldan tuzalsa bo'ldi, — debdi.

Podshoh vazirlariga:

— Bo'lmasa, murchning narxini sizlar belgilanglar, — debdi. Vazirlari:

— Podshohi olam, bir qoshiq qonimizdan kechsangiz, aytamiz, — deyishibdi. Podshoh:

— Kechdim, aytinglar, — debdi.

— Qizingizni shu yigitga berasiz, — debdi vazirlar. Podshoh rozi bo'libdi. Xotin, bola-chaqasi bo'lgani uchun Abduaziz bu taklifni qabul qilmabdi.

Endi gapni Abduazizning xotinidan eshiting. Abduaziz yuborgan o'ttiz tuya molni olgan xotin gavharlarni tokchaga terib qo'yibdi. To'rt yoshli o'g'li qo'lga xivich olib, tokchadan gavharlarning birini biriga urib o'ynaganda, bir anor donasidek gavhar yerga tushib ikkiga bo'linib ketibdi. Abduazizning xotini ikkiga bo'lingan gavharning chiroyliligini ko'rib hayron bo'libdi.

Yarim gavharni zargarga olib boribdi. Zargar yarim gavharni olib, o'rniga tilla beribdi. Xotin tillani olib kelib, bir qancha ustalarni chaqirib juda ham yaxshi, hashamatli uylar qurdirib, badavlat bo'lib ketibdi.

Abduaziz bir necha yillardan keyin karvonga mollar ortib, o'z shahariga jo'nabdi. Bir qan-



cha yo'l yurib shahariga kelsa, uyi o'rnida katta imorat qurilibdi. Abduazizning xotini derazadan erini ko'rib qolib, o'g'lini chaqirib gap o'rgatibdi:


— O'sha darvoza yonida turgan yigit yoniga borib "Onamdan nimaga ko'nglingiz qoldi", deb ayt — debdi. Abduaziz bu bolaning o'z o'g'li ekanligini bilib, uyga kirib xotinining shuncha ish qilganiga qoyil qolibdi. Abduaziz xotini bilan so'rashib, jo'ralarini chaqirib, mehmon qilibdi. Jo'ralari o'zlarining qilgan ishlaridan uyalibdi.

Abduaziz yana badavlat bo'lib, murod-maqsadiga yetibdi. Oqibatsiz jo'ralar esa o'z qilmishlaridan afsuslanib, uyalib qolibdilar.

HAKIM BALIQCHINING O'G'LI

adim zamonda Hakim baliqchi degan chol bor ekan. Hakim baliqchi Changelzor degan bir qishloqdan uzoqroq joyda xotini va bir o'g'li bilan kun kechirar ekan. Ular turgan joydan sal nariroqda katta daryo oqar ekan. Chol har kuni erta bilan baliq oviga ketar, ushlagan baliqlari bilan tirikchilik qilar ekan. Ular juda kambag'al bo'lgani uchun hech kimga aralasha olishmas ekan, boshqa kishilar ham ular bilan kam muomala qilishar ekan. Hakim chol bir kuni odatdagicha baliq oviga ketibdi. Daryoga boradigan yo'l jarlik, baland-past bo'lib yurish juda mushkul ekan. Chol zo'rg'a daryo labiga borib, biroz dam olgandan keyin baliq oviga kirishibdi. Juda ko'p baliq ovlagandan keyin, to'rga oltin baliq tushibdi. Baliqchi chol oltin baliqni qo'lga olib, uni rosa tomosha qilibdi. Keyin uyiga borib o'g'lini chaqirib:

— O'g'lim, mana bu oltin baliqni podshohning vaziriga olib borib berda, tezda qaytib kel, — debdi.



Kampir esa nima ish bo'layotganini payqamay qolibdi. Cholning o'g'li baliqni olib chopganicha katta yo'l bilan yurib, podshoh saroyiga kirib boribdi. "Podshoh nima-yu, vazir nima. Kel-e, podshohning o'ziga bera qolay", deb baliqni podshohga beribdi. Podshoh hech narsa demay baliqni olib qolibdi. Bola chopib uyiga qaytibdi.

Baliqchi chol o'g'lidan:

— Baliqni kimga berding, o'g'lim? — deb so'rabdi.

— Podshohga berdim, — debdi bola. Baliqchi chol juda xafa bo'libdi-da, hech narsa demay o'z ishini qila beribdi.

Ertasi ertalab vazir podshoh oldiga kelayotib, katta hovuzda chiroyli oltin baliqni ko'ribdi. Biroz tomosha qilib, podshoh oldiga kiribdi. Podshoh dan: "Hovuzdagi baliq qayerdan paydo bo'ldi?", deb so'rabdi. Podshoh vazirga qishloq chetida yashaydigan bir baliqchi cholning o'g'li keltirib berganini aytibdi. Vazir bolaning baliqni unga bermay podshohga berganidan jahli chiqib, qanday qilib bo'lsa ham bolani o'ldirish payiga tushibdi. Podshohga qarab:

— Podshohi olam, bu baliq yolg'iz bo'lmasa kerak, buning albatta sherigi bo'lishi kerak. Shu baliq hovuzga juda yarashibdi. Shuning uchun bolaga baliqning sherigini topib keltirishni buyuring, — debdi.

Podshohga bu soʻz juda yoqibdi-da, shu zahoti cholning oyogʻini yerga tekkizmay huzuriga keltiribdi. Podshoh cholga:

— Sen shu baliqni qayerdan olib keltirgan boʻlsang, uning sherigini ham qirq kun ichida topib keltirasan. Boʻlmasa dorga ostiraman, — debdi. Chol juda xafalanib uyiga qaytibdi. Oʻgʻlini chaqirib:

— Mana, sen baliqni vazirga bermaganing uchun boshimizga juda katta mushkul ish tushdi. Shu qirq kunda oltin baliqning sherigini tutib olib, borib podshohga bermasak, ikkovimiz dorga osilamiz, — debdi. — Endi buni bajarmay ilojimiz yoʻq. Ikkovimiz birga daryo labiga borib baliq ovlaymiz. Podshoh qirq kun muhlat berdi, — debdi.

Chol oʻgʻli bilan birga daryo boʻyiga borib biroz dam olgandan keyin baliq ovlashga kirishibdi. Kechgacha juda koʻp oddiy baliqlarni tutishibdi. Lekin oltin baliq uchramabdi. Ota-bola oʻttiz toʻqqiz kun baliq ovlashibdi. Toʻrga oltin baliq ilinmabdi. Chol bilan oʻgʻli: “Endi podshoh bizni dorga osadi”, deb juda xafa boʻlishibdi. Qirqinchi kuni ota-bola “Bir kunlik umrimiz qoldi”, deb oʻlishlariga ishonib, oxirgi marta baliq oviga borishibdi. Kechgacha ov qilib, kechqurun boʻlganda toʻrga xuddi ilgari oltin baliqqa oʻxshash baliq ilinibdi. Ota-bola juda xursand boʻlishibdi. Cholning qoʻli qaltirab,

ko'zidan yoshi oqib, o'limdan qolganiga ishonmas-mish. Ota-bola uyga qaytishibdi.

Kampir har kundagidek, chol bilan o'g'lim nima olib kelar ekan, deb tomga chiqib kutibdi. Chol bilan o'g'li ko'rinmabdi. "Bugun qirq kun muhlat tamom bo'ldi. Baliqni tutib olib kelishmasa, cholim bilan o'g'limdan ajralar ekanman", deb tomning u yog'idan-bu yog'iga bezovta bo'lib yuribdi. Uzoqdan choli bilan o'g'li ko'ringach:

— Oltin baliqni ushladinglarmi? — deb baqira boshladi. Chol kampir yoniga kelib baliqni ko'rsatibdi. Ertalab bo'lgach, chol baliqni o'g'liga berib:

— Baliqni vazirga ber, — deb tayinlabdi. Bola Podshoh saroyiga jo'nabdi. Podshoh darg'azab bo'lib:

— Bugun qirq birinchi kun, cholni topib kelinglar, — deb buyruq berib turgan ekan. Bola eshikdan baliqni ko'tarib kirib podshohga salom beribdi va baliqni uzatibdi. Podshoh sevinib baliqni ilgarigi baliq yoniga — hovuzga qo'yib yuboribdi. Bola uyiga qaytibdi.

Ertasiga yana vazir podshoh oldiga kelayotib, hovuzda bir emas ikki oltin baliq suzib yurganini ko'ribdi. Podshoh oldiga shoshib kirib, baliqlarni tomosha qilishni taklif qilibdi. Podshoh bilan vazir bog' oralab yurib hovuz yoniga kelibdi. Hovuzda bir-biridan chiroyli ikki baliqning suzib yurganini tomosha qilishibdi. Vazir so'z boshlab:



— Podshohi olam, sizning bog‘ingiz juda ajoyib, hech qanday podshohda yo‘q. Endi shu bog‘ingizda bir narsa kam, u ham bo‘lsa, tilla hovuz, — debdi.

Podshoh bir seskanib, keyin xayol surib qolibdi. Vazir:

— Ey, podshohi olam, devlar yashaydigan falon mamlakatda tilla hovuz bor. Suvi buloqdek otilib chiqib turadi. Chetida oltin panjara, oltin kursi, hamma yog‘i oltin bilan qoplangan. O‘sha hovuzni olib kelib qo‘yilsa, bog‘ingiz bundan ham chiroyli bo‘ladi, — debdi. Podshoh:

— Buni kim olib keladi? — deb so‘rabdi. Vazir:

— Balig‘ini topib kelgan odam olib keladi-da. Siz bundan g‘am yemang, faqat buyuring, xolos, — debdi.

Podshoh odamlariga baliqchi cholning o‘g‘lini tezda topib kelishni buyuribdi. Ikki kishi bolani o‘rda-ga olib kelibdi. Vazir bolaga sovuqqina qarab “Endi bola o‘ladi”, — deb, podshohning so‘ziga quloq solib turibdi. Podshoh bolaga:

— Devlar makonida oltin hovuz bor ekan. Sen shu hovuzni olib kelasan. Agar olib kelmasang, dorga osilasan, — debdi. Bola podshohga:

— Ey, podshohim, hovuzni ham olib kelib bo‘ladimi? — debdi.

Vazir:

— Podshohga gap qaytarma, ahmoq, — deb bolani quvlab chiqaribdi.

Bola g'amgin bo'lib uyiga qaytib kelibdi. Chol bolani ko'rishi bilanoq:

— O'g'lim, baliqni yana podshohga bergan ekansan-da, — debdi.

Bola podshohning buyrug'ini aytibdi. Chol o'ylanib, o'g'liga uzoq tikilib qolibdi-da, keyin:

— O'g'lim, sen podshoh oldiga bor. Podshohdan bir temir hassa, bir temir kavush, bir necha qo'y, bir necha eshak so'ra. Podshoh so'zingni qaytarmaydi. Sen hamma narsani olib yo'lga ravona bo'l. Qo'ylarni boqib, charchagan eshakni qo'yib, yangisiga minib ket, — debdi.

Bola podshoh saroyiga borib otasi o'rgatgan narsalarni so'rabdi. Podshoh bola so'ragan narsalarning hammasini beribdi. Bola ularni olib yo'lga ravona bo'libdi. U ota-onasidan ayrilib, nima qilishini, qayoqqa borishini bilmay cho'l-u biyobonlarga chiqib ketibdi. Yo'lda qo'ylardan so'yib yeb, charchagan eshakni qo'yib, boshqasiga minib keta beribdi. Qo'ylar ham oxiri tamom bo'libdi, eshaklar ham yurolmay qolibdi. Bola nima qilishini bilmay, tavakkal deb temir kavushini kiyib, temir hassasiga tayanib keta beribdi.

Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oyoqlari qavarib, kiyimlari yirtilib ketibdi. Bir qirning tepasiga kelib, charchab uxlab qolibdi.

Bola uyqusida ajoyib bir tush ko'ribdi. Tushida ola chopon kiygan, o'rta bo'yli, oq soqolli bir

mo'ysafid kelib, bolaning holini so'rabdi. Bola cholga o'zining qayerga, nima uchun ketayotgani, qachondan buyon cho'l-u biyobonlarda sarson bo'lib yurganini birma-bir aytib berib, yig'labdi.

Chol:

— Yig'lama, o'g'lim, senga yaxshilik qilaman. Lekin sen aytgan hovuz devlar qo'lida. Buni sen olmaysan, — deb bolaning qo'yniga bir dona yong'oq solib qo'yibdi va: — Mana shu yong'oqni podshoh oldiga olib borgin-da, hovuzni qayerga quray, degin. Shunda podshoh senga do'q urib “Qani olib kelgan hovuzing”, deb joy ko'rsatadi. Sen shu yong'oqni podshoh ko'rsatgan joyga qattiq urasan. Hovuz tayyor bo'ladi, — deb ketibdi. Bola uyg'onibdi. Shoshib-pishib qo'yniga qo'l solib qarasa, yong'oq turgan emish. Bola xursand bo'lib badanining, oyoqlarining og'rig'ini ham sezmay, orqasiga qaytibdi.

Bir necha kun yo'l yurib o'z uyiga yetibdi. Qarasa, ota-onasini podshohning ikki odami haydab ketayotganmish. Bola ota-onasini podshohning odamlaridan qutqazib, podshoh oldiga o'zi boribdi. Podshoh bolaga:

— Qani, hovurni olib keldingmi? — deb g'azabga olib baqiribdi.

Shunda bola pinagini buzmay podshohdan:

— Hovuzni qayerga quray! — deb so'rabdi.

Podshoh bolaga:

— Ikkala qo'lingni burningga tiqib kelib, yana uyalmay hovuzni qayerga quray deb so'raysanmi, — deb yana battarroq dag'dag'a qilibdi.

Bu janjalni vazir eshitib, darhol yetib kelib, Podshohga:

— Ey, podshohi olam, hovuz bo'ladigan joyni ko'rsatingchi, bola nima qilar ekan? — debdi.

Podshoh:

— Mana shu yerga qura qol, — deb bog'ning eng chiroyli yeridan joy ko'rsatibdi. Bola qo'ynidan yong'oqni olib, podshoh ko'rsatgan yerga bir uribdi. Darhol tilla hovuz tayyor bo'libdi. Hovuzning atrofi tilla panjara bilan o'ralgan, hovuz o'rtasidan suv qaynab chiqib, har tomonga sochilib turganmish. Podshoh boshi osmonga yetib, baliqlari shu tilla hovuzga qo'yib yuborishni buyuribdi. Bola ikkala baliqni ushlab hovuzga qo'yib yuboribdi.

Bolaning o'lmay qaytib kelganiga vazirning g'azabi kelib, yana bolani biror ishga buyurishni o'ylay boshlabdi. Bola ota-onasi oldiga borib boshidan o'tganlarini aytib beribdi.

Vazir podshoh oldiga kirib:

— Ey, podshohi olam, siz mening maslahatim bilan oltin baliq ham tilla hovuzga ega bo'ldingiz. Endi bog'ingizda yana bir narsa kam, u ham bo'lsa, falon mamlakatdagi pari qizni oldirib kel-

tirsangiz, bog'ingizda kamchilik bo'lmaydi, — debdi. Podshoh:

— Bu ishni kim bajaradi? — debdi.

Vazir:

— Bu ishni baliqni, hovuzni olib kelgan bola bajaradi-da, — debdi. Podshoh tezda bolani topib kelishni buyuribdi. Navkarlar bolani dam o'tmay olib kelishibdi. Podshoh bolaga:

— Sen ikkita ishni bajarding, yana bir ish bor. Parilar mamlakatidan pari qizni olib kelasan, — deb buyuribdi.

Bola nima qilishini bilmasdan uyiga qaytibdi. Otasiga podshohning buyrug'ini aytibdi. Shunda o'g'liga qarab: "Aytganimni qilmay, o'zboshimchalik qilding, vazirga ber, desam baliqlarni podshohga berding, ana endi sendan vazir o'ch olmoqchi. Mayli, yana podshohdan bir necha qo'y, eshak, temir kavush, temir hassa so'rab olib, yo'lga ravo-na bo'l", — debdi. Bola podshoh oldiga borib, otasi o'rgatgan narsalami so'rabdi. Podshoh hamma narsalarni beribdi. Bola qo'y va eshaklarni haydab ketaveribdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir qishloqqa yaqin yerga borib qolibdi. Qarasa, yetti yashardan yetmish yoshargacha qo'lga nima qilinsa, shuni olib kun chiqar tomonga qarab chopib ketayotgan emish. Bola bu odamlardan "Qayerga ketayotibsizlar?", deb shuncha so'rasa ham hech

kim javob bermabdi. Bir mahal yetti yoshli bir bola to'xtatib:

— Qishlog'imizning butun mol-mulkini o'g'irlab ketgan o'g'ri ushlanibdi. Shu vaqtgacha uni hech kim tutolmagan edi. Uni tutib olishganiga uch kun bo'ldi, — debdi.

Bola ham qo'y va eshaklarini choptirib o'sha tomonga ketibdi. Borib qarasa, olomon yig'ilgan, bir yerga dor tikilgan, haqiqatan ham bir odamning bo'yniga sirtmoq solingan; katta-kichik tosh, sopol, ketmon, kosov, shunga o'xshash narsalar ushlab o'g'riga yov nazar bilan qarab turganmish.

Bola qo'y va eshaklarini bir chetga qo'yib, olomon orasidan o'tib, o'g'ri oldiga boribdi. Bu o'g'ri shunday odam ekanki, chopsa ot yeta olmas, qirqta qo'yning go'sht-yog'iga to'ymas ekan. Lekin bo'ynidagi sirtmog'i qattiq bog'langanidan qimirlay olmay turgan ekan. Bola o'g'rini dorga osayotgan odamlarga qarab: "O'ldirmanglar, agar o'g'ri bo'lsa, menga sotinglar!", — deb qichqiribdi. Avval ko'pchilik olomon o'g'rini sotishga ko'nmadidi, "Baribir yana o'grilik qila beradi. Yaxshisi o'ldiramiz", deyishibdi. O'g'rini o'ldirishga qancha urinsalar ham o'ldira olmabdilar. Bola qo'y va eshaklarining hammasini berib, o'g'rini sirtmoqdan bo'shatib olgan ekan, o'g'ri ikki-uch marta xo-xolab kulibdi-da, yo'q bo'lib qolibdi. Bola olo-

mon ichida qo'y, eshaklaridan ajralib, nima qilishini, qayerga borishini bilmay, dovdirab turib qolibdi, tavakkal deb temir kavushini kiyib, temir hassasiga tayanib, bir tomonga qarab jo'nabdi.

O'g'ri qochib ketayotib o'z-o'ziga: "U bola meni nima uchun o'limdan qutqardi. Nima uchun men u bilan so'zlashmay ketayotibman", debdi-da, ketiga qaytib, bolani qidirib topibdi. Bolaga o'zining kimligini bildirmay, undan hol-ahvol so'rabdi. Bola bo'lgan voqeani birma-bir aytib beribdi. Shunda o'g'ri bolani yelkasiga mindirib chopib ketibdi. Tez orada ular baland bir temir qo'rg'on yoniga borib qolibdilar. O'g'ri temir darvozani ochib, ichkariga kiribdi. Qirqta qo'yni so'yib, pishirib yeb, damini olgandan keyin bolaga:

— Men senga pari qizni olib kelib beraman. Sen shu yerda tur, — debdi va jo'nab ketibdi. O'g'ri bir qancha yo'l yurib qizning makoniga yetibdi. Borib sekin eshigini taqillatibdi. Bir dev chiqibdi.

O'g'ri dev chiqishi bilan uni o'ldiribdi. Ichkaridagi bir uyga kirsa, bir chiroyli qiz o'tirgan emish. Qiz ko'p vaqtdan buyon odam ko'rmaganligidan uning bu yerga qanday kelib qolganligini so'rabdi.

O'g'ri butun voqeani aytibdi, qizni bolaga olib kelib beribdi. O'g'ri qiz bilan bolaga ketish uchun bir ot berib, jiloviga tegmanglar, debdi.

Bola qizga uni podshohga olib ketayotganini aytibdi. Birdan shamol, to'polon bo'lib qiz yo'q bo'libdi. Osmonda uchta kaptar qizni ko'tarib uchib, tog'dagi g'orga kirib, g'oyib bo'libdi. Bola bu holni ko'rib, nima qilishini, qizni qayerdan topishini bilmay qolibdi. Bu voqeani o'g'ri sezib, boladan kaptarlar qizni qay tomonga olib ketganini so'rabdi. Bola g'orni ko'rsatibdi. O'g'ri g'orga borib:

— Pari, chiq bu yoqqa, — deb qattiq baqiribdi. Ammo pari g'ordan chiqish yo'lini bilmabdi. O'g'ri qizga chiqish yo'lini o'rgatibdi.

Qiz chiqqandan keyin:

— Men keta olmayman, devlar orqamizdan quvlaydi, — debdi.

O'g'ri qizga gap o'rgatib:

— Devlar kelgandan keyin ulardan: “Nima uchun odamzodning joni o'zida-yu, devlarning joni o'zida emas. Devlarning joni qayerda? — deb so'ra, aytmasa yig'la. So'ngra aytishga majbur bo'ladi. Uni bilib menga aytasan”, — debdi.

O'g'ri bola yoniga qaytib kelibdi. Qiz devlar kelgandan keyin devlardan ularning joni qayerda turishini so'rabdi. Devlar avval shubhalanib, qizni o'ldirmoqchi bo'lishibdi. Keyin maslahatlashib:

— Bu qizning qo'lidan nima ish kelardi, — deb jonlarining qayerda ekanligini aytishibdi:

— O'sha ko'ringan jar yoqasidagi chinor ostida bir buloq bor, buloq ichida sandiq bor. Shu sandiq ichida bizning jonimiz turadi. Chinorni borib tebratsa, suv ichidan oltin baliq sandiqni dumi bilan chiqarib beradi.

Qiz buni eshitib olib, devlarga sharob quyib berib mast qilibdi. Devlar mast bo'lgan vaqtda o'g'ri kelibdi. Qiz o'g'riga eshitgan so'zlarini aytib beribdi. O'g'ri borib chinorni shu qadar jahl bilan tebratibdiki, chinor qulab ketibdi. Baliq esa dumi bilan bir siltab sandiqni chiqarib tashlabdi. O'g'ri sandiqni buzib, devlarning jonini olib, bola tomonga kelibdi. Shunda devlardan biri "voy belim" desa, ikkinchisi "voy boshim", deb yugurib o'g'ri oldiga kelib:

— Nima buyursang qilamiz, — deb oyog'iga yiqilishibdi.

O'g'ri devlarga:

— Parini hozir topinglar, agar topmasanglar, hammangni o'ldiraman, — debdi.

Devlar parini topib kelishibdi. O'g'ri qizga devlarning jonini berib, bola bilan xayrlashib, ikkovini jo'natibdi.

Bola o'z mamlakatiga yetibdi. Podshoh bolaning kelganini eshitib, qizni tezda olib kelib berishini buyuribdi. Bola qizni podshohga berishga rozi bo'lmaganidan keyin, podshoh askarlariga

bolaning qo‘l-oyoqlarini bog‘lab, olib kelishni buyuribdi. Askarlar kelib bolaning qo‘l-oyog‘ini bog‘layotganligini o‘g‘ri sezib qolib, yetib kelibdi. Qiz esa devlarning jonini siqibdi, devlar ham darrov yetib kelibdi. O‘rtada qattiq jang bo‘libdi. Podshoh yengilibdi.

Baliqchi cholning o‘g‘li mamlakatga podshoh bo‘lib, pari qizga uylanibdi. O‘g‘ri esa o‘g‘riligini tashlab xizmatga kiribdi. Murod-maqсадlariga yetibdi.



AHMOQ PODSHOH

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir kambag'al odam bor ekan. Peshonasida bittagina uyi bo'lib, u ham qulab tushgan ekan. Kambag'al ko'p mashaqqatlar bilan qaytadan uy solibdi. Tomiga qamish bo'yra yopib, yarmini tuproq bilan bostirgandan keyin, qolgan yarmini yopishga pul topolmay, ustaga javob berib yuboribdi va "Qolganini kuchim yetganda o'zim yopib olarman", deb yangi uyga kirib yashayveribdi.

Bir o'g'ri bu kambag'alning uyini ko'rib: "Bu odam boyib qolganga o'xshaydi: yangi imorat solibdi, buni bir boplash kerak", deb tomga chiqadigan joyni kunduz kuni mo'ljallab ketibdi.

O'g'ri tun yarmida kelib, tomga chiqibdi, endi hovliga tushaman, deb tom ustida ketayotganda tomning omonatgina qilib qamish bo'yra bilan yopib qo'yilgan joyi o'pirilib ketibdi. Shu paytda kambag'al uyda yotgan ekan. O'g'ri "tap" etib uning ustiga tushibdi. Kambag'al qo'rqib ketib, o'g'rini ushlayolmay qolibdi. O'g'ri bo'lsa kambag'alning

uyida hech narsa yo'qligini ko'rib, g'azablanib chiqib ketibdi, ertasiga erta bilan podshohga arzga boribdi.

Podshoh :

— Kimsan? Nima arzing bor! — deb so'rabdi.

O'g'ri:

— Shohim, men katta o'g'rilardan bo'laman. Shu kecha birovnikiga o'g'rilikka borib edim, tomini qamish bo'yra bilan omonat yopib qo'ygan ekan, o'pirilib ketdi, men uy ichida yiqilib tushdim, oyog'im sinishga sal qoldi, — degan ekan, podshoh:

— Ha, talabing nima? — deb so'rabdi. O'g'ri:

— Uy egasiga jazo bersangiz, — debdi. Podshoh uy egasini chaqirib, undan:

— Shu kecha bu odam tomingdan yiqilib tushgani rostmi? — deb so'ragan ekan, kambag'al:

— Rost, shohim, yaxshiki mening ustimga tushdi, bo'lmasa oyog'i sinardi, — debdi. Keyin podshoh:

— Rost bo'lsa, seni dorga osish kerak! — deb kambag'alni o'limga buyuribdi.

Bechora kambag'al, nima qilishini bilmay, yig'lab, podshohga:

— Ey, shohim, mening gunohim nima? Tomni usta shunday omonatgina yopib ketgan, — degan ekan, podshoh:

— Unday bo'lsa, buni bo'shatib yuborib, dorga ustani keltirib osinglar! — debdi.

Yasovullar ustani olib kelishibdi. Jallod gunohsiz ustani dorga osmoqchi bo'lganda, usta:

— Podshohga arzim bor, — debdi. Bu gapni jallod podshohga yetkazibdi. Podshoh ustani chaqirtirib:

— Nima arzing bor? — deb so'ragan ekan, usta:

— Shohim, bu ishda mening hech aybim yo'q. Qamish bo'yrachi qamish bo'yрани siyrak to'qib qo'ygan ekan, bilmay yopaveribman. Agar qamish bo'yra pishiq to'qilganda ustiga odam chiqsa ham teshilmas edi, — debdi.

Podshoh ustani bo'shatib yuborib, qamish bo'y-rachini chaqirtiribdi:

— Qamish bo'yрани sen to'qiganmisan? — deb so'rabdi. Qamish bo'yrachi:

— Men to'qiganman, — debdi. Podshoh:

— Dorga buni osing! Hamma ayb shunda ekan! — debdi.

— Shohim, sizga arzim bor. Men qamish bo'yra-ni hamma vaqt pishiq to'qir edim, qo'shnim ya-qindan beri kaptarvoz bo'lib qolgan. Shu qo'shnim kaptarlarini havoga uchirganda, ularga qarab qa-mish bo'yрани siyrak to'qib qo'yibman. Gunohim-ni kechirishingizni so'rayman, — debdi qamish bo'yrachi.

Podshoh buni ham bo'shatib, kaptarbozni top-
tirib kelib, dorga osishga buyuribdi.

Kaptarboz aytibdi:

— Ey, janob, men ishqibozlik bilan kaptar o'ynay-
man. Bunda mening gunohim bo'lmasa kerak. Meni
o'ldirganingizdan kimga foyda, bir kambag'alni
o'ldirgandan ko'ra, o'sha o'g'rini o'ldirsangiz el
tinchir edi.

Buni eshitib podshoh:

— Darhaqiqat, o'g'rining o'zi gunohkor, sening
gaping to'g'ri! O'g'rini dorga osinglar! — debdi.

Yasovullar o'g'rini dorga osishibdi. Dor past,
o'g'ri novcha ekan, oyog'i yerga tegib qolibdi. Jal-
lodlar borib podshohga arz qilibdilar:


— Ey, shahanshoh, o'g'ri novchalik qildi, oyog'i
yerga tegib qolib o'lmayapti, nima qilsak ekan?

Podshoh:

— Shuni ham mendan so'rab o'tirasanmi?! Agar
o'g'rining oyog'i yerga tegib qolgan bo'lsa, guzardan
bo'yi pakanaroq bir odamni topib, o'g'ri o'rniga
o'shani osavermaysanmi? Shunga ham aqlaring yet-
maydimi! — debdi.

Jallodlar ko'chaga chiqib qarashsa, bir pakana
odam o'tin orqalab ketayotgan ekan. "Podshohning
aytgani xuddi shu-ku", deb pakanani dor tagiga olib
boribdilar. Pakana:

— Mening nima gunohim bor? Meni nega dorga
osasizlar? Podshohga arzim bor! — debdi.



Podshoh dor yonida turgan ekan, pakanadan:

— Ayt, nima arzing bor? — deb so‘rabdi. Pakana aytibdi:

— Shohim, men bir kambag‘al odamman. Goh tog‘dan o‘tin keltirib sotaman, goh hammollik qilaman. Shu bilan bola-chaqamni boqaman. Nima gunohim borki, meni dorga ostirasiz?

Unga podshoh shunday javob qaytaribdi:

— E, ahmoq, sening gunohing bormi, yo‘qmi, mening nima ishim bor. Ishqilib bir kishini dorga osish kerak-da. O‘g‘rini dorga ostirsak, bo‘yi novchalik qilib, oyog‘i yerga tegib qoldi. Sen juda vaqtida kelding. Peshonangdan ko‘r.

Pakana yana ruxsat so‘rab:

— Shohim, o‘g‘ri novchalik qilgan bo‘lsa, dor tagini biroz o‘ydirsangiz, oyog‘i yerga tegmaydi. Gunohkor novcha o‘rniga, bir begunoh kambag‘alni o‘ldirib yuborish adolatdan emas-ku! — debdi.

Podshoh o‘ylab turib vazirga:

— To‘g‘ri aytadi, buni bo‘shatilsin. Dor tagidan chuqur qazilib, dorga o‘g‘ri osilsin! — deb buyuribdi. Jallodlar o‘g‘rini dor tagiga keltirib, chuqur qaziy boshlashibdi. Shunda o‘g‘ri hovliqib:

— Tez qazinglar, vaqt o‘tmasin, meni tezroq osinglar! — deb qistayveribdi. O‘g‘rining so‘zini podshoh eshitib, undan:

— Nega buncha tiqilinch qilasan? — deb so‘raganda, o‘g‘ri:





— Taqsir, hozir jannatning podshohi o‘ldi, meni tezroq o‘ldirsalar, bitta-yarimta odam podshoh bo‘lib qolmasdan, ildamroq borib jannatga podshoh bo‘laman. Jannatning podshohi o‘layotganda “Kim o‘lib, ilgariroq jannatga kelsa, o‘sha odamni podshoh qilinglar”, debdi. Shuning uchun qistayapman. Qani, tez bo‘linglar, — deb yana qistay boshlabdi.

O‘g‘rining bu gapi podshohga yoqib, o‘ylab turib: “U dunyoga ham o‘zim podshoh bo‘lay”, debdi va jallodlarga qarab:

— O‘g‘rini dordan bo‘shatib, o‘rniga meni osinglar! — debdi. “Podshoh amri vojib”, deb, o‘g‘rini dordan bo‘shatib, o‘rniga podshohning o‘zini osgan ekanlar.

XURMACHA POLVON

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan. Bir chol-u kampir bor ekan. Bularning echkisi ko‘p ekan-u, bolasi yo‘q ekan. Kunlardan bir kun kampir sut pishirib o‘tirib: “Mening bolam bo‘lsa edi, sut desa sut bersam, qaymoq desa qaymoq bersam, qatiq desa qatiq bersam”, debdi. O‘shandan keyin kunlardan bir kuni boshi ham yo‘q, oyog‘i ham yo‘q, qo‘li ham yo‘q bir xurmacha o‘g‘il tug‘ibdi. Kampir xurmachani tandir ustiga tashlab qo‘yaveribdi. Chol kampirga:

— Kampir, farzandim yo‘q, deding, bir xurmacha tug‘ding, tandir ustida yotibdi. Shu xurmachani ko‘rmaylik ham, kuymaylik ham, sindirib tashlaylik, — debdi. Shunda tandir ustidan xurmacha turib:

— Ey, ota, sizga nima zararim tegdi, ishga buyurdingiz-u qilib kelmadimmi, yo o‘roqqa aytdingiz-u bormadimmi? — debdi.

Chol:

— Mana, falonchi boyning o‘rog‘i o‘rilmagan, shunga o‘roqqa chiqsang bo‘lmaydimi? — debdi.

Xurmacha o'roqni olib, asta-sekin boyning oldiga boribdi. Boy:

— O'rganingga qancha haq olasan? — debdi. Xurmacha polvon:

— Shu xurmachani to'ldirib bersangiz bo'ladi, — debdi. Boy "Ozgina haq berar ekanman", deb suyunibdi. Xurmacha polvon boyning o'rog'ini o'ribdi, bog'labdi, yanchibdi, sovuribdi. Boy ke-libdi-da, yengini shimarib bug'doyni qoplamochi bo'libdi. Xurmacha polvon boyga:

— To'xtang, avval mening haqimni bering, keyin qoplarsiz, — debdi.

Boy:

— Men qoplab ketaveray, haqingni keyin bera-man, — debdi. Xurmacha polvon:

— Yo'q, oldin haqimni bering! — debdi. Boy:

— Hay, sendan qutulay, oldin sening haqingni bera qolay, o'zim keyin qoplab olarman, — deb bug'doyni g'alvirlab xurmachaga solaveribdi. Xirmonda bug'doyning yarmi qolibdi. Xurmacha to'lmabdi, bug'doyning hammasini solibdi, xurmacha to'lmabdi.

Xurmacha polvon:

— Xurmacha to'lmadi, to'ldirib bering, — debdi. Boy:

— Bug'doyimning barini soldim — to'lmadi. Bu xurmacha emas, bir balo ekan. Shuncha dehqon-

chiligim ketdi, shunda ham to'lmadi, — deb xafa bo'libdi. Xurmacha polvon:

— To'lmasa to'lmas, — deb uyiga qaytibdi.

— Ona! Otamga ayting, tomga chiqib tom tepasini teshsin, — debdi.

Onasi:

— Nima olib kelding? — debdi. Xurmacha polvon:

— Bug'doy olib keldim, — debdi. Onasi:

— Olib kelgan bug'doyingni tovoqqa solib qo'yaver, qancha ketar edi bu xurmachaga, — debdi. Xurmacha polvon:

— Tovoqqa sig'maydi, tomni teshinglar, uyni to'ldiraman, — debdi.

Otasi tomga chiqib tomni teshibdi. Xurmacha polvon tomga chiqib tom teshigidan bug'doyni to'kaveribdi, uy to'lib ketibdi. Shunday qilib, chol-u kampir Xurmacha polvondan xursand bo'lishibdi. Tinch yashab murodlariga yetishibdi.

QURANDOZ

Bir podshoh bor ekan, uning bitta-yu bitta o'g'li bor ekan. U yoshligidan birovga qo'shilmas, hech kim bilan gaplashmas ekan. Katta bo'lib, balog'atga yetgach, yosh yigitlar bilan dala-yu dashtga chiqib, ov qilib yuradigan bo'libdi. Kunlardan bir kun podshoh to'rt yuz qurandozni chaqirib, ularga shunday debdi: "O'g'limning taqdirini ko'ringlarchi, qanday ekan?". Qurandozlar kitob ko'rib, qur'a tashlabdilar. O'ylab, qancha qur'a tashlasalar ham hech narsa chiqmabdi. Podshohga:

— Qur'a chiqmadi, — deb xabar beribdilar. Podshohning g'azabi kelib:

— Men shuncha yilardan beri sizlarga non, osh, kiyim-kechak, pul bersam-u, bitta-yu bitta o'g'limning taqdirini topolmasalaring! Qirq kun muhlat, topsalaring topganlaring, topmasalaring boshlaring o'limda, mollaring talonda, — debdi.

Qurandozlar kecha-kunduz kitob ko'rib, shahzodaning taqdirini bilolmabdilar. Qirq kun ham o'tay

deb qolibdi. Tong otsa, qirq kun bo'lar ekan. Yana barcha qurandozlar yig'ilib maslahatlashibdilar: "Qani, yana bir kitob ko'raylikchi, zora shahzoda-ning taqdiri chiqib qolsa", deb xo'b urinishibdi, lekin qur'aga hech narsa chiqmabdi.

Qurandoz — kitobga, suvga qarab yoki toshlar yordami bilan fol ochuvchi.

Endi gapni boshqa yoqdan eshiting.

Uzoq shaharda bir qurandoz bor ekan. U yurib-yurib, shu shaharga kelib qolibdi. To'rt yuz qurandozning daragini eshitib, ularning yoniga kelibdi. Qarasa, qurandozlar yig'lar emish. U so'rabdi:

— Yig'lashingizning boisi nima? Ular aytibdi:

— Yig'lashimizning boisi podshoh bizlarga g'azab qilgan. Shuncha qurandoz bo'lib bitta shahzoda-ning taqdirini bilolmadik. Tong otsa podshoh bizlarni o'ldiradi, molimizni talon-taroj qiladi, shu sababdan fig'onimiz chiqib o'tiribmiz.

Shunda qurandoz ularga:

— Menda ham bitta kichkinagina qur'a bor. Shuni bir ko'rsam, mumkinmi? — deb so'rabdi. Qurandozlar sevinib:

— Yaxshi bo'lardi, — debdilar. Qurandoz qur'ani ochib ko'rib:

— Uning taqdiri podshoh qizidan ekan. Podshohning o'g'liga Mashriqdagi podshoh qizining taqdiri tushgan ekan, — debdi. Qurandozlar masla-

hatlashib: “Ertaga ertalab podshohning oldiga boramiz. Podshoh: Qani topib keldilaringmi?”, desa: “Topib keldik, mana shu kishi javob beradi, deyimiz”, — deyishibdi. Qurandoz ham rozi bo‘lib:

— Meni ko‘rsata beringlar! — debdi.

Ertasi erta bilan podshohning oldiga borishibdi. Salom-alikdan keyin podshoh:

— Qani topdilaringmi? — deb so‘rabdi.

— Topdik, taqsir, mana shu odam javob beradi, — deyishibdi. Podshoh qurandozga qarab:

— Siz javob berasizmi? — deb so‘rabdi. Qurandoz:

— Xo‘p, men javob beraman, mendan so‘rang! — debdi. Podshoh:

— Mening bitta-yu bitta o‘g‘lim bor, shu balog‘atga yetdi. Shuning taqdiri qayerda ekan? Shuni bilmay hayron bo‘lib turibmiz, — debdi.

Qurandoz:

— Siz Mag‘ribdagi podshoh ekansiz. Sizning o‘g‘lingizga Mashriqdagi podshoh qizining taqdiri tushgan, — debdi. Podshohning achchig‘i kelib:

— Bitta odamning umri yetib borganda yetmishga, saksonga, yuzga borar ekan. Mashriq bilan Mag‘ribning orasi besh yuz yillik yo‘l bo‘lsa, endi nainki, men Mag‘ribning podshohi bo‘lsam-u, mening o‘g‘limga o‘sha Mashriq podshohi qizining taqdiri tushadi? Sen buni xato gapirding! Jallod! — debdi.

Ikki jallod paydo bo'libdi. Podshoh qurandozni ko'rsatib:

— Buni olib borib o'ldir! — deb buyuribdi.

Podshohning dono o'ng qo'l vaziri bor ekan. U o'rnidan turib:

— Shu kishining umrini bir soat tiladim, besh-olti og'iz gapirsin, — debdi.

Podshoh:

— Mayli, gapira qolsin, — debdi. Dono vazir qurandozga qarab:

— Aytganingiz necha yilda mavjud bo'ladi, — debdi. Qurandoz qur'aga qarab:

Kechiksa besh yil, bo'lmasa to'rt yil, shu yillar o'rtasida mavjud bo'ladi, — debdi.

Vazir podshohga qarab:

— Buni zindonga solaylik, to'rt yil, besh yil hech narsa emas, o'tib ketadi. Aytgani bo'lmasa, o'ldiraylik, — debdi. Qurandozni zindonga solishibdi.

Endi u zindonda yotaversin. Gapni boshqa yoqdan eshiting. Podshohning o'g'li ikki yuz yigiti bilan ovini ovlab, dovini dovlab, tomosha qilib yurgan ekan. Kunlardan bir kun bir tog'ning tagiga borib, o'sha yerda yotib qolishibdi. Hamma uxlab qolibdi. Shahzodaning uyqusi kelmabdi. Bir chetroqda o't qalab, gulxan yoqib o'tiribdi, yarim kecha bo'libdi, yuqoriga qarasa, tog'ning ichidan mash'al

singari yorug' chiqib, tog'ning damonasiga¹ urib turgan emish. Shahzoda taajjublanib, o'rnidan turibdi, otiga minibdi, yuqoriga qarab yo'l olibdi. Borib chiqayotgan tarafga qarasa, juda baland tog' ekan. Yorug'lik tog'ning pastida ham emas, yuqorisida ham emas, qoq o'rtasida bir tandirning og'ziday teshikdan chiqib turgan ekan. O'sha tomonga boraveribdi, qancha yursa ham yorug'lik chiqib turgan teshik yoniga yetolmabdi. Tong otibdi. Shahzoda qaytib askarlarini ergashtirib, kechasi yorug'lik chiqqan yerga olib boribdi. Qarashsa, pastdan chiqishning iloji yo'q emish. Podshohning o'g'li askarlardan:

— Tog'ning tepasiga olib chiqadigan yo'lni biladigan odam bormi? — deb so'rabdi. Bir odam:

— Men ko'rganman, — debdi. U shahzoda va yigitlarni tog'ning tepasiga olib chiqibdi. Kechasi yorug' chiqib turgan teshikka qarasalar, teshik juda chuqur ekan. Ular ot arqonlari va tizginlarini yig'ishibdi-da, hammasini bir-biriga ulab, bir odamni belidan boylab teshikka tushirishibdi. Bu odam oxiriga yetolmabdi. Uni tortib olishibdi. Yana boshqasini tushirishibdi, u ham yeta olmabdi. Yana boshqasini tushirishibdi, u ham yetolmabdi. Shunday qilib, ikki yuz odamning hammasini ham tushirib ko'rishibdi, hech qaysisiga ham biror

¹ Damona-o't chiqayotgan mo'ri.

narsa ro'para kelmabdi. Hech biri uning poyonini bilolmabdi.

Shahzoda:

— Butun otlar dumining o'zagidan pastini kesib kelinglar, — deb buyuribdi. Hamma otlarning dumini kesib kelishibdi. Bir yo'g'on arg'amchi qilib eshibdilar. Shahzoda arg'amchini beliga bog'labdi.

Yigitlarga qarab:

— Meni tushiringlar, — debdi. Yigitlar shahzodani chuqurga tushira boshlashibdi. Sekin-sekin, borib-borib haligi arg'amchi ham tamom bo'libdi-yu, shahzoda ham teshikning boshiga yetibdi. Mundoq qarasa, bir narsa u yoqdan-bu yoqqa yurib turganmish, shahzodaga yaqin kelmasmish. Shahzoda bir iloj qilib uni mahkam ushlab olibdi. Qarasa, bir qiz ekan, uni choponiga o'rab, qo'yniga solib arg'amchini qimirlatibdi. Arg'amchining uchini tutib turgan yigitlar tortib olishibdi. Shahzoda qizni qo'yniga solganicha otga minib keta beribdi. O'rdaga yetibdi. Ichkaridagi bir enagaga: "Buni parvarish qilinglar", debdi. Enagalar uni bir qorong'i uyga olib kirib qarashsa, u shunangangi chiroyli ekanki, qorong'i uyni yorug' qilib yuboribdi. Uni parvarish qilibdilar. U bir necha vaqt o'tgach, gapiradigan bo'libdi. Odamga o'rganib qolibdi, unga yaxshi libos — atlas-kimxoblar kiygizishibdi. Kuniga aqli to'lishib, kundan kun-

ga chiroyi osha boribdi. Shahzoda kunlardan bir kun qiz turgan xonaga kirganda unga ko'zi tushib, oshiq bo'lib qolibdi. Bu vaqtda podshoh o'g'lini uylantirish to'g'risida o'rdadagilar bilan maslahat qilar ekan. Bu maslahat shahzodaning qulog'iga yetibdi. Podshoh bir kishini yuborib, "O'g'limdan so'rab kel, kimni olarkin!", debdi.

Borgan kishiga shahzoda:

— Men boshqa yoqdan xotin olmayman, o'zimning ovdan olib kelgan sayitim bor, shuni olaman, — deb javob beribdi.

Podshoh o'g'lining javobini eshitib, bir necha kun karnay-surnay chaldirib, tomoshalar qildirib, yurtga qancha non-u oshlar berdirib, to'y qilibdi. O'g'lini uylantiribdi.

Shahzoda va qiz besh-o'n kun er-u xotin bo'lib yurishibdi. Bir kun kechasi shahzoda gapga kirib:

— Siz qayerdan kelgan edingiz, u yerga kim sizni olib borib qo'ygan edi? — deb so'rabdi.

Qiz:

— Men Mashriq podshohining qiziman. Bir kuni hovlida o'ynab yuruvdim, bir qush kelib meni ko'tarib olib ketdi. O'sha siz olib kelgan joyga qo'yib, meni asradi. Qush yoz bo'lsa, issiqlasam qanoti bilan yelpidi, qish bo'lsa, qanotining tagiga olib isitdi. Shu bilan bir necha vaqt o'tdi. Oxirida siz meni o'sha yerdan, yolg'izlikdan qutqa-

rib bu yerga olib keldingiz, — debdi. Shahzoda bu soʻzlarni yor-u birodarlariga aytibdi. Bu soʻz podshohning qulogʻiga ham yetibdi. Dono vazir buni eshitib, podshohga aytibdi:

— Keliningiz Mashriqdagi podshohning qizi ekan. Qurandozni zindondan olib chiqaring.

Podshoh zindonbonni chaqirib:

— Qurandozni olib chiq! — deb buyruq beribdi. Qurandozni olib chiqib, izzat-ikrom qilib, yaxshi joyga oʻtqazibdilar. Podshoh qancha uzrini soʻradi. Qancha inʼom-ehson beribdi. Bir katta shaharni ham unga hadya qilibdi. Qizning voqeasini qurandozdan soʻrabdi. Qurandoz:

— Hech bir odamzod Mashriqqa borib, bu qizni olib kelolmaydi. Humo degan bir qush bor, u yildan bu yilga Mashriqdan Magʻribga bir keladi. Oʻsha Humo qush olib kelgan. U Humo qushning soyasi kimga tushsa, uning avlod-ajdodi podshoh boʻladi. Agarda kimda-kim oʻsha qushning tovushini eshit-
sa, yetti pushti qutli zamon boʻlib oʻtadi, — debdi.

Shunday qilib, hammalari oʻz murod-maqсадlari-ga yetishibdi.

SHAYTON BILAN DEHQON

Bir kuni shayton bilan dehqon uchrashib qolibdi, ikkisi bir boyni yerni ijaraga olib dehqonchilik qilmoqchi bo'lishibdi. Yerni haydab, ekishga tayyorlashibdi. Maslahat bilan jo'xori ekishibdi. Jo'xori pishibdi. Ikkisi hosilni bab-baravar bo'lish to'g'risida maslahatlashibdi.

Dehqon shaytonga:

— Jo'ra, sen xohlagan qismini ol, — debdi. Shayton mo'ljallab qarasa, jo'xorining poyasi ko'p ko'rinibdi. Tepasiga qarasa, onda-sonda jo'xori so'tasi turgan emish. Shayton "Ustki qismini olsam oz, poyasi ko'p, kel, ko'pini olayin", deb o'ylabdi.

— Ey, jo'ra, bo'lmasa, men pastki qismini oldim, — debdi. Dehqon:

— Hay, mayli, ustki qismi oz bo'lsa ham bizga qola qolsin, — debdi. Dehqon jo'xorining so'tasini qayirib-qayirib olibdi, poyasi shaytonga qolibdi. Shayton: "Dehqonni xo'b aldadim, faqat besh-olti qop jo'xori olib ketdi. Ko'pi menga qoldi", deb quvonibdi, o'roq bilan jo'xoripoyani o'rib olibdi. Deh-

qon jo'xorini oftobda quritibdi, qopga solib, to'qmoqlab, donini ajratib olibdi. Keyin jo'xorini bozorga olib boribdi. Shayton ham bir eshakka poyani ortib, bozorga borgan ekan. Dehqon bir qop jo'xorini sakkiz tangaga sotibdi. Shayton esa, bir eshak jo'xori poyani yetti pulga zo'rg'a sotibdi.

— Ey, dehqon, qanday noinsofsan, meni aldab-san-ku, — debdi. Dehqon aytibdi:

— Sen qiziq gapni gapirasana, jo'xori pishgan vaqtda o'zing tanlab olding-ku. Bo'lmasa, bu yil yana ikkovimiz dehqonchilik qilaylik. Ko'nglingga ma'qul bo'lganini tanlab olaqol, — debdi. Shayton o'tgan yilning zararini to'latib olaman, deb ikkinchi yil ham dehqon bilan birgalikda sabzi ekibdi.

Sabzi pishgandan keyin dehqon bilan shayton maslahat qilishibdi. Dehqon shaytonga:

— Bultur "Men firib yedim", deb janjal qilgan eding. Bu yil ham ko'nglingga yoqqan qismini o'zing ola qol, — debdi. Shayton sabzi ekilgan yerning to'rt yog'ini aylanib qarasa, sabzining bargi hamma yoqni bosib yotgan emish. Tagini ochib qarasa, har yerda bittadan sabzi bor emish. Shayton: "Bultur tagini olib, firib yedim, bu yil yuqorisini olaqolay", deb o'ylab, dehqonga:

— Ey, jo'ra, yerdan yuqorisi meniki, yerdan past seniki, — debdi.

Dehqon:

— Endi, xohlagan tomoningni o‘roq olib kelib o‘rib olaver, — debdi. Shayton o‘roq bilan sabzi-ning bargini o‘rib olaveribdi. Dehqon ham bir boshdan yerni kovlab sabzini yig‘ib olaveribdi.

Dehqon sabzini bozorga olib boribdi. Shayton ham sabzi bargini bog‘lam-bog‘lam qilib, eshakka ortib, bozorga olib boribdi. Dehqon bir qop sabzini besh tanga, olti tangaga sotibdi. Shayton bir eshak sabzi bargini u yoqqa-bu yoqqa olib borib, ikki pulga ham sota olmabdi. Shayton dehqonga:

— Menga bultur ham firib berding, bu yil ham. Men katta zarar ko‘rdim. Bularni to‘la! — deb janjal ko‘taribdi. Ikkisi janjallashib, bozordan chiqib ketayotganlarida, yo‘lda bir daraxt ostida ikki xum tilla turgan emish. Dehqon:

— Ikki xum tilla ekan, bir xumini sen ol, bir xumini men olaman, — debdi.

Shayton:

— Ikki yildan beri birga dehqonchilik qilganimizda menga firib berding. Endi bu bir xum tillaga ham sherik bo‘lasanmi? — debdi. Dehqon:

— Bo‘lmasa nima qilamiz? — deb so‘rabdi:

Shayton:

— Yoshimizni surishtiramiz, qaysi birimizning yoshimiz katta bo‘lsa, o‘sha tillani ko‘p oladi, — deb javob beribdi. Biroz turib, shayton dehqondan:



— Sen necha yoshga kirding? — deb so‘rabdi.
Dehqon:

— Avval sen ayt! So‘ngra men aytaman, —
debdi. Shayton aytibdi:

— Men bir yuz yetmishga kirdim.

Dehqon qo‘liga ro‘molchasini olib, ho‘ngrab
yig‘labdi. Shayton hayron bo‘lib:

— Nega yig‘layapsan? — debdi. Dehqon o‘pka-
sini tutolmay turib:

— Mening kichkina o‘g‘lim o‘lmaganda, sen
bilan baravar bo‘lar ekan, — debdi. Shayton ay-
tibdi:

— Ey, ahmoq, sening kichkina o‘g‘ling men
bilan baravar bo‘lsa, o‘zing bobom bilan baravar
ekansan-da, qo‘y, bu ishimdan ham firib yedim.
Endi ikkovimiz bir-birimizni opichib, ashula
aytib ketamiz, qaysi birimizning ashulamiz ko‘p
bo‘lsa, tillani o‘sha oladi.

Dehqon:

— Ha, mayli, aytganing bo‘la qolsin, — debdi.

Shayton dehqonning bo‘yniga minib, uch ke-
cha-yu uch kunduz ashula aytibdi, oxirida:

— Endi mening ashulam tamom bo‘ldi, —
debdi-da, dehqonning ustidan tushibdi. Deh-
qon shaytonning kiftiga minib olib, yetti ke-
cha-yu-yetti kunduzgacha “Tarala-tarala”dan
boshqa narsani aytmabdi.

Yetti kundan keyin dehqon shaytonga:

— Hali sen “Tarala-tarala” sini eshityapsan, “Taralasi” qirq kunga boradi. Bundan boshqa ashulam juda ko‘p, ularni aytib tamom qilib bo‘lmaydi, — debdi. Shayton dehqonni tashlab, urishib, bordi-keldini uzib ketibdi. Dehqon ikki xum tillaga ega bo‘lib qolibdi.



TADBIRLI AYOL

Qadim zamonda bir chol qishloqda tirikchilik o'tkaza olmay, ish axtarib shaharga boribdi. Mardikorchilik qilib, biroz pul yig'ibdi. Pulini ishonchli odamga saqlash uchun topshirmoqchi bo'libdi. Lekin yaqinroq kishisi yo'q ekan, nihoyat, o'ylab-o'ylab, "Shu jamg'argan besh-o'n tanga pulimni shahar qozisiga saqlash uchun bersam, yana mardikor ishlab, biroz pul jamg'arganimdan so'ng qozidagi pulimni ham olib, qishloqqa bola-chaqam oldiga qaytsam", debdi. Chol qozixonaga boribdi, ichkariga kirib, qoziga:

— Assalomu alaykum, qozi domla! — debdi.
Qozi:

— Vaalaykum assalom, keling, ota, xizmat? — deb so'rabdi.

Chol:

— Taqsir, men Oqjar qishlog'idan kelganman. Bola-chaqamni boqolmay, shaharga ish axtarib kelib, mardikorlik qilib yuribman. Biroz pul topib, so'ngra uyimga qaytmoqchiman. Hozir yigir-

ma tanga pul jamg'ardim, yana bir hafta ishlab, ketmoqchiman. Sizning oldingizga kelishimdan maqsad, shu tangamni ketgunimcha saqlab bersangiz? — debdi.

Qozi:

— Barakalla, aqlingizga, pulingizni jon-dilim bilan saqlab beraman. Qachon kelsangiz, pulingiz mana bu tokchadagi xaltada turadi, — debdi.

Chol xursand bo'lib, qozixonadan chiqib ketibdi. Oradan bir hafta o'tgach, chol mardikorchilik orqasida yana besh-o'n tanga pul topib, o'z qishlog'iga ketmoqchi bo'libdi. Chol qozixonaga kelibdi.

— Assalomu alaykum, qozi domla, — debdi.

— Vaalaykum assalom, — debdi qozi. Chol ikki qo'lini qovushtirib aytibdi:

— Qozi domla, men qishloqqa qaytmoqchiman. Sizga omonat qoldirgan pullaringa keldim.

— Iye, qanaqa pul, qanaqa omonat?! Qachon bergansan? — debdi qozi. Chol:

— Taqsir, bundan bir hafta ilgari sizga omonat saqlash uchun yigirma tanga pul berib qo'ygan edim. Qishloqqa qaytarda olib ketmoqchi edim. Siz olib qolgan edingiz.

Qozi:

— Ahmoq, la'nati, qanaqa omonat pul, tuhmat qilma! Guvohing bormi? Jo'na-jo'na, hozir ko'zinga ko'rinma! — deb cholni haydabdi.

Chol:

— Taqsir, men bechorani kuydirmang, qiynalib mehnat qilib, jamg'argan pullarimni qaytaring, besh-oltita yosh bolalarimga rahmingiz kelsin, — deb yolvoribdi. Qozi esa, cholni urishib chiqarib yuboribdi. Bechora chol ko'chaga chiqib ariq bo'yida xafa bo'lib, yig'lab o'tirgan ekan, uzoqdan bir paranji yopingan ayol kelaberibdi. Ayol choling yoniga kelib:

— Otajon, sizga nima bo'ldi? Nega yig'lab o'tirib-siz? — deb so'rabdi.

— Ey, qizim, — debdi chol, — so'rab nima qilasan, men bir mushkul ishga yo'liqdim, chora topolmay, xafa bo'lib o'tiribman.

Ayol chachvonini ko'tarib:

— Ota, boshingizga tushgan mushkul ishni ayt-ing, balki men chora toparman, — debdi.

Chol:

— Bolam, so'rab nima qilasan, sen nima chora ko'ra olar eding, — debdi. Ayol qistayvergach, oxiri aytishga majbur bo'libdi. Chol boshidan o'tgan voqeani so'zlab bergach, ayol: "Ota, men bir yo'l axtarib, sizning bu ishingizga chora topishga urinib ko'raman. Agar uddasidan chiqsam, siz o'z mehnatingiz orqasidan jamg'argan pulingizga ega bo'lasiz. Siz shu yerda turing, men uyga tezda borib kelaman, tag'in ketib qolmang, xo'pmi?", debdi.

Chol kutmoqchi bo'libdi. Ayol borib, pardozi qilibdi, yangi kiyimlar kiyibdi, yangi duxoba parangi yopinibdi, qo'liga dur solingan qutichani olib, o'zi bilan bir yigitchani ergashtirib, cholning yoniga kelibdi. Chol ayolni kutib, kech qolganiga hayron bo'lib turgan ekan. Ayol cholga:

— Ota, men hozir qozixonaga kiraman. Oradan biroz vaqt o'tgandan so'ng siz ham kirib boring, qozidan pulingizni qistang. Qozi mendan uyalganidan pulingizni qaytarib beradi, siz chiqqaningizdan so'ng yigitcha kiradi va nima deyishini o'zi biladi, — debdi.

Ayol ichkariga kirib qoziga salom beribdi. Qozi yolg'iz o'tirgan ekan, ayolni ko'rib:

— Vaalaykum assalom, keling, qizim, keling! Qanday xizmat bilan keldingiz, hech tortinmay aytavering! — debdi. Ayol qoziga:

— Taqsir, men falon savdogarning xotiniman. Erim savdoga ketganda, mana shu dur solingan qutichaga ehtiyot bo'l, agarda o'zing uyda saqlashga qo'rqsang, qoziga olib borsang, u kishi saqlab beradilar, deb tayinlab ketgan edilar. Men bu qimmatli durni uyda saqlashdan xavotirlanib, sizga olib keldim, nima deysiz, qozi domla? — debdi. Shunda qozining qulog'i dikkayib, sevinganidan ikki qo'lini uzatib qutini olibdi, ichini ochib, durlarga ko'zi tushib, o'pkasini bosolmay:

— Barakalla, qizim, aqlingga balli, men bu durlarni jonim bilan saqlab beraman, — debdi.

Xuddi shu paytda eshikdan chol kiribdi, qoziga qarab:

— Taqsir, men o'sha omonatga keldim, bersangiz, — debdi. Qozi g'azablanib:

— Ma, ol, nokas odam ekansan-da, — deb tokchada turgan tangani xalta-paltasi bilan cholga otib yuboribdi. Chol pulini olganiga sevinib jo'nab qolibdi. Chol qozixonadan chiqishi bilanoq ayol bilan kelgan bola to'ppa-to'g'ri qozixonaga kirib:

— Aya, aya, akamlar keldilar. Tezda borib keliningni aytib kel, deb sizga yubordila, yurarmishsiz! — debdi. Shunda ayol o'ng'aysizlangan bo'lib:

— Taqsir, kechirasiz, kuyovingiz savdodan qaytib kelibdilar. Tezda yetib bormasam bo'lmas ekan, — deb sekin qo'lini uzatib, qozidan qutichani olib, bekitibdi-da, qozixonadan chiqibdi.

Ayol qozixonadan chiqsa, chol uni kutib turgan ekan. Chol quvona-quvona ayolga:

— Rahmat, qizim, murodingga yet, qo'shganing bilan qo'sha qari, — debdi va ayolning farosatiga tahsin o'qib, qishlog'iga ravona bo'libdi. Qozi hayron bo'lganicha, turgan o'rnida qotib qolibdi.

MEHRIGIYO

Qadim zamonda shuhrati olamga ketgan bir savdogar bo'lgan ekan. Bu savdogarning olti yuz karvoni bor ekan. Ammo savdogar yetmish yoshga kirganida ham farzand ko'rmabdi. Kunlarning birida o'zining olti yuz karvonlarini to'plab, farzandi yo'qligini ularga gapirib, juda afsuslanib, dunyodan befarzand, nom-nishonsiz ketayotgani uchun xafa bo'libdi. Shundan keyin savdogar boshqa yurtga savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanish uchun safarga jo'nabdi. Bu vaqtda xotini homilador bo'lib qolgan ekan. Bir qancha vaqt o'tgandan so'ng, savdogarning xotini o'g'il tug'ibdi. O'g'lini 6 yoshga kirguncha hech kimga ko'rsatmasdan tarbiyalabdi. Savdogar o'z farzandini o'qish uchun maktabga beribdi. Endi savdogar o'z farzandining 12 yoshga kirganidan faxrlanib, savdo ishida o'g'lim o'rnimni bossin, degan umidda ko'p shaharlarga olib borib, mollarning sifati va oldi-sotdi ishlari bilan tanishtira boshlabdi. Kunlarning birida savdogar o'z o'g'lini sinash uchun yosh

karvon boshilardan 4 tasini unga qo'shib, qo'liga 40 tilla berib, bozorga jo'natibdi. Bozorning bir chetida ko'pgina odamlar to'planishib turgan ekan. O'g'il ularning oldiga borsa, bir odam chiroyli bir kuchuk bolasini sotmoqchi bo'lib ushlab turgan ekan. "Kuchuk necha pul", deb so'rasa, u kishi "40 tilla", debdi. U 40 tillani berib, kuchuk bolani uyga olib keibdi. Ota-onasi ertasiga yana 40 tilla beribdi. Bola pulni olib bozorga boribdi. Bozorda bir kishi mushuk bolasini ko'tarib turgan ekan, uni ham sotib olibdi. Bolaning ota-onasi buni ko'rib hayron bo'libdi. Ertasi kuni unga yana 40 tilla berib, bozorga jo'natishibdi. Bu safar bola ulfatlari bilan oshxonaga kiribdi. Oshxonada bolaga joy tegmay qolibdi. Burchakda bir sandiq turgan ekan, bola shuni olib kelib o'tirmoqchi bo'lib boribdi-da, sandiqni ochib ko'ribdi. Sandiq qop qog'ini endigina ko'targan ekan, birdaniga uning ichidan bir ilonning bolasi chiqib yigitning bo'yniga o'ralibdi. Shu payt bir lo'li xotin dod-faryod solib, "Nega ilonimni chiqarib yubording", deb yigitga yopishib ketibdi.

Yigit:

— Ma, oladigan narsang shu-da, — deb qo'lidagi qirq tillani haligi xotinga beribdi. Tasodifan ilonning bolasi tilga kirib:

— Ey, yigit, mendan qo'rqma, men butun yirtqich jonivorlar podshohining yolg'iz o'g'li

bo'laman, o'ynab yurgan vaqtimda bu xotin meni tutib olib, mana shu sandiqqa solib qo'ygan edi. Sen meni o'limdan qutqarding, endi meni ota-onam oldiga olib borib qo'lasan, — debdi.

Yigit hayron bo'lib, maslahat qilish uchun ota-onasining oldiga kelibdi. Ota-onasi bu voqeadan tashvishga tushibdi va noiloj unga ruxsat beribdi. Yigit ilon bilan birga kuchuk va mushugini ergashtirib yo'lga chiqibdi. Ular yo'l yursalar ham mo'l yurib, yetti tog'-u yetti qirdan oshib, uch oy deganda ilonlar vodiysiga yetib kelibdilar. Shunda ilon yigitga:

— Sen otamning oldiga 39 ta darvozadan o'tib kirasan, yo'lda yirtqich hayvonlardan qo'rqma, men "chir" desam, hammasi birga salom berishib, darvozalarni ochib qo'yishadi, kirib ketaveramiz, — deb uqtirib qo'ydi. Uning ota-onasi yolg'iz farzandlarining dog'ida kuyib, onasining ikki ko'zi ham ko'r bo'lib qolgan ekan. Bolasi kelganini eshitgan ilonlar podshohi farzandi yo'lga juda ko'p kanizlari bilan peshvoz chiqib kutib olibdi. Shu vaqtda bolasini ko'rgan ona ilonning ikki ko'zi xursandchilikdan ochilib ketibdi. Ular yigitni qirq kecha-yu qirq kunduz mehmon qilibdilar. Yigit o'z yurtiga qaytmoqchi bo'lib, ilondan javob so'rabdi. Shunda ilon yigitga qarab:

— Senga otam sovg'alar beradi. Otam "Tila tilagingni", deganda, "Menga hech narsa kerak

emas”, deb javob berasan. Uchinchi marotaba “Tila tilagingni”, deb so‘raganda: “Tilingizning tagidagi mehriyoyingizni bering”, deysan. Shunda otam tili tagidagi mehriyosini senga beradi, bunda juda sir ko‘p. U boshingga mushkul ish tushsa, seni qutqaradi, — debdi.

Bir-ikki kundan keyin ilonlar podshohi yigitga: “Tila tilagingni”, deganda, yigit: “Menga hech narsa kerak emas”, deb javob beribdi. Shoh ilon uchinchi marta undan so‘rabdi.

— Shohim, agar xo‘p desangiz menga tilingizning tagidagi mehriyoyingizni bering, agar yo‘q desangiz men unga ham xafa bo‘lmayman, — debdi. Shunda shoh ilon:

— O‘g‘lim, mayli, sen meni juda nozik joydan ushlading, men uni sendan ayamayman. Chunki sen menga yuragimning madori, ko‘rar ko‘zim, yolg‘iz farzandimni dushmanlar qo‘lidan qutqarib olib kelding. Bizga yaxshilik qilding. Ammo sen bu mehriyoni qo‘lingdan boy berib qo‘yma, uni sir saqla, bu seni har qanday mushkuldan omon qoldiradi, seni murod-maqsadingga yetkazadi. Ma, men senga mehriyoyimni berayin, — deb unga tili ostidagi mehriyosini beribdi va uning hamma sirlarini aytibdi. — Agar senga kerak bo‘lib qolsa: “Labbay tosh, men senga yo‘ldosh”, deb tilagingni tilasang, ko‘zingni yumib-ochguningcha xohlagan narsang tayyor bo‘ladi.

Ilon shoh yigit bilan xayrlashib, uni jo'natibdi. Yigitga ular juda chiroyli qilib yasatilgan bir ot ham beribdilar. Yigit otni minib, mushuk va kuchukni ergashtirib, yo'lga ravona bo'libdi. Juda ko'p yo'l yuribdi, nihoyat, madordan ketib, ot-dan tushib dam olay, deb turgan vaqtida birdaniga mehrigiyosi yodiga tushib qolibdi. U mehrigiyodan bir kosa suv bilan ikkita non so'rabdi va ko'zini yumib-ochsaki, non, suv tayyor turibdi. Bitta nonni teng bo'lib, yarmini kuchukka, yarmini mushukka beribdi. Ikkinchi nonni teng bo'lib, yarmini yarim kosa suv bilan o'zi yeb, yarmini suv bilan otga beribdi. Damlarini olib, yana yo'lga ravona bo'libdilar. O'n besh kunlik yo'l yurganlaridan so'ng yigit: "Endi yo'lning qoq o'rtasiga kelibman. Osmon yiroq, yer qattiq, qani, men shu yirtqich hayvonlarning aytganiga amal qilib ko'raychi", deb mehrigiyoga: "Labbay tosh, men senga yo'ldosh, sen shu cho'lni bo'stonga aylantir, bu bo'stonning o'rtasidan juda katta daryo o'tib tursin, daryoning qoq o'rtasida esa, tagi daryoga tegmagan, balandligi osmonga yetmagan, marmar toshlar bilan tiklangan, ichidagi anjomlarni hech qanday inson ko'rmagan bino bo'lsin-u, binoning ichida husnda yer yuzida tengi yo'q, dono bir Malika bo'lsin. Malika bilan men to'shak yonboshlab yotib, noz-ne'matlar bilan choy ichib o'tirgan

bo'lay", debdi. Yigit ko'zini yumib-ochsaki, o'zining aytganidan ham ziyoda hamma narsa tayyor bo'libdi. Yonida Malikasi qirq kanizaklari bilan ta'zim qilib, xizmat qilmoqda. Yigit bora-bora har kuni ovga chiqa boshlabdi.


Endi gapni Chin mamlakatining podshohidan eshiting. Chin mamlakatining podshohi har kuni ovga chiqar ekan, ov ovlashda bu podshohga hech kim teng kelolmas ekan, keyingi kunlarda podshoh nazar solib yursa, bu savdogarvachcha yigit ovning eng yaxshilarini otar ekan-u, podshoh esa mayda ovlarni otar ekan. Shunga qaramay, ikkalasi ham bir yerda ov qilishar ekan. Podshoh bu savdogarvachchaning yaxshi ov qilganiga hasadi kelib, mamlakat odamlarini chaqirtiribdi va ovchi yigitning a'lo darajada ov qilish sirini bilib berishlarini buyuribdi, buning uchun u xalqqa bir kecha-yu bir kunduz muhlat berib: "Agar kimda-kim bu sirni bilib kelsa, to umrining oxirigacha oltin belanchakda qirq kanizakka tebrattirib parvarish qilaman, agar hech kim bila olmasa, hamma yoqni xonavayron qilib yuboraman", debdi. Muddat tugay deb qolganda bir kampir podshohning oldiga kelib:

— Sizning xizmatigingizni men bajargani keldim, — debdi. Podshoh bu jodugardan xursand bo'libdi.

Kampir:

— Endi menga bir tuyaga zar yuklab, bir eshaka o'zimni mindirib qo'yasiz, men shunda bu sirni sizga bilib kelaman, — debdi. Podshoh kampirning aytganlarini tayyorlab beribdi. Kampir yo'lga ravana bo'libdi, 48 kun deganda kampir yigitning eshigi oldiga kelib, bir tishini sug'urib pichoq qilib, eshakning oyog'iga sanchib-sanchib cho'loq qilibdi, tuyani cho'ktirib, uning og'ziga ikkita sovunni solib, oq ko'pigini oqizib, qoliga ro'molchani olib, ko'zidan oqqan yoshni artib o'tiribdi. Bir kuni kanizlar chiqib, kampirni ko'ribdilar va Malikaga kirib voqeani aytibdilar. Malika ham chiqib qarasa, bir kampir darvoza oldida yig'lab o'tiribdi. Malika kampirdan: "Nima bo'ldi, ena, nega muncha yig'lab o'tiribsiz", deb so'rabdi. Kampir:


— Ey, bolam, men hajga ziyorat qilgani borgan edim, shu yerga kelganimda eshagimning oyog'i sinib, tuyaning madori ketib, yiqildi; o'zim esa birgina qizim bor edi, uni ko'rarmikanman yoki ko'chada qolarmikanman, deb yig'lab o'tiribman, — debdi. Malikaning kampirga rahmi kelib, uni uyiga olib ketibdi. Kanizlar esa tuya va eshaklarga yem-suv bera boshlabdi. Kech kirganda yigit kelibdi va kampir bilan so'rashibdi. Biroq u kampirning xosiyati yo'q, jodugar kampir ekanligini sezib: "U mening Malikamni o'g'irlagani kelgan bo'lsa kerak, ammo



mening mehriyoyim bor, olib ketsa ham yo'ldan qaytarib kelaman", deb o'ylabdi-da, beparvo yura-veribdi.

Kampir esa Malikaning oldiga kirib, "Bolam, kuyovingiz muncha ko'p ov qilib keladi, hamma podshohvachchalar hayron qolishsa kerak, qanday qilib ov qilishini bilasizmi?", deb so'rabdi. Malika: "Yo'q, enajon", deb javob beribdi. Kampir Malikani aldab, erining yaxshi ov qilish sirini bilishga buyuribdi. Malika eri bilan o'tirganda kampirning gapi yodiga tushib, birdan qovog'ini solib, xafa bo'lib qolibdi. Yigit Malikadan nima uchun xafa bo'lganini so'ragan ekan, Malika:

— Men siz bilan yetti yil birga umr kechirdim. Siz menga qanday qilib hammadan ko'p ov qilishingizni aytmadingiz, — debdi. Yigit shunda Malikaning husn-jamoliga mahliyo bo'lib, butun boshidan kechirganlarini va siri — mehriyosini ham aytib beribdi. Qiz mehriyoni ko'rsatib, deb qo'ymabdi. Yigit Malikaga beribdi. Erta bilan mehriyoni unutib qoldiribdi-yu, yigit ovga chiqib ketibdi. Kampir Malikadan erining ov qilish sirini yana so'rabdi. Malika mehriyoni qo'lga olib, kampirga ko'rsatibdi. Buni nima qilgan ekan, bu oddiy tosh-ku, deb kampir hayron bo'libdi. Shunda Malika: "Labbay tosh, men senga yo'ldosh, meni tilagimga yetkaz", desa, ko'zni yu-



mib-ochguncha, kishini murodiga yetkazar ekan, debdi. Kampir uni qoliga olib ko'rishni so'rabdi. Malika unga beribdi.

Kampir mehriyoni qo'liga olib, "Labbay tosh, men senga yo'ldosh, sen shu yerda turgan hamma narsani Chin mamlakati podshohining o'rdasiga olib borib qo'y", debdi. Ko'zini yumib-ochguncha Chin shahriga borib qolibdi. Podshoh butun xalqini chaqirib, bu mo'jizani ko'rsatibdi. Kampirni esa oltin belanchakda tebratib, kanizaklarini unga xizmatkor qilib qo'yibdi. Malika kampirdan o'z erining nega kelmaganini so'rabdi. Besh kundan so'ng kampir Malikaga "Shu sening ering bo'ladi", deb podshohni ko'rsatibdi. Malika dod-faryod qilib yig'labdi. Podshoh mehriyoni olganligiga xursand bo'libdi. U ovqat vaqtida mehriyoni dasturxonning bir chekkasiga qo'yib qo'yar ekan.

Yigit ovdan qaytib kelsa, bog'-rog'i yo'q, kuchugi bilan mushugi yig'lab o'tirar ekan. Yigit bu ishlarni ko'rib, peshanasiga bir urib, qilgan ishiga ming pushaymonlar qilibdi. It bilan mushuk:

— Ey, aka, sen yig'lab xafa bo'lma, boshingga tushgan bu mushkul ishni biz yengillatamiz, — deyishib, Chin mamlakatiga jo'nab ketibdilar. Chin mamlakatiga yetib kelganidan so'ng pod-

shohning uyiga mushuk kiribdi. Kuchuk esa Malikaning oldiga kirib akillabdi. Malika kuchukni tanibdi. Shu vaqtda podshoh "Tosh"ni dasturxonning chetiga olib qo'yib ovqatlanayotgan ekan. Mushuk u yoq-bu yoqqa o'tib turib "Tosh"ni olib qochib, kuchukning oldiga kelibdi. Ular yo'lda ketayotganlarida bir katta ko'prik uchrabdi, kuchuk "Toshni men olib o'taman", debdi. Mushuk kuchukdan qo'rqqanidan unga beribdi. Yaqin joyda ovchilar baliq ovlab yurishgan ekan, kuchuk ovchilarga qarab hurigan ekan, tosh suvga tushib ketibdi. Baliq uni yutib yuboribdi. Ovchilar suvga to'r solganlarida katta bir baliq ilinibdi. Ular baliqning qornini yorib, ichaklaridan toshni topibdilar. Toshni yigitga olib kelib beribdilar. Yigit xursand bo'lib, kuchuk bilan mushukni quchoqlab o'pib, mehrigiyoga "Labbay tosh, men senga yo'ldosh, mening bog'-rog'imni shu yerdan qanday olib ketilgan bo'lsa, o'shanday hoida qaytargin va ular bilan birga qirqta ot, qirqta xachir ham bo'lsin", debdi. Yigit ko'zini ochib yumguncha aytganidan ham ziyoda qo'yibdi, Malikasi qirqta kanizi bilan paydo bo'libdi. Jodugar kampirni ham keltirilibdi. Yigit kampirning hamma gunohlarini bo'yniga qo'yib, uni qirqta ot, qirqta xachirning dumiga bog'lab, cho'l-biyobonga qaratib haydab



yuboribdi. Yigit esa ota-onasining oldiga kelib, sogʻ-salomat diydor koʻrishibdi. Quchoqlashib, boshidan oʻtgan voqealarni bir-bir ota-onasiga bayon qilibdi, goʻzal Malika bilan birga yashab, davlatlari ziyoda boʻlib murod-u maqsadiga yetibdi.

QIRON AKA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir podshohning birgina o‘g‘li bor ekan. U bir kuni uxlab yotib, tushida bir parini ko‘ribdi. Uyg‘on-sa, tushi emish. Shundan keyin u gapirmabdi ham, kulmabdi ham. Podshoh o‘g‘lining ahvoliga achinib yig‘labdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, podshoh vazir-vuzarolarini chaqirib:

— Kimki mening o‘g‘limni gapirtirsa yoki kuldirsa, istaganini beraman, — debdi.

Bu so‘z xaloyiq orasiga yoyilibdi. “Podshohning o‘g‘lini men kuldiraman”, deb har tomondan odamlar kela beribdi. Shahzodani kuldirish u yoqda tursin, hatto hech kim gapirtira olmabdi ham.

Podshoh juda xafa bo‘lib: “Men shunday katta podshoh bo‘lsam, keksaygan chog‘imda bir o‘g‘il ko‘rgan bo‘lsam-u, uni ham gapirtira olmasam, men podshoh bo‘lib nima qildim”, deb o‘ylab, yaqin odamlarini chaqirib: “Yurtimizda kelmagan biror odam qoldimi?” debdi. Bir vaziri turib:

— Ey, taqsir, kelib o'g'lingizni ko'rmagan bir kampir qoldi. U falon tegirmonchining onasi, o'tirsa tura olmaydi, tursa yura olmaydi, — debdi.

Podshoh kampirga darrov navkarlarini yuborib, uni tilla zambilda keltiribdi. Kampir shahzodani ko'rib, unga qarab:

— Ha, bolam, tushingda pari ko'ribsan-da, — debdi. Shahzoda birdan kulib yuboribdi, o'rnidan turib, yugurib kampirning yoniga kelib:

— Enajon, siz menga aytib bering. Qanday qil-sam u pariga yetishaman, — debdi.

Kampir:

— Shahrimizdan yetti kunlik naridagi tog'ning boshida mening inim Qiron dev yashaydi. Qiron-ning yoniga borsang, u senga parini topib bera-di, — debdi.

Podshoh o'g'liga qirq xachir tilla berib, qirq xizmatkorni hamroh qilib safarga jo'natibdi. Ular yetti kecha-yetti kunduz yo'l yurib, bir tog'ning tagiga yetishibdi, unda tunashibdi. Yarim kechada shahzoda uyg'onib qarasa, tog'ning ustida bir nar-sa yilt-yilt qilar emish. U hayron bo'lib, xizmat-korlarga:

— Sizlar shu yerda turinglar. Men yolg'iz o'zim borib ko'rib, bilib kelaman, — deb tog'ga chiqib qa-rasa, yuzta polvon Qironni arqonga bog'lab turgan emish, Qiron esa qimirlamay yotganmish. Qiron

uxlab yotgan ekan. U bir kecha-yu bir kunduz uxlar ekan. Shahzoda atrofdagi kishilarga:

— Nega buning qo‘l-oyog‘ini bog‘layotibsizlar? Tag‘in o‘zlaring o‘lib ketmanglar, — debdi. Ular aytibdi:

— Agar Qiron akani bog‘lab olib kelmasak, Podshohimiz bizni o‘ldiradi. U “Yuztangning boshingni baravar uzaman”, degan.

Shunda Shahzoda:

— Ey, podshohing bekor aytibdi. Bu tog‘ning tagida qirq xizmatkor bilan qirq xachir tillam bor. O‘shani olib keta beringlar, — debdi.

Polvonlar shahzodaning aytganini qilib, tog‘dan pastga tushib ketibdilar. Shahzoda Qironning qo‘l-oyog‘ini yechib, uning uyg‘onishini kutibdi. Biroz vaqt o‘tgach, Qiron uyg‘onibdi. Qiron yonida o‘tirgan bolani ko‘rib, undan:

— Bu yerda nima qilib o‘tiribsan, kim bo‘lasan? — deb so‘rabdi. Shahzoda bo‘lgan voqealarni aytib beribdi.

Qiron:

— Yur bo‘lmasa, men o‘tin qilib beray. Sen yoqib o‘tir, olovning yorug‘i bilan pari qizni senga olib kelib beraman, — debdi. Qiron ko‘p o‘tin yig‘ibdi. Shahzoda olovni gurillatib yoqib o‘tiribdi. Qiron yo‘lga ravona bo‘libdi. Shahzoda qirq kecha-qirq kunduz olov yoqib o‘tiribdi. Qirq bir kun deganda

Shahzodaning uyquusi kelibdi, bir bog' o'tinga boshini qo'yib uxlab qolibdi. Bir kecha-kunduz uxlab uyg'onsa, olov o'chib qolgan emish, har tomonga kul sochilib ketgan emish. Hayron bo'lib, endi qanday qilib olov yoqaman, deb o'rtada qolgan kulni kovlasa, mushtumday cho'g' qolgan ekan. Cho'g'ni olib, do'ppisiga solsa, cho'g' osmonga otilib, do'ppisiga tushar emish. Shahzoda qo'rqib ketibdi. Nima qilagini bilmay, shoshilib qolibdi. Bola orqasiga qarasa, Qiron kelib, kulib qarab turgan ekan. Shunda Qiron bolaga bir quti berib:

— Sening istaganing shu qutining ichida, tag'in yo'lda ocha ko'rma, ochsang qochib ketadi, keyin pushaymon bo'lib yurma! — debdi. Bola qutini olib yo'lga tushibdi. Yurib-yurib charchab, bir yerda dam olibdi.

Shahzoda: “Men Qironga ishonib qutini olib kelayotibman. Quti juda yengil, kichkina-ku, ichida pari bormi, yo'qmi, bir ochib ko'ray-chi”, debdi. U qutini ochib ko'rsa, ichida pari o'tirgan emish. Pari shahzodaning yuziga ham qaramabdi, o'z tizzasiga boshini qo'yib o'tiribdi. Shahzoda unga “Tur, otga min, ketamiz”, desa ham indamabdi. Shahzoda pariga yalinib-yolvoribdi. Oxirida pari:

— Siz menga nomahramsiz, avval meni nikoh qilib oling, so'ngra so'zlashamiz, — debdi.

Shahzoda hayron bo'lib:

— Seni bu yerga yolg'iz qo'yib, tanish bo'lmagan joyda qayerdan domla topaman. Balki men qaytib kelguncha qochib ketarsan, — debdi.

Pari:

— Yo'q, qochmayman, siz domla topib kelguningizcha men shu yerda o'tiraman, — debdi.

Shahzoda:

— Xayr, bo'lmasa, — deb otini minib, domla qidirib ketibdi. Yurib-yurib, bir temir qo'rg'on-ga yetibdi. Eshikni taqillatsa, bir dev chiqibdi. Shahzodani darrov ushlab, zindonga tashlabdi, otini so'yib yebdi. Pari Shahzoda ketgan zamoni-yoq qochib ketgan ekan.

Kunlar, oylar o'tibdi. Bir kun Qiron tush ko'ribdi. Tushida bola devning zindonida yotgan emish. Qiron tongda uyg'onibdi-yu, bir yaxshi otga minib yo'lga chiqibdi, bir qancha vaqt yo'l bosib, devning qo'rg'oniga borib, darvozasini uribdi. Dev chiqibdi. Qironga ta'zim qilibdi.

Qiron:

— Shu yerga otliq odam keldimi? — deb so'rabdi.

Dev:

— Ha, keldi, otini yedim, o'zini zindonga tashladim. Otiga ot beraman, o'zi o'likmi, tirikmi bilmayman. Buni toleingizdan ko'rasiz, — debdi

Qiron zindonning ichiga arqon tashlagan ekan, Shahzoda arqonga tirmashib zo'rg'a chiqibdi. Dev

Qirondan qoʻrqqanidan shahzodaga bir otini egarlab beribdi. Shahzoda Qiron bilan yoʻlga chiqibdi. Ular yoʻl yurib, yol yursalar ham moʻl yurib, Qironning uyiga yetibdilar. Bir-ikki kun oʻtgach, Shahzoda Qirondan parini yana olib kelib berishini soʻrab yalinibdi. Qiron unga bir kam qirq hujraning kalitini berib: “Mana bu kalitlarni ol, men kelguncha hujralarni ochib, ichini tomosha qilib turgin: men parini olib kelaman”, debdi. Qiron ketib yetti kecha-yetti kunduz deganda parini olib kelib, Shahzodaga nikohlab qoʻyibdi.

Qiron har kuni ovga chiqib yurar ekan, u ovga ketganda shahzodaga bir kam qirq hujraning kalitini berar ekan, ammo bir hujraning kalitini bermas ekan. Kunlardan bir kun Qiron ovga chiqib ketayotganida Shahzoda:

— Qirqinchi hujraning kalitini bersangiz, boshqa hujralarning kalitini bermasangiz ham mayli, — debdi. Qiron avvaliga kalitni bermabdi, Shahzoda sira qoʻymagandan keyin Qiron qirqinchi hujraning kalitini ham berishga majbur boʻlibdi. Shahzoda bilan qiz hujrani ochib qarasa, ikkita qora ot turgan emish. Har biri bir gʻishtning ustida yetti xil oʻyin koʻrsatib turar emish. Pari Shahzodaga:

— Yuring, otlarni minib, sugʻorib kelamiz, — debdi. Shahzoda:

— Qoʻy, tagʻin qochib ketmasin. Qochsa, qanday qilib ushlaymiz, — debdi.

— Ey, yuring, nima qilardi, bu otlar qochib keta olmaydi, — debdi pari. Ikkisi otni yechib, tizginidan ushlab, sugʻorishga olib boribdi.

Qironning bogʻida bir hovuz bor ekan. Otlar shu hovuzdagi suvning hammasini ichib qoʻyibdilar. Shahzoda hayron boʻlib: “Endi otlarni joyiga olib kirib bogʻlaymiz”, deb turganida, ikki ot bir dumalab ikkita kaklik boʻlibdi. Shahzodaning xotini esa bir dumalab kaptar boʻlibdi, uchovi qoʻshilib uchib ketibdi. Shahzoda yigʻlabdi. Birozdan keyin Qiron kelibdi. Shahzoda yana Qironga yalinibdi, yigʻlab: “Endi sira gapingizdan chiqmayman”, debdi. Qiron Shahzodani tilagiga yetkazish uchun yana yoʻlga ravona boʻlibdi. Yurib-yurib bir togʻga borsa, unda bir eshik koʻrinibdi, eshikni taqillatib:

— Och eshikni, kampir! — debdi. Uyning ichidan bir kampir, “Qiron mard oʻgʻlon keldi”, deb eshik tomon yoʻnalibdi. Bu yoqda Qiron tashqaridan turib:

— Qiron keldi, olov keldi, ikki ukang qani, qayerda turibdi, tezroq ayt, — debdi. Kampir:

— Anovi eshikdan kirsang, mendan kichik singlim oʻtiribdi, oʻsha biladi, — debdi. Uning yoniga borsa, u ham: “Anovi singlimdan soʻra”, — debdi.

Oʻsha togʻning tagida yetti egachi-singil bor ekan, Qiron ularning hammasidan pari bilan kaklik suratiga kirib qochgan devlarni soʻrab chiqibdi. Hammasi “Bilmayman”, deb javob beribdi. Eng kichkinasi ham “Men bilmayman”, dedi.

Qiron:

— Qironning kuchini bilmaganga o'xshaysan? — deb qilichini ko'taribdi.

— Yo'q, yo'q, o'ldirma meni, men aytsam, uning eshigi mening eshigimning yonidagi eshik, — debdi.

Qiron uning ko'rsatgan eshigiga kirsam, bir katta bog': bog'ning o'rtasida bir ustun. Ustunga bir qafas osig'liq ekan. Qafasda esa pari o'tirgan emish. Dev kelib pariga salom berib ketar ekan. Birpasdan keyin shamol-to'polon bilan aka-uka dev kelibdi, kelibdi-yu, dumalab kaklik bo'libdi. Haligi tilla qafasga o'zini urib, tap etib yerga tushibdi. Qiron sekin borib, ikkovini ikki qo'lga qisib, tilla qafasni boshiga qo'yib, uyiga qaytibdi.

Qiron parini Shahzodaga qaytadan nikohlab beribdi. Ikki devni esa hujraga qamab, eshigini qulflab qo'yibdi. Ikkisi ham boyagiday ot bo'lib, oxurdan bedani yeb tura beribdi.

O'iron Shahzodani bir bolali bo'lguncha o'z yonida olib turibdi. Shahzoda bolali bo'lgach, "Otang, onang sog'ingandirsan", deb uyiga jo'natibdi.

Podshoh yig'lab-yig'lab ko'zi ko'r bo'lib qolgan ekan. O'g'lining pari xotini bilan qaytganini eshitib sevinibdi. Pari podshohning ko'ziga bir nay bilan puflasa ko'zi ochilibdi. Podshoh bolasi, kelini va nevarasini ko'rib, dimog'i chog' bo'libdi. Shahzoda otasining taxtiga o'tirib, murod-maqsadiga yetibdi.

ERKENJA

Bir podshohning uch o'g'li bor ekan. Kunlardan bir kuni podshoh o'g'illariga:

— Uchovlaringizni ham uylantirmoqchiman, nima deysizlar? — debdi. O'g'illari:

— Ey, ota, uchovimizga ham bir odamning qizlari bo'lsin. Kattamiz kattasini, o'rtanchamiz o'rtanchasini, kichigimiz kichkinasini olamiz, bo'lmasa uylanmaymiz, — deyishibdi. Lekin podshoh uchoviga bir odamning qizini topa olmabdi. Podshohning bir qushi bilan qushboni bor ekan. Qushning oyog'ida tilladan qo'ng'irog'i bor ekan, uni shoh qushi deb atasharkan. Kunlardan bir kuni shoh qushini olib, qushboni bilan ovga chiqibdi. Qushboni tilla qo'ng'iroqli qushni bir qushga solibdi. Biroq shoh qushi, arazlab ketib qolibdidi. Podshoh qushbonga:

— Shoh qushni qanday bo'lsa ham topasan, topmasang, moling talonda, boshing o'limda. Qushchi shoh qushini berishga podshohdan qirq kun muhlat olib, xafa bo'lib uyiga boribdi. Qushbonning o'n bir yoshli bir qizi bor ekan. Otasining xafa bo'lib kelganini ko'rib:

— Ota, bugun nimaga xafa bo‘lib keldingiz? — debdi. Qushbon:

— Nimaga xafa bo‘lmayin, bolam, podshohning qushini yo‘qotib qo‘yib, qayg‘u-kulfatga qoldim. Podshoh shu qushni topsang topasan, topmasang o‘lasan, deb qirq kun muhlat berdi. Qizim, qani menga bir yo‘l ko‘rsat? — debdi. Qizi:

— Ota, xurjunga ko‘p tilla solib, saman otning beliga minib, cho‘l-u biyobonga chiqing, balki topilib qolar, — debdi.

Qushbon qizning gapi bilan xurjunga tilla to‘ldirib, saman otiga minib, cho‘l-u biyobonga jo‘nab ketibdi. Qushbonning oti shunday yo‘rg‘a ekanki, olti oylik yo‘lni uch kunda bosar ekan. Qushbon yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, olti oylik yo‘lni uch kecha-kunduzda bosibdi. Juda chanqab qolibdi. Otini qantarib, xurjunni boshiga qo‘yib, ko‘kragini zaxga berib, holdan ketib, uxlab qolibdi. Ertasi choshgoh vaqtida oppoq soqolli bir mo‘ysafid chol boqib kelib qolibdi. Qarasa, bir ot qantarilganicha turganmish. Bir yigit zax yerga bag‘rini qo‘yib, uxlab yotganmish. Chol: “Bu odam o‘likmikan, tirikmikan, bir xabar olay”, deb yigitning qoshiga kelib qarasa, uxlab yotgan ekan. Chol:

— He, o‘g‘lim, uxlab qoldingmi, qayerdan bo‘lasan? — debdi. Qushbon joyidan turib cholga salom beribdi.

— Bobo, men juda charchadim, suvsadim, och goldim, — debdi. Chol:

— Bo‘lmasa, mening uyimga borin, o‘g‘lim, yaxshi yigit ekansan, — debdi.

Qushbon:

— Bobo, uyingiz yaqinmi? — debdi.

— Bolam, uyim uzoq emas, — debdi chol.

Chol qushbonni bir mehmonxonaga olib kiribdi. Mehmonxonaning oltmishta derazasi bor ekan. Toza ko‘rpachalar, gilamlar solingan. Derazadan qarasa, hovlisida besh yuzta qoziq qoqilgan, uning har qaysisiga no‘xta² bog‘langan, bant³dan qilingan besh yuzmish to‘rva osilgan. Qushbon: “Bizning podshohimizda ham bunday uylar, bunday boyliklar yo‘q, bu uy biror podshohnikimikan yoki biror boynikimikan”, deb o‘ylabdi. Chol choy-non, har xil taomlar keltirib, qushbonni mehmon qilibdi.

— O‘g‘lim, so‘ramoqning aybi yo‘q, sen qayerga, nimani izlab yuribsan? — debdi chol.

Shunda qushbon:

— Ey, bobo, men podshohning qushboniman, podshohning bir qushi bor edi, bir oyog‘ida til-ladan qo‘ng‘irog‘i bor edi. Bugun to‘rt kun bo‘ldi, shu qush arazlab, yo‘q bo‘lib ketdi. Podshohdan

²No‘xta — ot-ulovni bog‘lash, yetaklash, haydash uchun boshiga solinadigan abzal.

³Bant — duxoba, baxmal.

qirq kunga muhlat olib, qidirib yurganimga bugun to'rt kun bo'ldi. Bobo, bu yerlardagi xalqdan bir so'rab ko'ring, ko'rgan bormikan, bilgan bormikan, — debdi.

Chol:

— Ha, bolam, yo'g'ing topilsin, — debdi. Qushbon ichkaridagi hovliga qarasa, uchta tilla o'tov: biri kattaroq, ikkinchisi undan kichikroq, uchinchisi undan ham kichikroq tikuvli turibdi. Shu o'tovning biridan uch qiz chiqibdi. Biri baland bo'yli, ikkinchisi pastroq, uchinchisi undan ham pastroq. Bir o'tovdan ikkinchi o'tovga, ikkinchi o'tovdan uchinchisiga chopishib, o'ynab yurishibdi. Qushbon:

— Ey, bobo, bu uch o'tov kimniki? — debdi.

Chol:

— O'g'lim, bu o'tovlar bizniki, — debdi.

Qushbon:

— Shu o'tovlarning biridan ikkinchisiga chopib yurgan qizlar kimning qizlari? — debdi.

Chol:


— O'g'lim, uchovi ham bizning qizlar, — debdi.

Qushbon:

— Shu uchovi uch enadan bo'lganmi, bir enadan bo'lganmi? — debdi.

Chol:

— O'g'lim, uchovi ham bir ota, bir enadan bo'lgan, — debdi. Qushbon:



— Qizlaringizning uchovi ham bo‘ymi⁴? Hech kimga unashganingiz yo‘qmi? — debdi.

Chol:

— Ha, bo‘y, hech kimga unashganim yo‘q, — debdi.

Qushbon:

— Bobo, otingiz nima? — debdi.

Chol:

— Otimni, bolam, Nodir elbegi deydilar, — debdi.

Qushbon:

— Shu joylar podshohlik joyimi yo beklik joyimi? — debdi.

Chol:

— Bu Nodir bobongizning joyi. Besh yuz otga yem beraman, besh yuz mullavachchaga non beraman. Bobongizning joyi shunday joy bo‘ladi, — debdi.

Qushbon:

— Bobo, endi ketsak bo‘ladimi? — debdi.

Chol:

— Ertaga ketasiz-da, o‘g‘lim! Mana bugun to‘rt kun bo‘ldi. Tilladan qo‘ng‘irog‘i bor bir qush o‘rtadagi tilla o‘tovning tepasiga har kuni kelib turadi, — debdi.

⁴Bo‘ymi — boshi ochiqmi?

Qushbon:

— Bobo, u qush qay vaqtda keladi? — debdi.

Chol:

— Odamlar uxlagandan keyin, yarim kechada kelib, shu o'tovning boshiga qo'nadi, tong vaqtida, odamlar uyg'onmasdan ketadi, — deb javob beribdi.

Qushbon:

— Bobo, qush kelganda menga qanday qilib xabar qilasiz? — debdi.

— Bolam, siz damingizni olib yota bering, keladigan vaqtida o'zim uyg'otaman, — debdi.

Shu bilan qushbon yotib uxlab qolibdi. Yarim kecha bo'lganda jingir-jingir qilib qush o'tovning boshiga kelib qo'nibdi. Chol kelib:

— Ey, o'g'lim, ko'zingizni ochib qarang, qush keldi, — debdi. Qushbon joyidan turib, o'rtadagi o'tovning tepasiga qarasa, o'zining yo'qotib yurgan qushi ekan. Ey, jonivor shoh qushim, sening dastingdan ukajonim, xotin, bola-chaqamdan ayrilib, seni axtarib keldim. Qush darrov qushbonning qo'liga kelib qo'nibdi. Qushni erkalab mehmonxonaga olib kelib, don berib, suv berib, to'ydiribdi.

Shu kecha yotibdi, ertasi tong otibdi, joyidan turib:

— Ey, bobojon, shu qush meniki ekan. Topib, murodimga yetdim, bizga javob bering. Siz ota bo'lsangiz, biz bola bo'lsak. Biz ham elimizga ketsak, — debdi.

— O'g'lim, bir necha kun mehmon bo'ling, keyin ketarsiz, — debdi chol. Shu bilan qushbon bobosining uyida o'n besh kecha-kunduz mehmon bo'libdi. Chol qushbonga bosh-oyoq sarpo, tilla abzalli bir ot berib, odam qo'shib bir kunlik joyga chiqarib qo'yibdi. Qushbon kecha-kunduz yo'l yurib, bir kam qirq kun deganda yarim kechasi uyiga kelibdi. Qizi kutib olib:

— Ota, qushni topdingizmi? — debdi. Shunda qushbon:

— Topdim, qizim! Mana, ertaga podshohga topshirib, o'limdan qutulaman, — debdi. Ertasi turib, oti va qushini olib borib podshohga topshiribdi. Podshoh qushbonga beklik vazifasini beribdi. Qushbon podshohga:

— Ey, podshohim, mening sizga bir gapim bor, bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman, — debdi.

Podshoh:

— Ayt, — debdi.

— Bir cholni ko'rib qoldim. Uning dargohi, boyligi sizning podshohligingizda yo'q. Tilladan yasalgan uch o'tovi bor, uchta o'tovda uchta qizi bor: biri baland, ikkinchisi past, uchinchisi un-

dan past. Uchovi ham bir ota, bir onadan ekan. Shu uchovini uch o'g'lingizga olib bersak, — debdi.

Podshoh:

— Biz bilan teng kelarmikan? — debdi.

— U sizdan ham boy ekan! — deb javob beribdi qushbon.

— Bo'lmasa, o'zing sovchilikka borasanmi? — debdi shoh. Qushbon:

— Katta qushbekingizni, ulamolaringizdan yetti kishini bering, to'qqizta ot bering, hammamiz birga boramiz, — debdi. Qushbon bilan sovchilar jo'nashibdi. Yo'l yurishib, yo'l yurishsa ham mo'l yurishib, Nodir boboning uyiga kelib, otlarini bog'lashibdi. Nodir bobo qushbonni tanib, sakkizta mehmonni tanimasa ham mehmonxonaga olib kirib, izzat bilan mehmon qilibdi. Nodir bobo:

— Bolam, so'ramoqning aybi yo'q, qayerdan bo'lasizlar? Ilgari kelishingiz yo'lchi edi, endi kelishingiz elchiga o'xshaydi? — debdi.

Qushbon ta'zim qilib:

— Bobo, shunday, elchi bo'lib keldik. Bizning shohimizning uch o'g'li bor edi, sizda uchta qo'g'irchoq bor ekan. Shu uchovini podshohning uch o'g'liga bersangiz. Quda bo'lib yursak, deb kelgan edik, — debdi.

Chol:

— Kelganlaring juda yaxshi. Lekin bizda ham aka bor, uka bor, qavm-qarindosh bor. O'shalar bilan

bir maslahat qilib ko'raylik, "kengashli to'y tarqamas", berar-bermasligimizni so'ng aytarmiz, — debdi.

Chol qavm-qarindosh, tanish-bilishlarini yig'ib:

— Podshoh uch o'g'liga uch qizimni so'rab sovchi yuboribdi. Shunga nima maslahat berasiz? — debdi. Og'a-ini, qavm-qarindosh, tanish-bilishlar cholni koyib:

— Bizlarda ham yigitlar bor, podshohga bermaymiz, — deyishibdi.

Chol:

— U podshoh bo'lsa, g'azab qilsa, biz unga teng kela olmaymiz. "Bermaymiz degandan ko'ra, Bermas qizning qalini ko'p bo'ladi. Dunyoda yo'q narsalarini qalin qilib ro'yxat qilaylik", — debdi. Ular ham cholning so'zini ma'qullab, uch kecha-uch kunduz ro'yxat qilib, uni bir qop, bir xurjunga solib, sovchilarga olib kelib beribdi. Qushbonga bosh-oyoq sarpo, hammasiga bittadan ot berib, o'n kishini qo'shib, ikki kunlik yo'lga chiqarib kuzatibdi. Bular kecha-kunduz yo'l yurishib, podshoh oldiga kelishibdi. Podshoh qushbonni ko'rib:

— Bo'rimi, tulkimi? — debdi. Qushbon:

— Taqsir, bo'ri, — debdi, podshoh:

— Bo'ri bo'lsa, nima gap, ayting? — debdi.

Qushbon:

— Bobo qalinni katta qildi, bir qop, bir xurjun ro'yxat berib yubordi, — debdi. Podshoh katta-kat-

ta ulamolarini, vazirlarini yigʻdirib, bir qop, bir xurjun roʻyxatni oʻqib chiqishga beribdi. Ulamolar roʻyxatni uch kecha-uch kunduzda oʻqib chiqishibdi. Podshoh buni eshitib:

— Bunga mening dunyoyim yetmaydi, molni berolmayman, — debdi.

Shunda qushbon:

— Podshoh bir gapni aytmas, aytganidan qaytmas. Menga uch kunlik podshohligingizni va muhringizni bering. Molni men oʻzim topaman, — debdi. Podshoh qushbonga muhrini va uch kunlik podshohligini beribdi.

Qushbon oʻziga qarashli beklarga, ellarga, “Beshdan bir xirojni yigirma kun ichida podshoh dargohiga olib kelinsin”, deb buyuribdi. Yigirma kun deganda podshohga olib kelingan mol yer-u koʻkni bosib ketibdi.

Qushbon:

— Ey, podshoh, mana mol, — debdi. Podshoh bir qancha odamlarni yigʻib, mol-u dunyoni olib yoʻlga tayyorlanibdi.

Oʻgʻillariga qarab:

— Oʻgʻillarim, yuringlar, kelinlarni olib kelamiz, — debdi. Eng kichik oʻgʻli Erkenja turib:

— Ota, ikkita akamni olib, sizlar ketaveringlar. Mening xotinimni mana shu xanjarimga bagʻishlanglar. Qoʻrgʻon egasiz qolmasin, men oʻrningiz-

da qolay. Lekin sizga uch maslahatim bor. Birinchi kuni kelinlarni olib kelayotganda yoʻlda juda qattiq issiq boʻlib, odamlaringiz suvsab qolib, ikki, uchta odamingiz oʻladi. Shunda odamlar: “Podshoh, izingga qayt, xalqni qirasan”, deyishadi. Orqaga qaytmang. Ikkinchi kuni qattiq boʻron boʻladi, unda ham ikki, uch odam oʻladi, “Izingga qayt”, deyishadi. Ketingizga qaramay ketavering, uchinchi kuni odam boʻyi qor yogʻadi. Yana ikki, uchta odam oʻladi. “Izingga qayt”, desa ham, qaytmay ketavering, — deb otasi va akalarini joʻnatib, oʻzi qolibdi. Podshoh odamlari bilan yoʻl yuribdi, yoʻl yursa ham moʻl yuribdi, suvsiz choʻl yurib cholinek makoniga borib yetibdi. Chol kutib olib, otlarini tillaqoziqqa bogʻlab, oʻzlarini mehmonxonaga olib kirib, mehmon qilibdi.

Podshoh :

— Bobo, qizlaringizga aytgan qalinni olib keldik, — debdi. Chol podshohning olib kelgan qalinarini qabul qilib, katta oʻgʻliga katta qizini, oʻrtancha oʻgʻliga oʻrtancha qizini, kichkina oʻgʻli Erkenjaning xanjariga kichik qizini bagʻishlabdi. Toʻy-tomosha qilibdi. Podshoh kelinlarni olib yoʻlga tushibdi. Birinchi kuni juda qattiq issiq boʻlibdi. Odamlar chanqab qolib, ikki, uchta odam oʻlibdi. Odamlar “Ey, podshoh, izingga qayt”, deyishibdi. Podshoh orqasiga qaramasdan ketaverib-

di. Ikkinchi kuni juda qattiq bo'ron bo'libdi, xalq "Ey, podshoh, izingga qayt, xalq", debdi. Podshoh yana indamay ketaveribdi. Unda ham ikki, uchta odam o'libdi. Uchinchi kuni odam bo'yi qor yog'ib, juda sovuq bo'libdi. Yana ikki, uchta odam o'libdi. Qolgan odamlar "Ey podshoh, izingga qayt!", deb baqirishibdi. Podshoh orqasiga qarasa, ko'p odamlari qirilib ketayotibdi. Kun kech bo'lib qolibdi. Podshoh o'zi ham chidamay orqaga qaytibdi, bir qo'rg'onga kirib yotishibdi. Tong otgandan keyin podshoh o'rnidan turib qarasa, butun atrofi po'latdan qilingan devor bo'lib qamalib qolibdi. Hamma qanday qutulishini bilmay, hayron bo'lib turganda, po'latdan qilingan darvoza ko'rinibdi. Darvoza tagida bir dev yotganmish.

Podshoh :

— Ey dev, bizga yo'l ber, chiqaylik, — debdi.

— Menga qo'rg'oningda qolgan Erkenja degan o'g'lingni bersang chiqaraman, bo'lmasa darvozani ochmayman, — debdi dev.

Podshoh:

— Sen mendan bir o'g'il tilaysanmi, och darvozani, yuz o'g'il bo'lsa ham beraman, — debdi. Dev joyidan turib, darvozani ochibdi. Podshoh odamlari bilan darvozadan chiqib, yo'lga ravona bo'libdi. Bu sir Erkenjaga ma'lum bo'libdi-da, oyog'iga choriq tortib, qo'lga hassa ushlab, egniga janda kiyib,

devning makoniga qarab yo'l olibdi. Yo'l yurib, suvsiz cho'l yurib, kelinlarni olib kelayotgan otasiga ro'para kelib qolibdi. Podshoh:

— Ey, bolam, nimaga kelayapsan, nimaga bunday ahvolga tushib qolding? Xanjaringga bag'ishlangan qallig'ingni olib kelayotibman, — debdi.

Erkenja:

— Ota, qo'rg'ondan chiqib ketayotganingizda uch narsani tayinlagan edim. Qaytib kelayotib ikkitasini bajardingiz, uchinchisida maslahatimni olmasdan orqangizga qaytdingiz, dev meni so'raganda berishga rozi bo'ldingiz. Podshoh bir gapni aytmas, aytgandan qaytmas, endi bizdan rozi bo'ling, devning ixtiyoriga boraman, — debdi.

Podshoh:

— O'g'lim, qallig'ingni nima qilaman? — debdi.

Erkenja:

— Yuzini oching, umid tortib kelayotgan qallig'ni ko'ray: noumid bo'lmasin, — debdi-da, "Ko'rishguncha xayr, yetti yildan keyin kelaman", deb devnikiga qarab yo'l olibdi. Podshoh yig'lab-yig'lab o'g'il, kelinlari va odamlari bilan o'z qo'rg'oniga qaytibdi. Erkenja piyoda bo'lib, g'amga to'lib, sakkiz kecha-kunduz yo'l tortib, devning makoniga yetibdi. Dev uxlab yotgan ekan, uyg'ota olmay, uch kun yotibdi, to'rtinchi kuni dev uyg'onib qarasa, uning yonida Erkenja o'tiribdi. Erkenja devga:

— Ey, dev, meni otamdan tilagan ekansan, nima xizimating bor, qilay? — debdi.

Dev:

— Falon mamlakatda Sovashoh degan podshohning bir qizi bor. Oti Xonoyim. O'shanga os-hiq bo'lib qoldim. Bir kuni kechasi tush ko'rdim. Tushimda bir odam "Podshohning o'g'li Erkenja kelib, shu qizni senga olib beradi", — dedi. Shu-ning uchun seni otangdan tiladim. Ana ot, ana tilla, ana qo'rg'on, qo'y-u qo'rxona, ana mol. Hammasini ola ber. Faqat shu Xonoyimni olib kelib ber, — deb-di. Erkenja devning talabini bajarmoqchi bo'libdi. Devning xazinasini olib, Xonoyim yashagan mam-lakatni axtaribdi. Olti kecha-olti kunduz yo'l tor-tib, yo'lda bir qo'sh haydayotgan dehqonni ko'rib:

— Hormang ota, — debdi. Dehqon:

— Bor bo'ling, — debdi.

Erkenja:

— Nima ekmoqchisiz? — debdi. Dehqon:

— Ey, jo'ra, shu yerni yetti yildan beri hayday-man, hech narsa ko'karmaydi, — debdi.

Erkenja:

— Yerni haydaganda urug' sepib hayday-sizmi? — debdi. Dehqon:

— Urug' sepmay haydayman, shuning uchun ko'karmas ekan-da. Ey, oshna, men bu ishni qo'yay, bir nonga to'ydirsang, senga yo'ldosh bolay, — deb

ho'kizini haydab yuboribdi. Ikkovi uch kecha-uch kunduz yo'l yurib, bir joyda qo'y boqayotgan bir cho'ponni uchratibdi. U qo'yini so'yib, qozonga solib qovurib, yerdan qum olib ustiga sepayotgan ekan.

Bu ahvolni ko'rgan Erkenja:

— Ey, cho'pon, go'shting-ku juda yaxshi, ustiga sepayotganing nima? — debdi.

Cho'pon:

— Sepayotganim tuz, — debdi.

Erkenja:

— Tuz bunday bo'lmaydi, — debdi.

Cho'pon:

— Tuz qanday bo'ladi? — debdi.

Erkenja:

— Oq, yirik-yirik, dumaloq bo'ladi, — debdi.

Cho'pon:

— Ey, oshna, unday bo'lsa bir tuzga to'ydir, senga yo'ldosh bo'lay, — deb mollarini haydab yuboribdi. Uchovi kecha-kunduz piyoda yo'l yuribdi.

Uchovi kelayotsa, bir mushuk kalamushni quvlab kelayotgan ekan, ikkovi ham charchab qolibdi. Erkenja "Shu jonivorni ozod qilay!", deb mushukni uribdi. Kalamush ozod bo'lgandan keyin:

— Ey, Erkenja, tila tilagingni, berayin, — debdi.

Erkenja:

— Sen bir kalamush bo'lsang, sendan nima tilayman, — debdi.

Kalamush:

— Men jami kalamushlarning podshohiman. Bir yildan beri mana shu mushuk tinchlik bermasdi. Meni mushukdan qutqarding. Men senga yordam qilishim kerak. Boshingga biror mushkul ish tushganda kerak bo'larman, — deb junidan ozgina yulib beribdi. Erkenja kalamushning juni ni bir qutichaga solib qo'yibdi. Uchovi yana yo'l yurishibdi. Bir joyga borishsa, g'ing-g'ing deb tovush chiqaveribdi. Borib qarasalar, o'rgimchak uyasiga bir chivin ilinib qolgan ekan. O'rgimchak chivinni olib yeyman desa, o'rgimchak ini yonida turgan chigirtka chivinni o'ldirmay qo'rib turganmish. Jonivor chivin shunday qilib o'rtada halok bo'lay deyotganmish. Erkenja buni ko'rib:

— Ey, jonivor, seni ham ozod qilayin, — deb o'rgimchakni o'ldiribdi. Chivinni avaylab qo'liga olibdi.

Shunda chivin:

— Ey, Erkenja, shu balodan meni ozod qilganing uchun bir yordam qilishim kerak. Tila tilagingni, — debdi.

Erkenja:

— Sen bir kichkina chivin bo'lsang. Men sendan nima tilay, — debdi.

Chivin:

— Mana shu tuzoqqa ilinganimga bir yil bo'ldi.

Men jami chivinlarning podshohiman. Mana, boshingga biror mushkul ish tushgan vaqtda shuni kuydirsang hozir bo'larman, — deb qanotining uchidan gardday⁵ qirqib beribdi. Erkenja uni ham bir qutichaga solibdi. Chigirtka ham ozod bo'libdi. U ham "Tila tilagingni", debdi.

Erkenja:

— O'zing bir kichkina chigirtka bo'lsang, men sendan nima tilay, — debdi.

Chigirtka:

— Men jami chigirtkalarning podshohiman. Shu chivinni o'rgimchakka oldirmay, bir yildan beri qo'rib⁶ turibman. Sen meni ozod qilding. Agar boshingga biror mushkul ish tushsa, mana shu tukimni tutatsang hozir bo'larman, — deb tukidan yulib beribdi. Erkenja uni ham qutichaga solib ketaveribdi.

Uchovi yo'l yurib, bir daryo yoniga kelishibdi. Qarashsa, bir qumursqa daryoni yoqalab o'ta olmay ovora bo'lib yurganmish. Erkenja uni ko'rib, "Jonivor daryodan o'tolmay yuribdi, shuni ham o'tqazib qo'yay", deb qumursqani qo'lga olib daryodan o'tkazib qo'yibdi.

Qumursqa:

— Ey, Erkenja, shu daryodan o'ta olmaganimga yetti yil bo'ldi. Sen meni o'tkazib qo'yding. Men

⁵ Gardday — juda oz, oz miqdorida.

⁶ Qo'rib — himoya qilmoq, saqlamoq, qo'riqlamoq.

qumursqalarning podshohi bo'laman. Boshingga biror mushkul ish tushib qolsa, mana bu tutatqini ol, uni tutatsang hozir bo'laman, — deb sixidan ozgina yulib beribdi. Erkenja uni ham qutiga solib jo'nabdi. Yo'l yurib bir katta to'qayga borishsa, bir narsaning ovozi chiqayotganmish. Erkenja jo'ralariga:

— Sizlar shu yerda turinglar, men bir xabar olib kelay, — deb ovoz kelgan tomonga ketibdi. Borib qarasa, bir yo'lbars, qamishning shiydasi oyog'ining ostidan kirib, betidan chiqib yotganmish. Yo'lbars oyog'ining og'rig'iga chiday olmay, azoblanib yotgan ekan.

Erkenja:

— Ey, jonivor, seni shu azobdan qutqaray, — debdi.

Yo'lbars:

— Qanday qutqarasan? — debdi. Erkenja:

— Oyog'ing tagidan yerni kovlab kiraman, qamishning tagidan qirqib, shiydani sug'urib olaman, — debdi.

Yo'lbars:

— Qanday qilsang ham ol, jon shirin, — debdi. Erkenja yerni kovlab kirib, oyog'i tagidan shiydani sug'urib olibdi. Yo'lbars oyog'ining og'rig'iga chiday olmay, oh uribdi. Shu on to'qaydan uchta yo'lbars bolasi yetib kelibdi.

Yo'lbars Erkenjaga:

— Men jamiki yo'lbarslarning podshohiman. Yetti oy tortgan azobimdan sen meni qutqarding. Tila tilagingni, men beray, — debdi.

Erkenja:


— Menga shu kichkina sherbachchangni ber, — debdi. Yo'lbars kichik bolasini beribdi. Erkenja Yo'lbars bolasini olib ikkita yo'ldoshi bilan jo'nabdi. Uchovi piyoda uch oy yo'l tortib, Turkiston mamlakatiga yetibdi. Shaharga borib, bir kampirdan uning uyida bir kecha yotishga joy so'rabdi. Kampir joy beribdi. Erkenja erta bilan turib qarasa, odamlar bir o'likni ko'tarib ketayotibdi. Uyiga kirib, kampirdan:

— Nimaga shunday qilayapsizlar? — debdi.

Kampir:

— Ey, o'g'lim, buni so'ramang ham, kuymang ham, podshohimizning bir chiroyli qizi bor. Podshoh shart qo'ygan, kim shu shartni bajarsa o'shanga qizini beradi. Uning shartlari shunday, namozshomdan erta azongacha yuz botmon nonni yeyish, yuz botmon tuzni yalash, yuz tulum⁷ qatiqni ichish, uch yuz botmon tariq va bug'doy bilan arpani aralashtirib sepib, bug'doyini bug'doyga, arpasini arpaga, tariqni tariqqa ajratish, yuz

⁷**Tulum** — narsalarni uzun-uzun qilib tilib, kesib ajratilgan har bir bo'lagi.



botmon⁸ keladigan yerdagi yo'ng'ichqani yeyish, bir choshkalik⁹ yerdan lahim qazib qo'rg'onga kirish yo'lini to'sib yotgan yakchashmani¹⁰ o'ldirish. Mana, o'g'lim, podshohning shu shartlarini bajarish qiyin.

Erkenja:

— Momo, shu shartlarni biz bajaramiz, podshohga xabar bering, — debdi. Kampir podshohga borib xabar beribdi. Podshoh bu shartlarni bajarish uchun oqshomdan azongacha muhlat beribdi.

Momo kelib:

— Ey, o'g'lim, g'ayrat qil, hamma narsa tayyor, — debdi. Erkenja yo'ldoshlari bilan ketmon olib borib lahim kovlay boshlabdi. Ancha vaqtgacha kovlab qarasalar, ozgina yerni kovlashibdi. Shu vaqt kalamush esiga kelib, qutichadan kalamushning junini olib tutatibdi. Shu zahoti yer tegidagi kalamushlarning hammasi yig'ilib kelibdi.

Erkenja:

— Ey, kalamushlar, azongacha shu yerdan podshohning qo'rg'onigacha lahim qazinglar, — debdi. Chivinning qanotini tutatibdi. Shu zamon

⁸**Botmon** — taxm, bir gektaga teng o'lchov birligi.

⁹**Choshkalik** — yer o'lchov birligi.

¹⁰**Yakchashmani** — (qad. hind.) yovvoyi maxluq.

jami yerning chivini yig'ilib kelibdi. Erkenja ularga "Yuz tulum qatiq sizniki, azongacha shuni ichib tamom qilasizlar", debdi. Yana qutichadan chigirtkaning sixini olib kuydiribdi. Jami chigirtkalar yig'ilib kelibdi. Erkenja: "Yuz botmon yerdagi yo'ng'ichqani¹¹ azongacha yeb tamom qilinglar!", debdi. Yana bir qutichadan qumursqaning sixini olib tutatibdi. Jamiki yer yuzidagi qumursqalar yig'ilib kelibdi. Erkenja ularga ham "Yuz botmon tariq, yuz botmon arpa, yuz botmon bug'doyning hammasi qo'shilgan. Erta azongacha bug'doyini bug'doyga, tarig'ini tariqqa, arpasini arpaga ajratasizlar!", debdi.

Erkenja bir yo'ldoshiga:

— Meni bir nonga to'ydir, degan edingiz, mana shu yuz botmon non sizniki, azongacha yeb tamom qiling! — debdi. Cho'ponga: "Sen tuzga to'ydir, degan eding. Mana shu yuz botmon tuz seniki. Azongacha yeb tamom qilasan", debdi. Sherni chaqirib: "Ey, jonivor, sen azongacha yakchashmaning ilojini qilasan. Devning ilojini esa men qilaman", debdi. Erta tong otibdi, kalamushlar lahim kovlabdi, chivinlar yuz botmon qatiqni ichibdi, chigirtkalar bedani yebdi. Qumursqalar uch yuz botmon, chumolilar yuz

¹¹ **Yo'ng'ichqani** – dukkakli o'simliklar oilasiga kiradigan, yem-xashak bo'ladigan o'tsimon o'simlik (beda).

botmon bug‘doy, arpa va tariqni ajratibdi. Dehqon yuz botmon nonni yebdi, cho‘pon yuz botmon tuzni yalabdi. Sher yakchashmaning ilojini qilibdi. Erkenja ularning hammasiga javob berib yuboribdi. Erta tong otibdi. Turkiston shahri-ning xalqi qarasa, podshohning hamma sharti bajarilibdi. Xonoyim ham bu shartlarning bajarilganligini ko‘rib, "Shu yigitni bir ko‘ray" deb, momoning oldiga kelibdi.

Momo:

— Ey, qizim, shu ishlarni bajargan yigit mana shu, — deb Erkenjani ko‘rsatibdi.

Xonoyim:

— Ey, Erkenja, dev seni tushida ko‘rib, otangdan so‘rab olgan. Shartlarimni bajarib, meni devga olib ketasan. Dev ham murodiga yetdi, men ham murodimga yetdim, sen ham murodingga yet. Men devniki. Mana bu otamning mamlakati seniki bo‘lsin, — debdi.

Erkenja shu mamlakatga dehqonni podshoh, cho‘ponni bek qilibdi. Sherbachchaga "Ey, jonivor, onangning oldiga bor!" deb, javob berib yuboribdi.

Xonoyim bir tilsim duosini o‘qishi bilan bir sandiq tayyor bo‘libdi. Xonoyim Erkenjani sandiqqa solib, sandiqni qo‘ltig‘iga olib parvoz qilib,

devning makoniga boribdi. Xonoyim Erkenjani sandiqdan chiqarib olibdi. Devga qarab:

— Ey, dev, — debdi. Dev Xonoyimning tovu-shini eshitishi bilan xursand bo‘libdi. Dev Erkenjaga ko‘p mol-u dunyo berib jo‘natibdi.

Erkenja necha kunlar yo‘l tortib, yetti yil to‘lganda otasining qo‘rg‘oniga boribdi. Erkenja ota-onasi va qallig‘i bilan so‘rashibdi, qaytadan to‘y-tomoshalar qilib, murod-maqsadiga yetibdi.



SUNBUL BILAN GUL

Qadim zamonda bir boy bor ekan. U xotini bilan juda ham ahil hayot kechirar ekan. Boyning ikki o'g'li bor ekan. Kattasining ismi — Sunbul, kichigining ismi — Gul ekan. Bolalar maktabga borib, yaxshi o'qishibdi.

Kunlarning birida Sunbul bilan Gulning onasi o'libdi. Ikkisi yetim qolibdi.

Boy uylanmoqchi bo'lib, bir boyning qiziga sovg'i yuboribdi. Boy ham ma'qul ko'rib, to'y-tomosh qilib, qizini boyga beribdi. O'gay ona Sunbul bilan gulni tarbiya qilibdi. Bolalar katta bo'libdi. O'gay ona Gulning aqli, chiroyli bo'lgani. Bir kuni u Gulni yoniga chaqirib, un aytibdi. Gul:

— Oyi, men sizning o'g'lingiz bo'laman-ku, menga shunday gaplarni aytishga uyalmaysizmi? Men bunday gaplarga quloq soladigan bola emasman, — debdi va xafa bo'lib uydan chiqib ketibdi. Xotin eri kelganida yig'lab:

— Kecha o'g'lingiz Gul mening yonimga kirib, seni qoldim, deb menga kuchini ishlatmoqchi

bo'ldi, — debdi. Boy g'azablanib, qamchi olib, Gulning maktabdan kelishini poylabdi. Sunbul bilan Gul bir-birini ko'rmasa turolmas ekan, hamma vaqt birga yurar ekan. O'sha kuni Sunbul maktabda bir o'rtog'i bilan qolibdi. Gulning yolg'iz o'z uyga qaytibdi. Gul kelib uyga kirgan zahoti otasi uni tutib olib, hech narsa so'ramay qamchi bilan ura boshlabdi, bosh-ko'zlarini yorilib, uyidan haydab chiqaribdi.

Bu voqeadan biroz vaqt o'tgandan keyin Sunbul uyga kelsa, Gul yo'q emish. U onasidan:

— Gul qayoqda? — deb so'rabdi.

— Men bilmayman, dadang ichkarida o'tiribdi, undan so'ra! — deb javob beribdi o'gay onasi. Sunbul ichkariga kirib:

— Dada, Gul qayoqqa ketdi? — deb so'rabdi.

— Onangga birmuncha yomon gaplarni aytibdi. Men uni urib, uydan haydab yubordim, — debdi. Sunbulning uyda bo'lib o'tgan voqeadan xabari bor ekan.

— Ey, ota, bekor qilibsiz. Uni sababsiz haydabsiz. Endi Gul bo'lmagandan keyin men ham bu yerda turmayman. Men ukamdan o'lib ayrilmasam, tirik ayrilmayman, — debdi. Hech narsaga qaramay, uydan chiqib, ukasini qidirib ketibdi. Shaharda ko'chama-ko'cha ukasini qidirib, ikki kun yuribdi. Shaharning bir chetiga borsa, Gul

charchab, ochlikdan holsizlanib, uxlab qolgan ekan. Sunbul ukasini uyg'otib ko'rishibdi, ikkisi yig'lashibdi. Gul:

— O'zimizning onamiz bo'lsa, biz bunday kunlarga qolmas edik, bizni otamizga aytib, uydan haydatmas edi, — debdi. Birozdan keyin Sunbul Gulga:

— Sen shu yerda dam olib tur, men biroz non topib kelay, — debdi. Ukasini yotqizib, o'zi bir qishloqqa ketibdi. Gul yana yotib uxlab qolibdi. Bir vaqt osmonda uchib yurgan bir katta oqqush Gulning boshiga kelib qo'nibdi. Gulning nafasini o'ziga tortib olib, uchib ketibdi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan keyin Sunbul non topib kelibdi. Qarasa, Gul o'lib yotgan emish. Sunbul xafa bo'libdi, yig'labdi, bir qancha vaqt ukasining boshida o'tiribdi. O'ylab-o'ylab, bir qancha tosh yig'ib, ukasining atrofini o'rabdi. Uning yoniga hech qanday jonivor o'tolmaydigan qilibdi.

— Xayr, ukam, ikkimiz onadan, otadan ajralgan edik. Endi men sendan ham ajraldim, — deb yig'lab-yig'lab yo'lga ravona bo'libdi. Bir necha kun yo'l yurib bir shaharga yetibdi. Qarasa, bir katta maydonga xalq yig'ilgan emish, u yerda bir qushni uchirishga tayyorgarlik ko'rib to'y-tomosh qilayotgan emishlar. Sunbul hayron bo'libdi, keyin bilsa, qush — davlat qushi ekan. Uni pod-

shoh saylash uchun uchirayotgan ekanlar. Sunbul bir daraxtning yoniga borib, unga suyanib turibdi, davlat qushini uchirishibdi. Qush uchib-uchib, aylanib yurib Sunbulning boshiga qo'nibdi. Xalq yopirilib kelibdi, qarasa, davlat qushi Sunbulning boshiga qo'ngan ekan.

Yurtning kattalari:

— Bu bizning odamimiz emas, bu bir musofirga o'xshaydi, qushimiz yanglishdi, — debdilar va qushni qaytadan uchiribdilar. Qush aylanib-aylanib, uchib yurib yana Sunbulning boshiga qo'nibdi. Odamlar kelib qarasa, qush yana Sunbulning boshiga qo'ngan emish. Qushni olibdilar. Bu safar Sunbulni shahar chetidagi bir uyga olib borib, qamab qo'yishibdi. Qaytib kelib qushni yana uchirishibdi. Qush osmonda uchib yurib Sunbulni topolmay, shaharning chetiga uchib boribdi, Sunbul yotgan uyning ustiga qo'nibdi. Odamlar qushning orqasidan yugurib borib qarasalar, qush yana Sunbulning boshiga qo'nibdi. Odamlar hayron bo'libdilar.

Ulardan biri:

— Qush uch marta uchdi, har uchishida shu bolaning boshiga qo'ndi. Qoida bo'yicha shu bola podshoh bo'lishi kerak, — debdi.

Xalq bu so'zni ma'qul topibdi. Sunbulni podshoh qilib ko'tarishibdi. Sunbul podshoh bolib turaversin, endi gapni boshqa tomondan eshiting:

Sunbul podshoh bo'lgan shaharda bir ovchi bor ekan. U o'zimni yangi podshohga bir tanitib qo'yay, deb ovga chiqibdi. Yurib-yurib bir shahar yoniga kelib qolibdi, qarasa bir tosh ustida katta oqqush qo'nib turgan emish. Qushni poylab otibdi. Qush yumalab tushibdi. Ovchi borib, qushni olmoqchi bo'lganida tosh orasidan bir bola chiqibdi. Qush yiqilgan zahotiyoq uning so'nggi nafasi Gulga kirgan ekan, Gul tirilib o'rnidan turibdi. Ovchi tirilgan boladan:

— Sen kimning bolasisan, bu yerda nima qilib yotgan eding? — deb so'rabdi. Gul:

— Biz aka-uka yetim edik. Akam Sunbul meni bu joyga qo'yib, o'zi non topib kelish uchun ketgan edi. Men akamni kutib uxlab qolibman, shu vaqtgacha kelgani yo'q, endi kelib qolar, — debdi. Ovchi Gulga tikilib, o'z yurtining podshohi Sunbulga o'xshatibdi. Sunbulning ukasi bo'lsa kerak, deb o'ylabdi. Unga Sunbulning podshoh bo'lganini aytmasdan:

— Men seni Sunbul akang yoniga olib borib qo'yaman, yur, — debdi. Bolani otga mindirib, qushni olib, shaharga jo'nabdi. Kechqurun shaharga yetib kelishibdi. Ovchi bolani uyga keltirib, bet-qo'llarini yuvib, yaxshi ovqatlar bilan mehmon qilibdi. Qorong'i tushgach, ovchi:

— O'g'lim, bugun shu yerda yot, kech kirib qoldi. Ertaga men seni Sunbul yoniga olib boraman, — debdi. Gul rozi bo'libdi. Ovchi mehmonxonaga joy solib Gulni yotqizibdi. O'zi boshqa xonaga kirib

yotib uxlabdi. Gul, uyqusi kelmay, o'ylab yotibdi, sekin eshikni ochib, ko'chaga chiqibdi. "Ko'chani bir tomosha qilay", deb aylanib yurganda bir mirshab Gulni ko'rib: Bu kechasi yurgan o'g'ri bola bo'lsa kerak, deb tutib olibdi, olib borib zindonga tashlabdi. Yarim kecha bo'lganda ovchi uyg'onib, Gul uxladimikan, deb mehmonxonaga kirib qarabdi, qarasa, Gul joyida yo'q emish. Hovliga chiqsa darvoza ochiq emish. Ko'chaga chiqib ancha joygacha boribdi, bir mirshabni ko'ribdi, ovchi undan:

— Siz bir yoshli bolani ko'rmadingizmi? — deb so'rabdi.

— Men ko'chada kezib yurganimda bir bolani ko'rdim. Uni kechasi yurgan o'g'ri bola bo'lsa kerak, deb qamab qo'ydim, — debdi. Ovchi:

— Yomon qibsan, u bola podshohimizning ukasi edi. Podshoh sening bu ishingdan xabar topsa, ikkovimizni ham jazolamay qo'ymaydi, — debdi. Mirshab qo'rqqanidan ovchiga aytibdi:

— Bo'lmasa, endi bu bolani yo'qotish kerak, namatga o'rab xumdonning go'lohiga tashlaymiz, unda kuyib o'ladi. Biz jazodan qutulamiz, — debdi. Ovchi:

— Darhaqiqat, shunday qilaylik, bo'lmasa har ikkimizga ham yomon bo'ladi, — debdi. Mirshab yugurib borib bolani zindondan, olib chiqibdi. Ovchi bir oq namat keltiribdi. Gulni namatga o'rab xumdonning go'lohiga tashlab ketishibdi. Ertasiga

tongda bir xotin xumdondan olov olmoqchi bo'lib, go'lohnini kavlasa bir namatning cheti ko'rinibdi. "Bu nima ekan", deb tortib, ichini ochib qarasa, bir chiroyli bola yotgan emish. Bolaning endigina oyog'i kuygan ekan. Xotinning rahmi kelib, xumdonga tashlagan odamlarni qarg'ab, bolani uyiga olib borib, uch oy parvarish qilibdi. Gul tuzalib o'rnidan turibdi.

Xotin ip yigirar ekan, kunlarning birida yigirgan ipini sotib kelish uchun o'z o'g'li bilan Gulni bozorga yuboribdi. Bolalar bozorda yurganda ovchi Gulni ko'rib, tanib qolibdi. Hovliqib mirshabning yoniga boribdi:

— Go'lohgagi bola o'lmagan ekan. Bozorda ip sotib o'tiribdi, — debdi. Mirshab kelib qarasa, bola haqiqatan o'tirgan ekan.

Mirshab darhol bir xotinni chaqirib, qo'liga birmuncha pul beribdi.

— Anavi sotib o'tirgan bolaning yoniga borib: "Iping nechapul", deb so'ragan bo'ling, birdaniga "voydod" deb baqiring. Men yugurib borib "Nima bo'ldi", deyman. Siz: "Bu bola meni haqorat qildi", deng, — debdi. Xotin pul uchun hech narsadan qaytmaydigan beburd xotin ekan. U "Xo'p" deb borib bolaning ipini sotib turib, birdaniga "voydod", deb yuboribdi. Mirshab yugurib borib:

— Nima bo'ldi? — debdi. Xotin:

— Mana bu bola meni haqorat qildi. — debdi. Mirshab darhol bo‘lani sudrab olib borib yana zindonga solibdi. Oradan besh-olti kun o‘tibdi. Shaharda bir atoqli Sobirboy degan savdogar bor ekan.

Mirshab Sobirboyning savdoga jo‘namoqchi bo‘lganini eshitib, uning yoniga kelibdi:

— Sizni savdoga boradi, deb eshitdim, zindonda bir yomon o‘g‘ri muttaham bola bor. Shu bolani sizga arzon bahoga sotaman, uni ham olib keting-da, yo‘lingizdagi ajdahoga tashlang. Ilgari ajdahoga sigir yoki ot tashlab ketgan bo‘lsangiz, bu safar shu bolani tashlab ketasiz. Shu yomon boladan hamma qutuladi. Bu bola necha marta zindonga tushgan bo‘lsa ham o‘g‘riligini tashlamadi, — debdi.

Sobirboy:

— Ha, juda yaxshi, — debdi. Gulni arzon bahoga sotib olibdi. Shu kuni kechasi boy Gulni tuyaga o‘tqazib, bir necha savdogar karvonlari bilan jo‘nabdi. Yo‘lda Gul otlarni boqib, sug‘orib, choylarni qaynatib, tinmay xizmat qilibdi. Uning ishi boyga yoqib qolibdi. Sobirboy ajdaho yotgan joyga kelganda bir tuyani so‘yib, go‘shtini unga tashlab o‘tib ketibdi. Uzoq shaharga borib, qirq tuyadagi mollarini sotib, ko‘p foyda qilibdi. Bir kun Sobirboy Gulning qo‘liga pul berib:

— Bugun shaharni tomosha qilib kel. Ertaga kechasi o‘z yurtimizga jo‘naymiz, — debdi. Gul

pulni olib, suyunib chiqib ketibdi. Shaharni aylanib yurib bir anhor bo'yiga kelibdi. Shu anhorda cho'milmoqchi bo'libdi. Qarasa, anhorning yonida juda katta, chiroyli bir imorat bor emish. Anhorning suvi tiniq, muzdek ekan. Gulning cho'milgisi kelibdi. Kiyimlarini yechib, cho'milibdi. Suvdan chiqib kiyimlarini kiyib tursa, bir qizil olma suvga tushibdi. Gul suvdan olmani olib chiqsa, yana bir olma tushibdi. Uni ham olib chiqsa, yana bittasi tushibdi. Gul bu olmani ham olib hayron bo'lib, kiyimlarini kiyib baland imoratning yuqori qavatlariga qarasa, derazadan bir chiroyli qiz qarab turgan emish. Qiz Gulni "Beri keling", deb imlabdi. Gul qiz turgan tomonga qarab yuribdi. Katta imoratning yoniga borishi bilanoq qiz ichkaridan chiqibdi. Qiz yigitni ko'rishi bilanoq qizarib, yerga qarabdi:

— Qayerdan bo'lasiz, bu yerda nima qilib yuribsiz? — deb so'rabdi. Yig'it musofir ekanini, bir boyning xizmatkori bo'lib, bu yerlarga kelib qolganini aytib beribdi. Qiz Gulga:

— Siz menga yoqib qoldingiz, olmani men tashlagan edim. — debdi.

— Sizdek boyning qizi mendek musofir, kambag'al yigitga tegarmidi, qani endi sizga yetishsam, — debdi.

— Siz otamga sovchi yuboring. Otam sizdan faqat yetti xum tilla so'raydi, xolos, — debdi qiz.

Gul:

— Sizga aytdim-ku, kambag'alman deb, menda yetti xum tilla u yoqda tursin, yetti dona chaqa ham yo'q, — debdi. Qiz:

— Agar siz sevib, ko'ngil bersangiz sovchi yubora bering, hammasini o'zim to'g'rilayman, — debdi.

— So'zingizda tursangiz mayli, sovchi yuboraman, — debdi. Gul.

— Bo'lmasa va'damiz va'da! Siz otamga sovchi yuboring, mana bu kalitni oling! Otam yetti xum tilla so'rasa. Falon yerda bir hovli bor. Hovliga kirsangiz bir uy bor. Uyning eshigini oching. Shu uyda mening yetti xum tillam bor, shuni olib otamga yuboring, — debdi qiz. Gul kalitni olib, boyning yoniga qaytibdi.

— Shaharni yaxshi tomosha qildingmi? — deb so'rabdi boy.

— Juda yaxshi tomosha qildim. Bir qizni yaxshi ko'rib qoldim, sizga malol kelmasa o'shanga sovchi bo'lib borsangiz, — debdi. Sobirboy:

— Iye, esingni yedingmi, hech narsang bo'lmasa, qanday qilib uylanasan? — debdi boy. Gul:

— Boy bobo, tashvish tortmang, bir ilojini qilarman, sizni uyaltirmayman, — debdi. Boy:

— Ha, uyaltirmasang borib ko'ray, — deb qizning uyiga bir kishi bilan sovchi bo'lib boribdi. Qizning otasi:

— Qizimni beraman, lekin yetti xum tilla qalin bersangiz, — debdi. Sobirboy yetti xum tillaning daragini eshitib, qoʻrqib oʻrnidan turibdi:


— Xoʻp, oʻgʻlim bilan gapilashib koʻrayin, — deb xayrlashibdi. Karvon saroyga hovliqqanicha yetib kelibdi. Gul uni koʻrishi bilanoq:

— Boy aka, qizning otasi nima dedi? — deb soʻrabdi. Sobirboy zarda bilan:

— Nima der edi. Yetti xum tilla keltirsangiz, qizimni beraman, boʻlmasa ovora boʻlmang, dedi. Hayron boʻlib qoldim. Men butun mol-mulkimni sotsam ham yetti xum tillaga ega boʻla olmayman, — debdi. Gul:

— Siz xafa boʻlmang, boy bobo! Qizning otasiga yetti xum tilla topib beramiz, — debdi-da, qizning gaplarini aytibdi. Ikkovi birgalashib qiz aytgan uyga boribdi, yetti xum tillani olib qizning otasiga berishibdi.

Boy toʻy-tomosha qilib qizni Gulga beribdi. Qiz har kuni ertalab choy qoʻyib, dasturxon tayyorlar ekan. Sobirboy Gul bilan qizning xizmatidan xursand ekan. Bir kuni Gul bilan qiz uxlab qolib, vaqtida choy qaynatmabdi. Boy ularni uygʻotish uchun Gul bilan qiz yotgan uyga kiribdi. Qizning chiroyliligini koʻrib, unga oshiq boʻlib qolibdi. Fikri buzilib: “Shunday chiroyli qiz mening malayimga teng emas. Bu qiz menga munosib ekan,



qanday bo'lmasin Gulni yo'qotib, qizni o'zim olishim kerak", deb o'ylabdi. Ularni uyg'otib, o'zi turgan uyga kelibdi. Gul o'rnidan turib, tashqariga chiqibdi, chiqib otlarni sug'oribdi, qiz choy qaynatibdi. O'tirishib choy ichishibdi. Sobirboy choyni ichib bo'lib:

— Endi sizlar hamma narsani joylanglar. Men hozir bir aylanib kelaman, ertaga ertalab yo'lga chiqamiz, — debdi.

Gul bilan qiz bor narsalarini yig'ishtirishibdi. Sobirboy bir sandiqchining do'koniga borib, unga:

— Menga bir mustahkam sandiq yasab, kechasi karvon saroyiga olib boring. Men sizni kutib o'tiraman, — debdi va saroyiga jo'nabdi.

Kechasi hamma uxlagandan keyin boy sandiqchini kutib o'tiribdi. Yarim kechada sandiqchi sandiqni olib kelibdi. Boy pul berib sandiqchini jo'natibdi, sandiqni Gul ko'rmaydigan bir joyga yashiribdi. Ertasiga tongda boy, Gul va qiz yo'lga chiqishibdi. Ikki kun yo'l bosib, bir joyda dam olish uchun to'xtashibdi. Gul bilan qiz uxlab qolibdi. Sobirboy Gulning oyoq-qo'llarini bog'lab, sandiqqa solib, daryoga tashlab oqizib yuboribdi, qizni esa o'zi bilan olib ketibdi.

Gul daryoda oqib-oqib Sunbul podshoh bo'lib yashayotgan shaharga kelib qolibdi. Daryo ikkiga bo'linib, bir qismi Sunbul podshohning bog'idan

o'tar ekan. Sandiq bog'ga oqib kirib bir joyda to'xtabdi. Tongda bog'bon suv olish uchun daryo bo'yiga kelgan ekan, ko'zi sandiqqa tushibdi. Darhol sandiqni suvdan sudrab chiqaribdi. Sandiqni ochib qarasa, bir chiroyli yigit holdan ketib, hushsiz bo'lib yotgan emish. Bog'bonning yigitga rahmi kelib, uni uyiga olib kirib dori-darmon bilan parvarish qilibdi. Bog'bonning hech farzandi yo'q ekan. Gulni xuddi o'z farzandidek juda yaxshi ko'rib qolibdi. Oradan o'n kun o'tgandan keyin u sog'ayibdi. Bir kun bog'dagi gullardan terib, bir guldasta bog'lab, bog'bonga beribdi:

— Mana shu gulni podshohingizga olib boring. Podshoh “Gulni kim bog'ladi”, deb so'rasa, o'zim, deb ayting, — debdi.

Bog'bon gulni Sunbul podshohga olib boribdi. Sunbul gulni olib, u yoq-bu yog'ini ko'rib, hidlab:

— Bu gulni kim bog'ladi? — deb so'rabdi. Bog'bon:

— O'zim bog'ladim, — debdi. Sunbul:

— Rahmat! — deb gulni olib qolibdi. Bog'bon bog'ga qaytibdi. Sunbul Gulni ko'rib, ukasi Gul esiga tushib juda xafa bo'libdi. Ukam xuddi shunday gul bog'lar edi. Bu Gulni ukam bog'lamadimikin, deb o'ylabdi. Yana “Yo'q, men ukamni o'zim toshlar orasiga ko'mib kelgan edim-ku”, deb o'ksinib yig'labdi.

Kunlarning birida Gul ko'chaga chiqib aylanib yursa, odamlar u yoq-bu yoqqa ot chopishib, tomosha qilib yurishgan emish. Gul uyga kirib bog'bondan so'rabdi:

— Bobo, nima uchun odamlar ot chopib, tomosha qilib yuribdilar? — debdi. Bog'bon:

— E, bolam, shahrimizda Sobirboy degan katta savdogar bor. U savdogar borib bir qizni olib kelgan ekan. Shu qizni olmoqchi ekan.

Qiz "Meni oladigan bo'lsangiz qirq kun to'y-tomosha qilib bering. Shunda bu taklifingizga ko'naman", degan ekan. Boy to'y-tomosha qilayotgan ekan.

Bugun shu to'yning boshlanganiga o'ttiz sakkiz kun bo'ldi, — debdi. Gul xotinining Sobirboyga tegmoqchi bo'lganini eshitib juda qayg'uribdi.

Kechasi o'ylab, uxlamabdi. Tong otibdi. Gul bog'dagi eng ajoyib xushbo'y gullardan bir dasta yasabdi. Nonushta vaqtida bog'bonga aytibdi:

— Ota, men sizga bir ish aytsam, qilasizmi? — debdi.

— Qani ayt, bolam, bajaraman, — debdi chol.

— Siz qalandar kiyimini kiyib, eshakka mining, qo'yningizga mana bu guldastani solib boyning uyiga boring. Qiz yoningizga chiqsa, qo'yningizdagi gulni hech kimga ko'rsatmay qizga bering. "Gul o'zi bormi", deb so'rasa, "Bor", deb ayting, — debdi.

Bogʻbon qalandar kiyimini kiyib, eshakka minib, Gul yasab bergan Guldastani olib, qoʻyniga solib, Sobirboyning eshigiga gadoy suratida boribdi.

— Haq, Oллоh, — debdi. Qiz uydan yugurib non koʻtarib chiqibdi. Bogʻbonga nonni uzatganida bogʻbon qoʻynidan Gulni chiqarib

qizga beribdi. Qiz Guldastani koʻrib tanibdi.

— Gul oʻzi bormi? — deb soʻrabdi. Bogʻbon:

— Bor, sogʻ-salomat yuribdi, — debdi. Qiz suyunib:

— Unday boʻlsa, bugun Gulni olib keling, — debdi. Bogʻbon uyiga qaytib qizning soʻzlarini Gulga aytibdi. Shu kunning oʻzida Gul ham qalandar kiyimini kiyib bogʻbon bilan birga Sobirboyning eshigiga borishibdi. Qiz suyunib. Ularni uyiga olib kiribdi, Gul bilan qiz bir-biri bilan koʻrishib, yigʻlashibdi.

— Men boyga qirq kun toʻy qilsangiz tegaman, dedim. Qirq kun ichida sizdan xabar toparman, deb oʻyladim. Endi koʻrishdik. Ertaga qirq kun toʻladi. Kechqurun nikoh oʻqitadi. Endi menga maslahat bering, nima qilay, nima qilsam boydan qutulib, yana ikkimiz birga boʻlamiz, — debdi qiz.

Gul oʻylab-oʻylab turib:

— Ertaga qirq kun ham toʻlsin, nikoh qilish oldidan odamlarga ayting: “Boy akam qirq kun toʻy qildi. Endi yana bir shartim bor: shuni bajarsa te-

gaman, shartim shundan iboratki, Sunbul bilan Gul hikoyasini aytib bersin. Agar o'zi aytib bera olmasa, uni biladigan biror kishini topsin". Buni hech kim bilmaydi, o'zim aytaman, — debdi.

Qiz:

— Xo'p, aytaman, — debdi. Ular xayrlashib, bog'bon bilan Gul uylariga jo'nabdi. To'y-tomoshaga qirq kun to'libdi. Nikoh qilish oldidan qiz chiqib, xalqqa qarab, Gul o'rgatgan gaplarni aytibdi. Sobirboy bu hikoyani bilmaganidan xafa bo'lib, qizning gaplarini Sunbul shohga borib aytibdi. Podshoh hayron bo'lib:

— Mayli, ertaga shaharga butun xalqni yig'ib so'raylik: oradan biror kishi chiqib, aytib berar, — debdi. Qirq birinchi kuni Sunbul shoh butun xalqni yig'ib:

— "Sunbul bilan Gul" hikoyasini kim biladi? — deb so'rabdi. Ular orasida bu hikoyani biladigan hech kim yo'q ekan. Podshoh:

— Bu yerga kelmagan hech odam qoldimi? — debdi. Bir odam chiqib:

— Podshohim, sizning bog'boningiz bilan uning uyida turadigan bir tozi bola qoldi, — debdi.

Sunbul darhol odam yuborib ularni keltiribdi. Gul esa kiyim kiyib tozi qiyofasida kelgani uchun uni Sunbul tanimabdi. Gul Sunbulni tanibdi. Sunbul Guldan:

— “Sunbul bilan Gul” hikoyasini bilasanmi? — deb so‘rabdi. Gul:

— Bilaman, — debdi.

Gul o‘zining boshidan o‘tganlarni birma-bir hikoya qilib beribdi. Birinchi marta tosh orasidan chiqarib, bu shaharga olib kelgan ovchini o‘z yoniga chaqiribdi. Ovchi Gul yoniga kelib o‘tiribdi. Gul hikoyasini davom ettirib, mirshabni chaqiribdi. Mirshab ham Gul yoniga kelib o‘tiribdi. Yana hikoyasini davom ettiribdi, so‘ngra Sobirboyni chaqirib, yoniga o‘tqazibdi. Ovchi, mirshab, Sobirboy qo‘rqanlaridan dag‘-dag‘ titrab o‘tiribdilar.

Gul hikoyasini davom ettirib, tamom qilish oldida xumdondan o‘zini qutultirib, parvarish qilgan xotinni, suvdan, sandiqdan olib tarbiya qilgan bog‘bonni yoniga chaqirib olibdi.

— Endi hikoyam tamom. Menga yaxshilik qilganlar mana shu xotin bilan bog‘bon, yomonlik qilganlar ovchi, mirshab ikkovi, — deb ko‘rsatibdi.

— Mening xotimni olmoqchi bo‘lib, meni suvga oqizgan, qirq kun to‘y-tomosha qilgan savdogar Sobirbov mana shu, — deb uni yana ko‘rsatibdi.

— Men tozi, qalandar bola emasman. Men mana shu Gul degan bolaning o‘ziman. Men Sunbul deb



atagan akani — siz, podshohim, — deb kiyimlarini yechib, boshidagi yasama tozini olib tashlabdi. Sunbul ukasi bilan quchoqlashib koʻrishibdi!. Darhol ovchi, mirshab va Sobirboyni dorga ostiribdi. Bogʻbon bilan xumdondan qutqarib olgan xotinga rahmat aytib, ularga tillalar beribdi; ularni yaxshi imoratlarga oʻtqazib, izzat-hurmat qilibdi. Xotin bilan bogʻbon Sunbul bilan Gulga ona va ota boʻlibdi. Gul Sunbulga vazir boʻlibdi. Qirq kecha, qirq kunduz toʻy-tomosha boʻlibdi, aka-uka murod-maqсадlariga yetibdilar.

HASAN BILAN HURILIQO

Burun zamonda, Sharq mamlakatlarining birida Ahmadjon degan savdogar bor ekan. Uning Hasan degan o'g'li va Huriliqo degan qizi bor ekan.

Oylar, yillar o'tibdi. Ota-onasi o'lib, Hasan bilan Huriliqo yetim qolibdi. Hasan bir boyning eshigida xizmat qilib yuribdi. Bir qancha vaqt o'tgach, Hasanning xizmati boyga yoqibdi. Boy o'zining Zulayho nomli qizini unga beribdi. Zulayho Hasanning singlisi Huriliqo bilan bir hovlida tura boshlabdi. Hasan boyning xizmatini bajarib yura beribdi.

Zulayho Huriliqoni juda yomon ko'rib qolibdi. Qanday bo'lmasin uni ko'z oldidan yo'qotish payiga tushibdi. Bir kuni Hasan ishga ketganda uydagi butun asboblarni hovliga olib chiqib, ustidan yog' quyib o't yoqibdi. Hasan ishdan kelganda Zulayho yig'lab-yig'lab:

— Singlingiz menga o'chakishib, men bilan urishib, hamma narsaga o't qo'ydi. Mening taloq

xatimni bering, men bu uyda bunday ahvolda tur olmayman, — debdi. Hasanning achchig'i kelib, Huriliqoni urib, qiynabdi. Huriliqo yolvorib:

— Jon aka, meni begunoh urmang. Men bu ishlarni qilganim yo'q. Kelinoyimning o'zi qilgan, — debdi. Hasan Huriliqoning so'ziga quloq solmabdi.

Oradan bir yil o'tgach Zulayho bir o'g'il tug'ibdi. Zulayho bolaga qaramabdi, uni Huriliqo parvarish qilibdi. O'g'il olti yoshga to'lganda juda ham shirin bo'libdi.

Hasan o'g'lini juda ham yaxshi ko'rar ekan. Kunlardan bir kun Hasan bilan boy ovga chiqib ketishibdi. Zulayhoning fikri buzilib, kechasi Huriliqo uxlab yotgan vaqtda o'z bolasini o'ldirib pichoqni Huriliqoning ko'rparasiga tiqib qo'yibdi. Yarim kechada Hasan ovdan kelibdi. Zulayho o'rnidan turib Hasanni quchoqlab yig'labdi. Hasan:

— Nimaga yig'laysan? — deb so'rabdi. Ungacha Huriliqo ham uyg'onib o'rnidan turibdi. Zulayho bolasini qo'lga olib:

— Ko'rdingizmi, kechasi men uxlab qolgan vaqtimda Huriliqo bolamni o'ldiribdi, — debdi. Hasan juda xafa bo'lib, Huriliqoga:

— Nimaga o'ldirding, bola senga nima gunoh qildi — deb so'rabdi

Huriliqo:

— Akajon, nima uchun meni bekordan bekor so'kasiz. Men nimaga ukamni o'ldiraman. Bunday vijdotsizlik mening qo'limdan kelmaydi. Bu menga tuhmat, — deb yig'labdi.

Zulayho Huriliqoning ko'rpasini ochib, undan o'zi qo'ygan pichoqni olib:

— Yolg'on bo'lsa bu nima? Pichoqni ko'rpangiz orasiga yashirib qo'yibsiz-ku, — debdi.

Huriliqo ko'ngli buzilib:

— Voy tavba-ye, kishi shunday tuhmatlarga uchrar ekan. Tuhmat qilganingizdan ko'ra, meni o'ldirtirib yuborsangiz ming marta yaxshi bo'lar edi, — debdi.

Hasan jahl ustida:

— Sen mening bittagina bolamni o'ldirding, bunday singilning keragi yo'q, — debdi, g'azabiga chidolmay shartta singlisining ikki qo'lini kesib, uyidan haydab chiqaribdi.

Bechora Huriliqo uydan chiqib, necha kunlar yo'l yurib, och-nahor qiynalib, bir podshohning bog'iga yetib kelibdi. Bog' yonida qovun-tarvuz pishib yotgan ekan. Huriliqo kunduzlari bog'da yashirinib uxlarkan, kechalari esa turib polizdagi qovunlarni yeyarkan.

Bir kuni Sultonxon podshoh o'g'illariga:

— O'g'illarim, qovun-tarvuzlarimizni bir narsa g'ajib ketayotibdi. Polizni bir poylash kerak, —

debdi. Shunda podshohning katta o'g'li qo'liga yarog' olib:

— Men borib poylayman, — debdi. Yarim kechagacha poylab o'tiribdi, hech narsa ko'rinmabdi. Keyin uxlab qolibdi. Ertasiga o'rnidan turib, otasi oldiga borib:

— Ota, hech narsa ko'rmadim, — debdi. Podshoh ertasi qovun polizga o'rtancha o'g'lini yuboribdi. U ham kechasi uxlab qolibdi. Ertalab daladan qaytib kelib, otasiga:

— Qovun polizda men ham hech narsa ko'rganim yo'q, — debdi. Podshohning kenja o'g'li shahzoda Anvar:

— Ota, endi meni yuboring, — deb yolvoribdi. Otasi:

O'g'lim, akalaringning qo'lidan hech narsa kelmadi, sening qo'lingdan nima kelar edi, qo'y, borma, — debdi.

Shahzoda Anvar akalariga qaraganda dono ham aqlli yigit ekan. Otasiga:

— Ota, akalarim bajara olmagan ishlarni balki men bajararman, — deb turib olibdi. Podshoh Anvarning so'zini qaytarmay:

— Mayli, bolam, borsang bora qol! — deb javob beribdi.

Anvar juda xursand bo'lib, biroz tuz, o'q-yoyini olib, uydagilar bilan xayrlashib jo'nab ketibdi.

Kechqurun dalaga yetib borib, kapa ichiga kirib qorovul bo'lib o'tiribdi. Yarim kecha bo'lganda Anvarning uyquasi kela boshlabdi. Anvar uxlab qolishdan qo'rqib yonidan pichoq olib, barmog'idan biroz kesib, tuz sepibdi.

Barmog'ining og'rganiga chiday olmay uyquasi qochib ketibdi. Biroz vaqt o'tgach, Huriliqo sekin kelib qovunni yeya boshlabdi. Anvar qizni ko'rib, yugurib boribdi va uni tutib kapaga olib kelibdi. Huriliqoning chiroyi Anvarni o'ziga tortibdi, u hayron bo'lib Huriliqodan:

— Siz kim bo'lasiz, bu dalalarda nima qilib yurib-siz? — deb so'rabdi. Huriliqo o'ksib-o'ksib yig'lab, boshidan o'tgan sarguzashtini Anvarga birma-bir so'zlab beribdi. Anvarning Huriliqoga juda rahmi kelibdi.

Tong otibdi. Anvar Huriliqo bilan otasining oldiga borib, ko'rgan-bilgan voqeasini unga aytib beribdi. Podshohning qizga rahmi kelib, xizmatchilariga:

— Bu qizni yaxshi kiyintiringlar, bizning uyda yura bersin, — debdi. Podshohning xizmatchilari Huriliqoni ichkariga olib kirib, yuvintirib, kiyintirib parvarish qilibdilar.

Oradan bir necha vaqt o'tgach, Anvar podshoh yoniga kelib:

— E, ota, sizga aytadigan bir so'zim bor, bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytar edim, — debdi. Podshoh:

— Ayt, bolam, kechdim, — debdi. Anvar:

— Otajon, dalada poyloqchilik qilganimda Huriliqo menga yoqib qolgan edi. Shuni menga to'y-tomosha qilib olib bersangiz, — debdi. Podshoh:

— O'g'lim, sen uylanadigan bo'lsang senga podshohlarning chiroyli qizlaridan olib beraman. U qizning ikki qo'li yo'q, cho'loq-ku, nima qilasan? — debdi. Anvar:

— Menga podshoh qizi kerak emas. Cho'loq bo'lsa ham mayli. Shuni olib bermasangiz men dunyodan uylanmay o'taman, — debdi. Podshoh o'g'lini juda yaxshi ko'rar ekan, uning bu so'zlari-dan keyin, agar aytganini qilmasam, bola jinni bo'lib qolmasin, deb o'ylabdi.

— Ha, mayli, bolam, olib bera qolay, — debdi. Anvar juda xursand bo'libdi. Anvar bilan Huriliqo-ning to'yi bo'libdi. To'y-tomosha bir necha kun davom etibdi.

Oradan bir-ikki yil o'tgandan keyin podshoh katta o'g'illarini o'ziga qarashli boshqa shaharlarga hokim qilib yuboribdi.

Bu voqeadan bir necha kun o'tgach podshoh Anvarni chaqirib, unga uzoq bir yurt-dan kelgan xatni ko'rsatibdi. Unda:

“Men o'lsam, o'rnimga Sultonxon podshohning o'g'li Anvarni podshoh qilinglar, u juda aqlli ham dono yigit”, deb vasiyat qilib vafot etgan ekan.

Fuqarolar maslahatlashib, Anvarni podshohlikka ko'tarmoqchi bo'lib Sultonxondan Anvarni so'ragan ekanlar.

Podshoho'g'liga:

— O'g'lim, podshoh bo'lib borasanmi? — debdi.

Anvar:

— Borsam boray, lekin xotinim Huriliqo homilador. Agar o'g'il tug'sa menga karnay-surnaylar bilan xabar bering. Agar qiz tug'sa xat yozing, — debdi.

Otasi:

— Ma'qul, o'g'lim, — debdi.

Ertasi Anvar yoniga bir necha askar olib, ota-onasi va xotini bilan xayrlashib yo'lga chiqibdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, tayinlangan shaharga yetibdi. Xalqlar bilan tanishib taxtga minib, podshohlik davrini sura boshlabdi.

Endi ikki og'iz so'zni Huriliqodan eshiting:


Huriliqo to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat deganda oltin kokilli bir o'g'il, kumush kokilli bir qiz tug'ibdi. Podshoh sevinibdi, xat ham yozibdi, karnay-surnay ham chaldirib, Anvarga xushxabar yuboribdi. Xushxabar olib boradigan navkarlar Huriliqo tug'ilib o'sgan shahardan o'tar ekan. Navkarlar shu shahardan karnay-surnay chalib o'tayotganida Huriliqoning kelinoyisi Zulayho ko'chaga chiqib turgan ekan. Buni ko'rib Zulayho ajablanibdi. Ularning yoniga borib:

— Qayerdan kelib, qayerga borasizlar, qanday xushxabar olib ketayotirsizlar? — deb bir navkardan soʻrabdi. Navkar:

— Sultonxon podshohning oʻgʻli Anvar boshqa shaharda podshoh edi. Uning qoʻli yoʻq, choʻloq Huriliqo degan xotini bor. Shu bir oʻgʻil, bir qiz tugʻdi. Biz Anvarga xabar olib ketayotibmiz, — debdi. Zulayhoning fikri buzilib, Hasanning shaharda yoʻqligidan foydalanib navkarlar oldiga tushibdi.

— Baribir bugun Anvar turgan shaharga yetolmaysiz. Bugun mening uyimda mehmon boʻlib qolinglar, ertaga joʻnarsiz, — debdi.

Bu gap navkarlarga yoqibdi. Otlarini tashqariga bogʻlab, Zulayhoning uyiga kirishibdi. Zulayho ularni yaxshilab mehmon qilibdi, may-sharob quyib berib, mast qilibdi. Navkarlar uxlab qolganlarida Zulayho ularning choʻntaklarini kavlabdi. Bir navkarning choʻntagidan Sultonxonning Anvarga yozgan xatini topib oʻqibdi, uni yirtib tashlab boshqa xat yozib, unda: “Xotining Huriliqo kuchuk bilan mushuk tugʻdi. Nima qilamiz?” — deb yozib, xatni navkarning choʻntagiga solib qoʻyibdi. Ertasiga tong otgandan keyin navkarlar nonushta qilib, xatni ochib koʻrmay yoʻlga ravona boʻlibdi. Kechqurun Anvar podshohning shahriga yetib borishibdi. Podshohga xatni berishibdi. Anvar xatni oʻqib ajablanibdi. Otasiga shunday xat yozib



di: “Ey, aziz otajonim, Huriliqo it bilan mushuk tug‘sa ham borgunimcha yaxshi kutib turinglar. Yaqinda boraman. It bilan mushuk tug‘ding, deb aslo ko‘nglini ranjitmanglar”.

Anvar xatni navkarlarga berib yuboribdi. Xatni olib navkarlar Huriliqo o‘sib ulg‘aygan shaharga yetganda, Zulayho yana ularning oldidan chiqibdi:

— Bugun tag‘in bizning uyda mehmon bo‘linglar, — deb navkarlarni uyiga olib kiribdi.

Navkarlar ziyofatdan mamnun bo‘lib, mast-alast uxlab qolishibdi. Zulayho yana navkarlar cho‘ntagini kovlabdi, birining cho‘ntagidan xatni topib olibdi o‘qib yirtib tashlabdi.

Anvar nomidan Sultonxon podshoh nomiga shunday xat yozibdi: “Ey, qimmatli otajonim, Huriliqo menga kerak emas. Oltin kokilli o‘g‘il, kumush kokilli qiz tug‘gan bo‘lsa ham mening ko‘zinga ko‘rinmasin. Mana shu xatimni olish bilan birga Huriliqoning ikki qulog‘ini ham kesib, bolalarini xurjunga solib, yelkasiga ortib, haydab yuboring. Agar men borganimda Huriliqoni bolalari bilan uyda ko‘rsam ikkimizning oramiz buziladi, men sizday otamdan kechaman”. Zulayho xatni buklab navkarning cho‘ntagiga solib qo‘yibdi. Tong otgach navkarlar yo‘lga tushibdilar. Bir kecha-yu bir kunduz yo‘l yurib Sultonxon shohning poytaxtiga yetibdilar. O‘rdaga borib xat-

ni podshohga topshiribdilar. Podshoh xatni o'qib juda xafa bo'libdi. "Bu nima gap, Huriliqo oltin-dek o'g'il bilan qiz tug'sa-yu, uning qulog'ini kesib tashla, uydan haydab yubor, emish. Bu qanday zulm, bedodlik", deb o'ylabdi. Hech kimga aytmay besh-olti kun juda xafa bo'lib, nima qilarini bilmay yuribdi.

Huriliqo juda ziyrak ekan. Podshohning bunday xafaligidan Anvarning ko'ngil qoladigan xat yozganini sezib qolibdi va podshoh huzuriga kiribdi-da:

— Otajon, nima bo'ldi sizga. Besh-olti kundan beri juda xafa ko'rinasiz? — deb so'rabdi. Podshoh gapira olmay yig'lab yuboribdi. Huriliqoga Anvarning xatini uzatibdi. Xatni o'qib, Huriliqo ham yig'lab yuboribdi.

— Otajon, o'g'lingizning buyrug'i shunday bo'lgandan keyin bajarmay ilojingiz yo'q. Mayli, men roziman, o'g'lingizning aytganini qiling, — debdi. Sultonxon podshoh o'ylanib turib:

— Qizim, sening qulog'ingni kesib tashlamayman. Lekin ikki qora ko'z bolangni xurjunga solib beray. Sen bu shahardan ket! — debdi.

Huriliqo rozi bo'libdi. Ikki bolani xurjunning ikki ko'ziga solib, Huriliqoning yelkasiga qo'yibdi. Huriliqo xayrlashib, yig'lay-yig'ay yo'lga tushibdi.

Bir-ikki kun yo'l bosibdi. Uchinchi kun bir anhordan o'tayotganda oltin kokilli o'g'il xurjundan

suvga tushib oqib ketibdi. Huriliqo zor-zor yig'lab, bir buloqning yonida yotib, uxlab qolibdi. Shu payt Xizr bobo Huriliqoning oltin kokilli o'g'lini va akasi kesib tashlagan ikki qo'lini olib kelib, uni uyg'otib:

— Tur qizim, qimmatli narsalaringni ol! — debdi.

Huriliqo cho'chib uyg'onsa, yonida o'g'lini va kesib tashlangan qo'lini ko'tarib bir chol turgan emish. Huriliqo sevinib ketibdi, o'rnidan turib, cholga salom beribdi.

— Vaalaykum assalom, qizim. Bu o'g'il senikimi — deb so'radi? Xizr bobo. Huriliqo:

— Meniki, otajon, — deb shoshilib javob beribdi. — Kelayotib, katta suvdan o'tayotganda xurjundan tushib oqib ketgan edi.

— Bu qo'l kimniki? Taniysanmi? — debdi chol.

— Ha, otajon, mening ilgari xuddi shunday qo'lim bor edi. Kelinoyim menga tuhmat qilganda akam qo'limni kesib, meni uydan haydab yuborgan edi, — debdi va boshidan kechirgan sarguzashtini aytib yig'labdi.

Xizr bobo Huriliqoning qo'llarini jon ato etib, dam solib yopishtirib qo'yibdi. Huriliqoning qo'llari avvalgiday soppa-sog' bo'libdi. Huriliqo rahmat aytibdi. Xizr Huriliqoning bir qo'lga yetti dona tosh, bir qo'lga qirq bir dona tosh beribdi:

— Qizim, yana bir kun yo'l yursang, falon yerda katta daryo bor, o'sha daryoga yetganda yetti dona toshni tashlasang, yetti ariqqa bo'linadi. Shu suvdan o'tib, yana bir kun yo'l yursang, bir cho'l-biyobon keladi. Qirq bir toshni tashlasang yaxshi uy paydo bo'ladi, davlatga ega bo'lasan. Bolalaring bilan o'sha yerda bemalol o'ynab-kulib yashayverasan, — deb g'oyib bo'libdi. Huriliqo bolalarini to'ydirib, xurjunga solib, toshlarni olib yo'lga ravona bo'libdi.

Bir kun yo'l yurib, daryo labiga kelib, yetti dona toshni tashlabdi. Daryo yetti ariqqa bo'linibdi. Suvdan sog'-salomat o'tibdi. Yurib-yurib bir joyga borib dam olibdi, bolalarini to'ydirib, yana jo'nabdi. Bir kun yo'l bosib bir cho'lga yetibdi.

Cho'lga qirq bir toshni tashlagan ekan, olamda yo'q imoratlar, bog'lar tayyor bo'libdi. Darrov besh-ta qiz yugurib chiqib:

— Biz sizni kutib o'tirgan edik, xush keldingiz, — debdi. Huriliqoning qo'lidan bolalarini olib, uyga olib kirishibdi, uni besh-olti qavat ko'rpacha ustiga o'tqizishibdi. Oldiga necha turli noz-ne'matlarni qo'yib, mehmon qilishibdi.

Huriliqo erining uyida kiymagan eng yaxshi kiyimlarni kiyibdi. Uylar chiroyli bezatilgan emish, bir qancha qizlar, yigitlar uning xizmatida tayyor turgan emishlar. Huriliqo juda hayron bo'libdi.

Bog'larda turli mevalar pishib, tagiga tushib yotgan emish. Huriliqo bu shirin sharbat, noz-

ne'mat ichida yashay bersin, endi ikki og'iz so'zni Anvardan eshiting:

Anvar podshohlik qilib turgan shahrida vazir-vuzarolarini chaqirib:

— Men o'z shahrimga borib, o'n besh kunda qaytib kelaman, — debdi va ular bilan xayrlashib, o'z shahriga jo'nabdi. Bir necha kun yo'l bosib, o'z shahriga kelib uyiga kirsa, Huriliqo yo'q, ota-onasi xafa bo'lib, g'am-g'ussa chekib o'tirgan emish. Anvar darrov otasidan:

— Huriliqo qani? — deb so'rabdi. Podshoh:

— Iye, tag'in so'raysan-a, o'g'lim, o'zing xatingda: "Huriliqo menga kerak emas, Huriliqoning qu-log'ini kesib, tug'gan bolalarini xurjunga solib, uydan haydab yuboring, agar men borganimda Huriliqoni bolalari bilan uyda ko'rsam, ikkimizning oramiz buziladi. Men sizday otamdan kechaman", deb yozibsanku. Men noiloj Huriliqoning bolalarini xurjunga solib, yelkasiga qo'yib chiqarib yubordim. Qay tomonga ketganini bilmayman, — debdi.

Anvar:

— Ey, ota, o'zingiz xatingizda Huriliqo bir kuchuk, bir mushuk tug'di, degansiz. Men: "Nima tug'gan bo'lsa ham borganimcha yaxshi kutib tur-inglar", deb xat yozgan edim, — debdi. Otasi bu gapdan hayron bo'lib, oraga dushman tushganini bilibdi.

Anvar ham voqeaga tushungach:

— Menga podshohlik kerak emas, hamma narsadan kechdim. Huriliqoni topsam bas, — deb uydan chiqib ketibdi. Cho‘l-biyobonlarni kezib yuribdi. Huriliqo yurgan yo‘ldan ketaveribdi.

Anvar cho‘llarda bora bersin, ikki og‘iz so‘zni Huriliqoning akasi Hasandan eshiting.

Hasan xotini Zulayhoning tuhmatchi ekanini tushunib qolibdi. Qarindosh-urug‘i bo‘lmagani-dan juda qayg‘uribdi. Singlisi uchun g‘am-g‘ussa chekibdi. Ko‘nglini ochish uchun shaharda ko‘chama-ko‘cha yurib tomosha qilibdi. Lekin ko‘ngli hech ochilmabdi. Uxlasa, tushiga hamma vaqt Huriliqo kirar ekan. Huriliqo dunyoda bormikin, yo‘qmikan, deb o‘ylab xafa bo‘lar ekan. Bir kuni xotini bilan urishib qolib:

— Bor, kerak emassan, seningdek kasofatning dastidan singlimdan ham ajraldim, — debdi-da, uydan achchiqlanib chiqib ketibdi. Singlisi Huriliqoni izlab, cho‘lma-cho‘l yurib Anvarga yo‘liqib qolibdi. Anvar:

— Ha, aka, siz ham menga o‘xshab bu cho‘l-biyobonda nima qilib yuribsiz? — debdi. Hasan:

— Oh, inim, mening bir singlim yo‘qolgan edi. Shuni qidirib yuribman. Siz nima qilib yuribsiz? — debdi. Anvar:

— Mening xotinim yo‘qoldi. Xotinimni qidirib yuribman. — debdi. Hasan:

— Xotiningizning ismi nima?, — deb soʻrabdi.
Anvar:

— Huriliqo, — debdi.

— Mening singlimning ismi ham Huriliqo edi. Biroq ikki qoʻli yoʻq edi, — debdi Hasan. Anvar koʻziga yosh olib:

— Mening xotinimning ham ikki qoʻli yoʻq edi, bechora koʻp azob larni tortgan ekan. Mening rahmim kelib unga uylangan edim, — debdi-da, Huriliqoning boshidan oʻtgan sarguzashtini Hasanga soʻzlab beribdi. Hasan oʻzinitutolmay yigʻlab yuboribdi. Anvar Hasanning yigʻlaganiga hayron boʻlib:

— Nega yigʻlayapsiz? — debdi. Hasan peshonasiga bir urib:

— Ana shu Huriliqo mening singlim boʻladi. Xotinimning singlimga qilgan tuhmatini tushunmay, uning ikki qoʻlini kesib, haydab yuborgan edim, — deb yana hoʻngrab yigʻlabdi.

Anvar:

— Qoʻying, aka, yigʻlamang, ikkovimiz bir kishi ekanmiz. Baxtimiz boʻlsa, Huriliqoni topib olarmiz, — debdi.

Ikkisi boshqatdan quchoqlashib koʻrishibdi, birini hurmat qilib, yoʻlga ravona boʻlishibdi. Necha kun yoʻl yurib yoʻl yursa ham moʻl yurib, Huriliqoning turgan joyiga kelishibdi.

Huriliqo o'sha vaqtda derazadan qarab turgan ekan. Uzoqdan akasi bilan erini ko'rib, tanib qolibdi. U darrov ikki bolasini chaqirib:

— O'g'lim, sen borib "Dada", deb o'ng tomondagi kishining qo'lini ushla, qizim, sen chopib borib, "Tog'a", deb chap tomondagi kishining qo'lini ushlab, ikkingiz ularni uyga olib kiringlar, — debdi.

O'g'li bilan qizi uydan chopib chiqishib, kelayotgan kishilarga qarab yugurishibdi. O'g'il bola Anvarni "Dada", deb, qiz bola Hasanni "Tog'a", deb quchoqlab olibdi. Ularni bolalar uyga sudrabdi. Anvar bilan Hasan hayron bo'lib, bir-birlariga qarab bolalarni qo'lga olib uyga kiribdilar.

Huriliqo ular bilan birma-bir ko'rishibdi. Lekin ular hayron bo'lib, "Yuzidan Huriliqoga o'xshaydi, lekin qo'li borligidan Huriliqo emas-ku", deb o'ylarmish.

Huriliqo turib eshikka chiqib ketibdi. Hasan Anvarga:

— Xuddi mening singlim Huriliqoga o'xshaydi, lekin qo'li bor, — debdi. Anvar ham xuddi shunday so'zni aytib, ajablanibdi.

Huriliqo akasi bilan eri oldiga turli taomlar keltirib, ularni ziyofat qilibdi. Hasan:

— Mening senga o'xshagan bir singlim bor edi. Uni yo'qotgan edim. Men o'sha singlimni izlab yuribman. Shu tomonlarga kelgan bo'lsa sen ko'rgan-dirsan. Ammo uning ikki qo'li yo'q edi, — debdi.

Huriliqo:

— Bu yerlarga siz aytgan odam kelmadi, koʻrganim yoʻq, — debdi. Hasan bilan Anvar ovqatlarini yeb-ichib joʻnamoqchi boʻlishibdi. Huriliqo:

— Shu joyda yotib qolinglar. Boradigan joyingizga ertaga borarsizlar, — debdi. Anvar:

— Mayli, buguncha shu joyda yotsak yotaylik, — debdi. Ular qolishibdi. Huriliqo Hasan bilan Anvarni bogʻga olib kirib, tomosha qildiribdi. Kechqurun yana ziyofat berib, atlas-shoyi koʻrpalar, koʻrpachalar solib yotqizibdi. Akasi bilan eri yotib uxlabdi. Huriliqo kechasi oʻrnidan turib toza dur-marvaridlar va bir gavhar koʻzli boldoqni akasining choʻntagiga solib qoʻyibdi. Tong otibdi. Hasan bilan Anvar oʻrinlaridan turib, turli mevalar bilan nonushta qilib, xayrlashib yoʻlga ravona boʻlibdilar. Ular ketgandan keyin biroz vaqt oʻtgach, Huriliqo ikki xizmatkorini chaqirib:

— Haligi ketgan odamlarni qaytarib olib kelinglar! — debdi. Xizmatkorlar Hasan bilan Anvarning orqasidan yetib borib:

— Sizlarni Huriliqo chaqiryapti, — debdilar. Hasan bilan Anvar hayron boʻlib qaytib kelishibdi. Huriliqo achchiqlangan boʻlib ularga:

— Sizlar qanday uyatsiz odamlarsiz? Men sizni hurmat qilib ziyofat qilsam-u, sizlar mening oltin

boldog'im bilan marvaridlarimni o'g'irlab olib ketib-sizlar. Bu qanday gap? — debdi.

Hasan bilan Anvar:

— Biz olgan emasmiz, — deb qasam ichibdilar.
Huriliqo:

— Sizning "Olmadim", deganlaringizga ishonmayman, cho'ntaklaringizni qarayman, — debdi. Ular rozi bo'lishibdi. Huriliqo avval Anvarning cho'ntagini qarabdi. Hech narsa topolmabdi, keyin akasi Hasanning cho'ntagini qarabdi. Cho'ntakdan marvarid bilan boldoqni olib:

— Bu nima, nimaga olmadim deb, qasam ichdingiz? — deb so'rabdi. Hasan:

— Ey Xudoyim, men olganim yo'q. Ammo biror kishi dushmanlik qilib solib qo'ygan bo'lsa kerak, — deb yig'lab yuboribdi.

Hasanning yig'laganiga chiday olmay Huriliqo ham yig'lab yuboribdi:

— Hasan aka! Men sizning singlingiz Huriliqoman. Ko'rdingizmi, siz shu marvarid bilan boldog'imni o'zingiz olganingiz yo'q, albatta. Men o'zim jo'rttaga cho'ntagingizga solib qo'ydim. Shunga o'xshash, Zulayho kelinoyim o'z bolasini o'zi o'ldirib, ko'rpam tagiga pichoqni yashirib qo'yib, menga tuhmat qilgan edi. Siz o'shanda menga zulm qilib, zor-zor yig'latib, qo'llarimni kesib, uydan haydab chiqargan edingiz, — debdi.

Hasan o'zini tutolmay yig'lab:

— Jigarim, singlim Huriliqo senmisan, — debdi. Huriliqo akasi bilan boshqatdan ko'rishib:

— Menman, mana bu podshoh mening qalig'im. Mana shu ikki bola shu kishining farzandi, — debdi. Hasan bilan Anvar juda xursand bo'libdi. Har uchovi topishganiga xursand bo'lib bir necha kun birga yashabdi. Huriliqoning xizmatkorlari uydagi hamma buyumlarni bir qancha tuyalarga yuklab, Sultonxon podshoh shahriga jo'nashibdi.

Yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, shaharga yetib kelibdilar. Huriliqo qaynota va qaynonasi bilan ko'rishib, boshidan o'tgan voqealarni birma-bir so'zlab beribdi.

Podshoh xursand bo'lib, boshqatdan qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib beribdi.

Hasan xotini Zulayhodan kechib, singlisi bilan bir shaharda turishga ahd qilibdi. Anvar xotin bola-chaqasi va Hasan bilan o'zining podshoh bo'lib turgan shahriga boribdi. U yerda Hasanni o'ziga vazir qilib olibdi.

Anvar navkarlarni chaqirib, Zulayho tuhmat qilib yozgan xatni toptiribdi. Shum ishlari uchun Zulayhoni zindonga tashlabdilar.

Anvar — Podshoh, Hasan — vazir, Huriliqo esa podshohning dono xotini bo'lib umr kechirib, mu-rod-maqсадlariga yetibdilar.

QUYOSH YERINING PAHLAVONI

adim zamonda bir chol bor ekan, uning o'n yashar o'g'lidan boshqa hech kimi yo'q ekan. Chol nihoyatda qashshoq, yeyarga ovqati, kiyarga kiyimi yo'q ekan. U kunlardan bir kuni qo'shnisi Halimboyning oldiga kelib:

— Boy ota, bizga yordam qiling, o'g'lim Rustamjon bilan birga qo'limdan kelgan xizmatni ayamayman. Rahm qiling, — deb yig'lab yuboribdi.

Halimboy chol bilan bolani ko'zdan kechirib:

— Mening ko'chaga tashlab qo'ygan ovqatim yo'q. Oldin bo'yningdagi qarzingni uz, erta-indin o'lib ketsang, mening haqim kuyib ketadimi? O'g'lingni hech kim bir tiyinga olmaydi, — debdi.

Chol hayron bo'lib, qaltirab:

— Boy ota, mening sizdan qanday qarzim bor? Menga hech narsa berganingiz yo'q-ku, — debdi.

Halimboyning ko'zi olayib:

— Gapirma, imonsiz chol! Hali sen tonmoqchimisani, — deb qo'lida o'ynab turgan qamchisi bilan cholni ura ketibdi. Chol qamchi zarbiga chidayol-

may yerga yiqilib, ko'zlaridan tirqirab yosh oqa boshlabdi. Kichkina Rustam voqeaga tushunmay, qo'rqib, cholni quchoqlab yig'labdi. Chol o'zini biroz tetiklab olib, yalinibdi:

— Menga tushuntiring, yonimdan ko'tarilgan bo'lsa eslating. Sizdan qay vaqtda nima olgan edim? Qanday qarzim bor?

Halimboy cholning ko'kragiga yopishib yotgan Rustamning bo'ynidan ushlab bir tomonga otib yuboribdi-da, cholning yoqasidan bo'g'ib:

— Menga qara, imonsiz chol! Xotining o'lganida yuvg'uchiga pulni kim berdi? Qabristonga domlalarni kimning ot-aravasida olib bording? Payshanba kunidagi yuz odamga qilingan xudoyi, oshchi? Axir o'zing ham o'g'ling bilan kirib osh yeding-ku? — debdi.

Chol qurumsoq boyning surbetlik bilan qilgan tuhmatlaridan g'azablanibdi. Nima qilsin, turarga darmoni yo'q, ochlik, qarilik cholni yengibdi. Noi-loj yalina boshlabdi:

— Boy ota, axir o'zingiz "Man xudoyi qilyapman, o'g'ling bilan kirib osh yeb chiq", deb aytdingiz-ku. Menga rahm qiling. O'g'lim Rustamjonga azob bermang, — deb turganda, eshikdan boyning yaqin bir do'sti kirib kelibdi. Halimboy uni ko'rib:

— Mana, bu kishi aytsinlar, — debdi. Haligi do'sti:

— Xo'sh, nima gap ekan. Menda boy otamning qanday so'zlari bor ekan, — deb hurmat bilan tikilib turibdi, Halimboy unga:

— Do'stim, bultur shak kunida bizning uyda o'tkazilgan xudoyining savobi shu cholning xotiniga bag'ishlangan edimi? — debdi. Do'sti voqeani anglab, aytibdi:

— Albatta, cholning marhuma xotiniga bag'ishlagan edi. Halimboy cholga qarab:

— Mana, eshitdingmi? Senga rahm qilib, qo'sh-nim deb, pul sarf qilib, senga yaxshilik qilsam, sen imonsiz tonib o'tiribsan, — debdi.

Boyning do'sti:

— Hay, hay, bunday nomunosib ishni qilma, boy otamga rahmat ayt! Ma'raka uchun bo'lgan xarajatlarni bo'yningga ol, — debdi. Chol yig'lab:

— Menga yana bunday kulfatlar bormidi! Ota-bola yeyarga bir burda non topa olmay, ochlik balosidan qutula olmay yurganda, shuncha pullarni men qayerdan topib beraman, — debdi va Rustamni bag'riga bosib:

— Sho'rlik bolam, men qaridim, yoshimni yashadim, sen endi qanday ahvolga tushasan, — deb yig'labdi.

Haligi do'sti cholga qarab aytibdi:

— Hoy ahmoq, nodon, nega yig'laysan? Boy ota hozir ber, deb zo'rlayotganlari yo'q-ku? Topganing-

da berasan-da. Tonmasang bas. Mana, o'g'ling katta bo'lib qoldi. Bir kun qo'lidan ish kelganda ishlab topib beradi-da.

Chol bunday uzoq muddat berilganiga hayron bo'lib, nima deyishini bilmasdan "Xo'p" deyishdan boshqa iloj topa olmabdi.

Boyning do'sti cholga qarab:

— "Xo'p" deyish bilan ish bitmaydi. Boy otamdan qancha qarzing borligini o'z qulog'ing bilan eshitib ol, — debdi.

Chol nima deyishini bilmay oxirini kutib sukut qilibdi.

Boyning do'sti qo'lga qalam, qog'oz olib yoza boshlabdi va:

— Boy ota, cholda qancha haqingiz bor? — deb so'rabdi. Halimboy "O'n besh tilla", — debdi. Chol hayotida bir tillani ham ko'rmagani uchun "O'n besh tilla", degan so'z uni gangitib qo'yibdi. Do'sti yozib bo'lib, cholga barmoq bosishni taklif qilibdi. "Xo'p", deb so'z bergan chol qog'ozning chetiga barmoq bosibdi. Haligi qo'shimcha qilib, Rustamning barmog'ini ham bosdirib olibdi:

— Ana endi keta beringlar. O'g'ling katta bo'lganda ishlab topib berar, — debdi. Bir burda non tilab kelgan ota-bola Halimboy eshigidan o'n besh tilla qarzdor bo'lib chiqib ketibdilar.

Chol uyiga borar ekan, eshik oldida qo'shnisi Siddiq yamoqchini ko'rib, bo'lgan voqeani so'zlab



beribdi va “Kimdan yordam olayin?”, deb so‘rabdi. Siddiq yamoqchi voqeadan xabardor bo‘lib, g‘azab bilan:

— Tuzoqqa tushibsan, endi foydasi yo‘q. Shahar hokimi la’nati badbaxt Halimboyning kuyovi bo‘ladi. Endi taqdirga tan berishdan boshqa chora yo‘q, — debdi.

Chol o‘g‘li Rustamni bag‘riga bosib, ochlik bilan qayg‘urib, boshini yostiqa qo‘yibdi. Xayol uni har tomonga olib ketar, Rustamning bir burda nonga zor bo‘lib yig‘lashi cholni yana hayajonga solar ekan.

Yarim kecha, hamma shirin uyquda, ammo chol hamon oh tortar, bag‘ri ezilar ekan. Shu payt uch kishi eshikdan kirib, cholning tepasiga kelibdi. Biri cholni tepib: “Tur, imonsiz!”, — debdi. Chol, “Kutilmagan mehmon” lardan bunday muomalani ko‘rib, hayron qolibdi.

— Mendan nima istaysizlar? — deb so‘rabdi. Ulardan biri:

— Uyni bo‘shat! Bu yerdan hozir chiqib ket! — debdi.

Chol esini yo‘qotib: “Sizlar yanglishgan bo‘lsalaring kerak, bu uy mening o‘zimniki”, degan ekan, “Mehmonlar” dan ikkinchisi:

— Bizlarni alday olmaysan. Bizlar shahar hokimining odamlarimiz. Sen imonsiz bundan bir yil

ilgari bu uyni Halimboyga o'n besh tillaga sotib, pulini naqd olgansan. Boy ana shu vaqtga qadar insof qilib kelsalar, sen tonmoqchi bo'lgansan, — debdi.

Chol xunob bo'lib:

— Sotgan emasman, sotmayman, — desa uchin-chisi qo'lidagi qog'ozni ko'rsatib:

— Sotgan emasman deysanmi? Mana tilxating. Ota-bola barmoq bosgansanlar. Hokimning jahllari chiqib, "To'g'rilikcha chiqsa-chiqsin, qaysarlik qilsa, uydан sudrab chiqib, ota-bolani zindonga tashlanglar", deb buyruq berdilar, — debdi.

Chol bu hukmni eshitib, es-hushidan ajralib, Rustamni bag'riga bosib, o'zi o'sib katta bo'lgan, yashagan boshpanasidan chiqib ketar ekan, cholning oh-zori va nolasiga Siddiq yamoqchi oilasi bilan uyg'onib ketibdi. Cholning huzuriga chiqib, ahvolini ko'rib, achinib, xayrlashar ekan, yamoqchining xotini "Qayerga borsangiz hamrohingiz bo'lsin", deb bir dona zog'ora non beribdi. Chol bechora Rustamni opichib tog' tomonga yo'l olibdi.

Chol qir oshibdi, soy kechibdi, uzoq yo'l yuribdi. Hamma yoq jim-jit, har zamonda Rustamning "Qayerga ketayotirmiz", degan savolli jimlikni buzar ekan. Lekin chol bu savolga hech qanday javob qaytarmas ekan. Qaysi tomonga ketayotganini o'zi ham bilmas ekan. Chol horib-tolib bir archazorga

yetibdi. Pastakkina bir archa yonida o'tirib, unga suyanib ko'zini yumibdi. Chol yuqoriga qarasa, yosh bolasini oldingi ikki oyog'i orasiga olib, cholgga hujum qilmoqchiday tayyorlanib turgan katta ayiqni ko'ribdi. Bechora chol shoshib qolibdi. Qochay desa darmoni yo'q, qutulishning imkoni yo'q emish. Rustamni bag'riga bosib, "Umrimiz tugagan ekan", deb ko'z yoshi to'kibdi. Rustam o'zi tomon kelayotgan hayvonni birinchi marta ko'rgani uchun qo'rqqanidan qichqirib yuboribdi. Chol ko'zlari yumilgan holda Rustamning yig'isini eshitib, "Ha, bolamdan ajraldim", deb behush bo'libdi. Ayiq asta-sekin kelib, cholning bag'ridan Rustamni ajratib olib, bolasiga yetaklatibdi-da, o'zi cholni ko'tarib, g'orga kirib ketibdi.

Quyosh chiqibdi. Chol hushiga kelib ko'zini ochsa, bag'rida bolasi yo'q emish, jon holatida atrofga qarabdi. Yuqori tomonda Rustamning ayiq bolasi bilan asal yeb turganini ko'ribdi. Chol hayron bo'lib, ko'zlariga ishonmabdi: tushimmi, o'ngimmi deb Rustamni chaqiribdi. Rustam anchadan beri so'zsiz yotgan otasining ovozi eshitib, uning yoniga chopib kelibdi-da:

— Ota, turing, asal yeng, — debdi. Chol Rustamdan:

— Kim u? — deb so'rabdi.

— Bu mening o'rtog'im. Onasi sizni ko'tarib kelib, bu yerga yotqizib qo'ydi: "Otang uyg'ongun-

cha xalaqit berma, uxlasin. Mening bolam sening o'rtog'ing bo'ladi. Senlar asal yeb turinglar, men qaytib kelaman", dedi, — debdi Rustam.

Chol Rustamdan eshitgan so'zlariga goh ishonib, goh ishonmasdan, hayron bo'lib turganida ayiq eshikdan bir dasta non, bir qovoq idishda sut olib kiribdi. Chol ayiqni ko'rishi bilanoq o'rnidan turib ta'zim qilibdi. Ayiq qo'lidagi narsalarni yerga qo'yib, cholga: "O'tiring, o'zingizni koyitmang. Men sizga non, sut keltirdim. Oldin ovqatlanib oling, so'ngra suhbatlashamiz", — debdi.

Chol bunday hurmatga hayron bo'lib ayiqqa qarabdi.

Ayiq:

— Otajon, siz ko'p ajablanmang. Mening bu yerlarda cho'pon do'stlarim bor. Boylarning, hokimlarning qo'ylarini boqadilar. Non, sutni o'shalarnikidan keltirdim, — deb ovqatga taklif qilibdi. Chol xo'rsinib, boshidan kechirganlarini hikoya qilib beribdi. Ayiq cholning so'zlarini eshitib:

— Otajon, siz meni ham "Bolam", deb qabul qiling. Bu ikki go'dak do'st bo'lsin. Bizlar ham shu yerda erkin umr kechiraylik, — debdi.

Ular ko'p vaqt birga yashabdilar. Chol tog'dan o'tin yig'ar ekan.

Ayiq o'tinni kechasi shaharga yaqin joyga keltirib berar, chol uni sotar, shu taxlit tirikchilik qili-

shar ekan. Rustam ayiqning bolasi bilan o'ynashib, kurashib o'sa boshlabdi. Bir kuni cho'ponlar Rustamning ayiq bolasi bilan kurashayotganini ko'rib, unga qoyil qolishibdi. Besh-olti yil ichida Rustamning hamma yoqqa dong'i ketibdi. U bilan bel ushlashadigan odam bo'lmabdi. Cho'ponlar orasida Ayiqpolvon degan nom bilan shuhrat topibdi.

Kunlardan bir kun Rustam otasi bilan shahardan o'tin sotib qaytib kelayotganida, chol unga yo'lda ola ot mingan, movut to'n kiygan, qo'lida qamchi o'ynatib turgan bir boyni ko'rsatib:

— Mana, bizning uyimizni tortib olib, haydab yuborgan Halimboy shu bo'ladi, — debdi. Rustam qarasa, odamlar to'planib, nimanidir qiziqib tomosha qilar ekanlar. Halimboy zavqlanib, mo'ylovini burab kimlargadir jilmayib gerdayar ekan.

Rustamning qulog'iga qandaydir ingragan tanish ovoz eshitilibdi. Rustam yugurib borib, o'zini to'daga uribdi, qarasa, do'stining ukasini ovchilar ushlab, tuyaning ustiga ortib kelayotgan ekanlar. Kishilarning aytishlariga qaraganda, Halimboy ovchilar bilan ovga chiqqanida shu ayiq bolasini ushlabdi. Uni hokimning kuyoviga sovg'a qilar emish. Rustam g'azablanib, bir hujumda ayiq bolasi bog'langan arqonlarni uzib tashlabdi-da, ayiqchani quchoqlab olibdi. Ovchilar birdan Rustamga hu-

jum qilibdilar. Rustam o'ziga yaqinlashgan har bir ovchini belidan ushlab har tomonga otib yuboraveribdi. Qo'liga tushgan odam Rustamning qarshisiga yana qaytib kelolmabdi. Rustam Halimboyga tashlangan ekan, Halimboyning oti chaqqonlik qilib, uni qutqarib qolibdi. Rustam ayiq bolasini ko'tarib, archazor tomon yo'l olibdi. Bu voqeani ko'rgan xaloyiq Rustamning g'ayratiga, shijoatiga, kuch-quvvatiga qoyil qolib, ofarin aytibdi. Bu voqea butun shaharga tarqalibdi. Halimboy xavflanibdi.

Kechalari o'z uyida ham xavotirlikda yotibdi. Hokim darg'azab bo'lib, "Ayiqlar bolasini ovchilar qo'lidan qutqazgan pahlavon ushlab kelinsin", degan farmon chiqaribdi. Borishga hech kimda yurak yo'q emish, borganlar "Topa olmadik", degan bahonalar to'qishar ekan. Shahar xalqi orasida o'tinchi polvon unday qilibdi, falon joyda bunday qilibdi, degan so'zlar avj olibdi.

Shaharda och-yalang'och qiynalib, kun ko'ra olmagan bechoralar tog'ga borib o'tinchilik qilib, tinch hayot kechira boshlabdilar. Bir kuni Halimboy kimdandir Rustam o'sha cholning o'g'li ekanligini, tog'da yashab, shahardan qochib chiqqanlarga atrofidan joy berib, ularga yordam qilayotganini eshitib, nafasi og'ziga tiqilib, shaharga borib voqeani aytib beribdi. Bu xabarni eshitgan shahar

hokimining badaniga titroq kirib, yuz otliq yigitga o'zi bosh bo'lib archazorga yo'l olibdi. Yo'lda yigitlariga:

— Har kim Rustamni tirik ushlasa, qizimni berib, o'zimga yuzboshi qilib olaman, — debdi.

Ular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, archazor oldidagi bir uychaga yetibdilar. Shahar hokimi yigitlariga:

— Shu yerda dam olib, Rustamni kechasi uyquda yotganida borib ushlang, bizning sharpamizni bilsa, u tog'ga qochib ketadi, — debdi.

Chol o'z do'stlari bilan shaharga o'tin olib ketgan, kechasi Rustam ayiq bolasi bilan tepada uxlab yotgan ekan. Shu paytda tepa ustida bir sharpa paydo bo'libdi. Rustamni ko'tarib, balanddan pastga qarab sakrabdi. Rustam cho'chib uyg'onibdi. Ko'taruvchiga qarab:

— Nima bo'ldi, mehribonim? — debdi. U ona ayiq ekan.

Ayiq:

— Senga hujum qilmoqchilar. Shahar hokimi yuz otliq yigit bilan shu tarafga kelayotir, — debdi.

Rustam ona ayiqqa:

— Endi nima qilmoqchisiz? — debdi.

— Men seni qutqarmoqchiman, — debdi ona ayiq. Rustam unga:

— Qachongacha biz ulardan qochib umr kechiramiz? Biz ham qarshisiga chiqamiz, — debdi.

Ona ayiq:

— Ular ko‘p, hammasining tagida ot. Bizning do‘stlarimiz shaharga o‘tin olib ketgan. Yur, vaqt-ni qo‘ldan bermaylik, — debdi.

Shu vaqt do‘mbillab chopib ayiq bolasi yetib kelibdi. Rustam ko‘rib juda xursand bo‘libdi. Ona ayiq Rustamni qochishga zo‘rlabdi. Ammo Rustam qochishni istamabdi. Rustamning bu holini sezgan ona ayiq:

— Endi nima qilmoqchisan? — deb so‘rabdi. Rustam:

— Dushman ustiga hujum qilaylik, — debdi. Ayiq bolasi boshini silkitib, tumshug‘ini ko‘tarib, ikki qo‘li bilan Rustamning belidan ushlab:

— Bo‘sh kelmaymiz, do‘stim, — debdi.

Soydan tog‘ga o‘rmalab kelayotgan otliqlar bir-biridan oldin chiqishga harakat qilishibdi. Otlarning pishqirgani, shahar hokimining ovozi eshilibdi. Dushmanlar otdan tushib, toshlar orasiga yashirinib, Rustamga qarshi hujum boshlabdilar. Uch pahlavon yuqoridan turib, dushmanlarga qarab tosh ota boshlabdi. Jang qizib ketibdi. Biri “boshim”, deb dodlarmish, biri otdan ag‘darilarmish, birining beli singanmish, xullas, dushman qattiq talafotga uchrabdi. Do‘stlar xursand, dushmanlar g‘amgin bo‘libdi. Biroq Rustamning yig‘gan toshlari tugab qolibdi. Qarasalar, ona ayiq

yo'q emish. Bular hayron bo'libdilar. Jang to'xtabdi. Shahar hokimi yana hujumga o'tibdi. Rustam qo'liga bir govron olib ularning yo'lini to'smoqchi bo'lganida, ona ayiq yo'g'on archa daraxtini ko'tarib kelib, dushman ustiga otibdi, Bu zarbadan avval shahar hokimi qocha boshlabdi. Uning ketidan yigitlar ham tumtaraqay bo'libdi. Rustam va ayiqlar ot, anjomlarni o'lja olib, o'z yerlarida yashayveribdilar. Bu voqea shu kunning o'zidayoq hammaga ma'lum bo'libdi. Hokim buning alamiga chidayolmay, yerto'laga tushib yotibdi. Rustamni tutib kelgan kishiga bo'yi baravar oltin berishga va'da qilibdi. Bu va'dani eshitib, og'zida tishi yo'q, boshida tuki yo'q, bir ko'zli kampir shahar hokimi oldiga kelib, ta'zim qilib:

— Ey, hokim, oyoqyalang Rustamni ushlab kelish uchun menga ruxsat bering, — debdi.

Shahar hokimi xursand bo'lib:

— Tutib kelsang, nima desang bajaraman, — debdi. Kampir shahar hokimiga:

— Menga o'zingiz ishongan, yuzida bir dona tuki yo'q, o'n beshta ko'sa odamni topib, har qaysiga bir oylik ovqat g'amlab berasiz. Oyoqyalangni ushlab kelganimdan keyin mening maslahatim bilan ish qilasiz, — debdi.

Shahar hokimi kampirning aytganini bajo keltirib, ertasiga tog' tomon yuboribdi. Kampirning

buyrug'i bilan o'n besh ko'sa, xotin-qizlar kiyimini kiyib, yo'lda bir-biri bilan mushtlashib, yuzi ko'kargan, burni qonagan, boshi yorilgan holda dodlashib, kampir boshchiligida archazorga kirib borishibdi. Dod-faryodni eshitgan Rustam bilan o'tinchilar ularning oldilariga boribdilar, voqeani so'rabdilar, kampir o'zini Rustam oyog'iga tashlab, boshini toshlarga urib, kiyimlarini yirtib:

— Dod, zolimning dastidan, bizlarning arzimizni eshituvchi, holimizdan xabar oluvchi, bizlarga mehr-u shafqat qiluvchi Rustamjon qayerda? Bizlar uni bir ko'rib o'lsak armonimiz yo'q, — deb faryod qilibdi.

Rustam:

— Xafa bo'lmanglar, onajonlar. Rustam men-bo'laman. Nima bo'ldi? Menga tushuntiringlar, — deyishi bilan o'n besh "xotin" Rustamning oyog'iga o'zini tashlab yig'lay boshlabdi.

Kampir:

— Ko'zimizning nuri Rustamjon, bizlarni zolimning zulmidan qutqar. Sening zarbingni yeb alamiga kuygan, xonavayron bo'lgur shahar hokimi bizlarni erkaklarimiz, bolalarimiz bilan chaqirib, tayoqlari bilan urib, hamma yoqlarimizni yorib, erkaklarimizni zindonga, bolalarimizni qafasga solib, oftobning tig'iga osib qo'ydi. Uylarimizni tortib olib, bizlarni sahroga haydab yubordi. Biz

nima qilamiz? Kimdan yordam olamiz? — deb nola-yu fig'on qilibdi.

Rustam:

— Yig'lamanglar, kelinglar, sizlar ham biz bilan birga bo'linglar. Shu yerda umr kechiramiz, — deb joy tayyorlab, ovqat beribdi.

Har kim o'z tirikchiligini qilib, kechqurun o'zi tayyorlab qo'ygan joyiga borib yotar ekan. Rustam bir kun supachada uyqusi kelmay yolg'iz o'tirgan ekan (chunki ayiq bolasi onasi bilan uzoq yo'lga ketgan ekan). Shu vaqt uning yoniga Siddiq yamoqchi kelib:

— Zerikkan ko'rinasan. Hikoya aytib beraymi? — deb Rustamning yoniga o'tiribdi.

— Jonim bilan eshitaman, — debdi Rustam. Siddiq yamoqchi so'z boshlabdi:

— Bir vaqtda bir yamoqchi bor ekan. Turmushini zo'rg'a o'tkazar ekan. Bisotida ishongan, suyang bir qizi bor ekan. Aqlli, chiroyli qiz ekan. Ota-si kambag'al yamoqchi bo'lishiga qaramay, katta boylardan, beklardan sovchilar kelar ekan. Yamoqchi ularga bermas ekan, chunki qizning yoshligidan birga o'sib, birga o'ynab yurgan qo'shnining o'g'lini sevishini sezar ekan. Zolimlarning zulmiga, amaldorlarning qiynoqlariga toqat qila olmagan qo'shnisi tug'ilib o'sgan joyidan ayrilib, shahardan chiqib ketgan ekan. Ota-bola birga bir

tog'da tirikchilik qila boshlabdilar. Bola ham kundan kunga o'sib, voyaga yetib, aqlli, husnli, botir bo'lib yetishibdi; atrofdagi odamlar orasida obro' qozonibdi. Ezilgan bechoralarga shafqat qilibdi. Uning botirligiga hech kim teng kelolmabdi. Hatto uni ko'ra olmagan dushmanlar ham uning qarshisiga ochiq chiqa olmabdi. Yigitning shuhratini eshitgan yamoqchi bilan qiz nihoyatda xursand bo'lib, uning kirib kelishini toqatsizlik bilan kutibdi. Lekin shuncha vaqt o'tsa ham yigit bir marta xabar olmabdi.

Rustam butun voqeani eshitib, to'satdan: "Yigitning ishi vijdondan emas", deb qo'yibdi.

Siddiq yamoqchi hikoyasini davom ettiribdi:

— Qizning dong'i shahar hokimining qulog'iga borib yetibdi. Shahar hokimi g'oyibdan oshiq bo'lib, to'rt xotin ustiga xotinlikka so'rab, qancha sarpolar bilan yamoqchinikiga sovchi yuboribdi. Qiz va uning otasi sovchilarni qaytarib yuboribdi. Hokim yamoqchining oyoq-qo'lini bog'lab, suvga tashlab, uyiga o't qo'yib, qizni zo'rlab olib ketibdi.

Qo'shchilar qizning otasini o'limdan qutqarib qolibdilar. Olib ketilgan qiz har qanday azoblarga bardosh berib, yigitni kutibdi.

Yigitdan darak bo'lmabdi. Qizning otasi qo'shchilar qo'lida uch-to'rt kun turib, biroz tuzalgandan keyin bu voqealardan pahlavonni xabardor qilgani yo'l olibdi.

Siddiq yamoqchi Rustamdagi holatni sezib, hikoyasini davom ettirmoqchi bo'lganida yaralangan bir "xotin" Rustamning oldiga kelib:

— Rustamxon, onangiz jon berish oldidalar. Sizga juda mushtoq bo'lib yotibdilar. Oldilariga kirsangiz, — deb yalinibdi. Rustam sakrab turib, "Kasal" yotgan joyga boribdi. Siddiq yamoqchi ham o'z joyiga ketibdi. Kampirga haqiqatan g'arg'ara kelib turgan ekan.

Rustam tepasiga borganida ikkinchi "xotin":

— Ko'p qiynalmang, mana, azamatingiz qarshingizda turibdi, — debdi.

"Og'ir" yotgan kampir qo'llari bilan Rustamga imo qilib bir quchoqlab, o'pishni umid qilibdi. Rustam o'zini kampir quchog'iga tashlashi bilan kampir behush qiladigan dorini Rustamning burniga tutibdi. Rustam hushsiz bo'lib yiqilibdi.

Kampir ko'salarga:

— Qani, tezda mening buyrug'imni bajaranglar, — debdi. "Xotin" kiyimidagi erkaklar Rustamni arqon bilan bog'lab, shahar tomon yo'l olibdilar. Arqon bilan qo'l-oyog'i bog'langan behush Rustamni qimmatbaho gilamlar, duxoba ko'rpachalar solingan hashamatli uyga olib kelib, eshik tagiga tashlabdilar. Uy ichida qator odamlar o'tirganmish. Har birining oldiga kimxobdan bosh-oyoq sarpo qo'yilgan emish.

Shahar hokimi xursandlik bilan odamlarga:

— Sizlarga hozir bergan hadyam arzimaydi. Sizlarni yana ham xursand qilaman, — deb va'da qilayotganida Halimboy o'rnidan turib:

— Ertaga xalqni rastaga yig'ib, dor tikamizda, bu muttahamni osib, sizlarni o'shalar oldida hadyalar bilan ko'mib yuboramiz, — deb ko'kragini kerib, mo'ylovini burab qo'yibdi. Kampir Halimboyga qarab:

— Xato o'ylaysiz, boyvachcham. Birinchidan, bu yalangoyoqni xalqqa ma'lum qilish yaramaydi. Ikkinchidan, ko'p saqlab bo'lmaydi. Hushiga kelib qolsa, arqonlarni uzib, xalos bo'lishi mumkin. Nima bo'lmasin, tezda yo'qotish kerak, — debdi.

Shahar hokimi:

— Ey, ona, bu ish sizning ixtiyoringizda. Qanday chora ko'rsangiz, qabul qilamiz, — debdi.

Kampir:

— Unday bo'lsa, Shaytontepa tog'ida "tagi yo'q" g'or bor. Shunga tashlaymiz. Unda devlar, ajdarlar bor. Ularga ham ovqat kerak, — debdi.


Hamma xoxolab kulib: "Sizning hiylangizdan shayton ham qo'rqadi", deyishibdi. Shu qaror bilan bechora Rustamni "tagi yo'q" g'orga olib borib tashlabdilar.

Rustam har kuni sahar turganida, atrofidagi cho'ponlardan o'rgangan bir kuyni nayda mashq

qiladigan odati bor ekan. Uni eshitgan o'tinchilar tong otganini sezib yerto'ladan chiqishar va o'z tirikchiliklariga ketar ekanlar. Bugun jimjit bo'libdi. O'tinchilarning nazarida hali tong otmaganday tuyulib, ag'darilib yotaverish jonlariga tegibdi. Ammo Rustamning otasi ko'ngliga g'ulg'ula tushib, pastki uyidan chiqib, Rustam yotadigan supaga kelibdi. Supa ustida Rustamning do'ppisidan boshqa narsani ko'rmabdi. Chol betoqatlanib atrofga qarabdi va "Rustamjon!", deb chaqiribdi. Bu chaqiriq xuddi na'ra kabi o'tinchilar qulog'iga borib yetibdi. O'tinchilar oldinma-ketin chopib kelib, chol atrofiga yig'ilibdilar. Hamma hayron emish. Oradan "Atroflarni qidiraylik", degan ovoz chiqibdi. Chol bir narsani eslagandek, chap tomonga yugurib ketibdi. Birozdan keyin og'ziga kumush qoplangan, unga o'z egasining nomi yozilgan nosqovoqni ko'tarib kelib, "bu xiyonat, makr", deb o'tinchilarga xitob qilibdi.

— Do'stlarim, biz Rustamdan ayrilibmiz, kechagi panoh tilab kelganlar, zorlangan ayollar emas, topshiriq bilan kelgan "erkak ayyorlar" ekan. Bunga dalil mana bu nosqovoq, men buni taniyman. Bu nosqovoq Halimboyning jiyani Bo'ri ko'saniki.

O'tinchilardan biri nosqovoqdagi harflarni tutilib, zo'rg'a o'qib, cholning shubhalarini tasdiqlabdi.



Rustam “tagi yo‘q” g‘orda bir kecha-yu kunduz yotib asta-sekin hushiga kelib qarasa, qo‘l-oyoqlari yo‘g‘on arqonlar bilan bog‘langan holda zulmat ichida yotgan emish. Faqat vahimali ovozlari, uzoqlardan oh-faryod, ingragan tovushlar eshitilib turgan emish. Rustam o‘zini xalos qilish uchun ko‘p harakat qilibdi, lekin foyda bermabdi. Oxiri bir chiranganda ko‘kragidan bog‘langan arqon uzilib ketibdi. Rustam o‘zini banddan ozod qilib, ingragan tovushni bilish uchun o‘sha tomon yo‘l olibdi. Biroz yurgandan keyin chap tomonda bir g‘or ko‘ribdi, g‘orning og‘zi tegirmon toshi bilan to‘silgan emish, ingragan tovush o‘sha g‘ordan kellar ekan. Rustam ichkari kiribdi. Yo‘lda suyaklarni ko‘ribdi. Devorlarda jodu bilan qo‘riqlanayotgan erkaklar, qo‘llaridan zanjir bilan osilgan yosh ayollarning rasmlari chizilgan emish. To‘rda bir katta xona bo‘lib, toshdan yasalgan supa kabi taxta o‘rnatilgan emish. Atrofda qora chiroqlar, piliklar oxirgi moylarni shimib, lipillab turgan emish. Tosh supaga yoyilgan vahshiy hayvonlar terisi o‘z xizmatlarini ado etib, chirib ketgan ekan. Bunday saroy qarshisida zulmatxona ko‘rinib turganmish. Unda qirq temir qoziqqa qirq kokil boylangan, katta xumdagi muz singari sovuq suvga ikki oyog‘i tizzasiga qadar tiqilgan, ikki qo‘lini quloqch otirib ikki tomondagi dorga osilgan o‘n yetti yoshli qiz

azobga bardosh bera olmay so'nggi nafasini olayotgan emish. Uning husni-jamoliga shu qorong'i zulmat chidash bera olmay, o'zini chetga olib qochar, qizning oydek yuzidan yorug' nurlar shu'la sohib turmoqda ekan. Buni ko'rgan Rustam o'ylab, uning kimligini va nima uchun bunday ahvolga tushganligini surishtirmasdan o'zini qiz tomon otibdi. Bir tepib, xumni ag'daribdi. Qoziqlarni sug'urib qizni xalos qilganida qiz holsizlanib, yerga yiqilibdi. Shu payt yelkasi chiqqan, bukri, oyoqlari qiyshiq, soqoli o'sgan, bo'yi bilan enining farqi bo'lmagan bahaybat bir odam bilan yetmish yoshlarda, qoshdagi hassasidan burni uzun, betida o'n ikki dona tukidan boshqa hech narsasi yo'q chol kirib kelibdi. Birinchisi shu mamlakatning katta qaroqchisi bo'lsa, ikkinchisi qaroqchiga o'lja topib keladigan, xalqni qaroqchi tuzog'iga ilintirib beradigan yordamchi ekan. Qaroqchi bu qizni yordamchisining makr-u hiylasi bilan o'g'irlab kelib, o'ziga xotin qilmoqchi ekan. Qiz bunga unamagach, uni azoblab o'ldirmoqchi bo'lganda bundan xabar topgan yordamchisi makr bilan qizni ko'ndirishni bo'yniga olib birga kelgan ekan. Bexosdan Rustamga ro'para kelgan qaroqchi yordamchisiga qarab:

— Mening g'azabxonam mehr-shafqatxonaga aylanibdi, — deb xoxolab kulib yuboribdi.

Rustam indamay qarab turibdi. Qaroqchi:

— Ey, go'dak, kimsan? Yana benom-u nishon o'lib ketma. O'zingni tanit, — deb Rustamning tepasiga boribdi. O'ziga qaratmoqchi bo'lib, Rustamning qulog'idan tortgan ekan, Rustam asta o'rnidan turib, qaroqchining ko'kragiga bir musht tushiribdi. Qaroqchi uch-to'rt duma-lab, orqada qiltillab turgan yordamchisini bosib qolibdi. Qaroqchi to'satdan tushgan bu zarbadan g'azablanibdi. O'rnidan turmoqchi bo'lsa, semizligi xalaqit beribdi. Uning harakatlaridan yordamchisining suyaklari sinib ketibdi. Qaroqchi zo'rg'a turib, belidagi shamshirini olib Rustamga hamla qilganda, Rustam suv to'ldirilgan xumni ko'tarib, qaroqchiga otibdi. Qaroqchi yerga yiqilibdi. Rustam yugurib borib qaroqchining qo'lidan shamshirini tortib olib, uni o'ldiribdi.

Qiz uzun kipriklarini asta ochib, qovjiragan lablarini tili bilan namlash niyatida tamshangan ekan, Rustam bir hovuch suv keltirib qizga tutibdi. Qiz suvdan bir-ikki qultum yutib, tepasida parvona bo'lib turgan yigitga ko'zi tushib tashvishlanibdi.

— Kimsiz, nima uchun bu yerga keldingiz? Men o'limga hukm etilganman. Siz qoching, o'zingizni qutqaring. Agarda meni qutqarmoqchi ekanligingizni bilib qolsa, sizni ham qiynab o'ldiradi.

Rustam qizga tikilib:

— Siz hozirdan boshlab ozodsiz, — debdi. Qiz hayron bo‘lib:

— Siz menga hikoya aytib berayotirsizmi? Bu hech mumkin emas-ku! Necha yillardan beri uning changaliga tushgan kishi qutulib chiqolmagan. U o‘z zulmi va qonxo‘rligi orqasida “bukri dev”, deb nom chiqargan. Bu mamlakatda undan bezmagan va qo‘rqmagan odam yo‘q. Hatto yosh bolalar ham uning nomini eshitsa, yig‘idan to‘xtaydi. Uning shamshiriga hukmronlarning minglab yigitlari bardosh berolmagan, — debdi.

Qiz hayajon ichida tez-tez nafas olib, nozik barmoqlari bilan Rustamning yaktagi barini o‘ynabdi. Rustam o‘z so‘zlarining javobini intizorlik bilan kutayotgan qizga qarab:

— Mana shu shamshir bilanmi? — deb qaroqchi qo‘lidan tortib olgan shamshirni ko‘rsatibdi.

Qiz hayron bo‘lib:

— Siz buni qayerdan oldingiz? — debdi.

Rustam qizning qo‘lidan ushlab olib borib, qaroqchi bilan yordamchisi yotgan chuqurni ko‘rsatibdi. Qiz xursandligidan ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, tikilib turgan ko‘zlarini uzun kipriklari ostiga olib:

— Ofarin, quyosh yerining pahlavoniga! — debdi. Bu so‘zni eshitgan Rustam ajablanib:

— Siz mening quyosh yerining odami ekanligimni qayerdan bildingiz? O‘zingiz kimsiz? — deb so‘rabdi.

Qiz:

— Mening ismim Tong Guli. Buni faqat men emas, butun xalq biladi, sizni necha vaqtlardan beri xalq intizorlik bilan kutadi.

“Bukri dev” ni o‘ldirishga, xalqni qora zulmatdan qutqarishga siz sababchi bo‘ldingiz. Sizning nomingiz Rustam, kasbingiz o‘tinchilik, bularni mening bobom o‘z hikoyalarida aytib berardilar. Qani yuring, mening birinchi xizmatim sizni xalqqa tanishtirishdan boshlansin, — deb ikkovi shahar tomon yo‘l olibdi. Yo‘lda qiz Rustamni butun voqeadan xabardor qilibdi.

Tong payti, keng bir sayhonlikka kelishibdi. Odamlar yig‘ilgan ekan. Hammada g‘am-tashvish, birov behush bo‘lib yiqilar, birov o‘z libosini yirtib, boshini yerga urib yig‘lar, ba‘zilar behushlarga suv sepib, ularni sabr qilishga undar ekan. Uzoqdagi tepalik ustida o‘n to‘rt yoshli o‘g‘il bola bir qo‘y bilan turganmish. Bola va qo‘yning ko‘zlari bog‘langan emish. Yig‘in orasidan uch-to‘rt odam bola tomon tashlansa, xalq ularning borishlariga yo‘l qo‘ymas-mish. Rustam bunga hayron bo‘lib, qizdan so‘rabdi:

— Ey, Tong Guli, menga bu sirni aytib ber.

Tong Guli Rustamga qarab, ko‘zlaridan beto‘xtov marvarid yoshlarini oqizib:

— Koshki endi men tug‘ilmagan bo‘lganimda, xalqning bu qadar oh-fig‘onini eshitmagan bo‘lar

edim. Ikki yildan beri bu xalqimizning kundalik marosimi, — debdi.

Rustam “Kundalik marosimi” degan soʻzlarni eshitib:

— Ey, Tong Guli, bu sirdan meni tez xabardor qil, — debdi. Tong Guli toqatsizlanib:

— Bundan bir necha yil ilgari bizning mamlakatda bir ajdaho paydo boʻldi. Koʻp xonadonlarni vayron qildi. Mollarni qirdi. Shahar xalqi unga qarshi chiqa olmadi. Ajdaho shu tepa orqasida yashaydi. Oxirida har kuni tong paytida qorni ochib shaharga hujum qilmoqchi boʻlganida uning yoʻliga bola bilan qoʻy qoʻyiladigan boʻldi. Ajdaho yoʻl ustida uchragan bola bilan qoʻyni yeb, toʻyganidan keyin shahar tomon yurmasdan iziga qaytib ketadi. Shahar xalqiga bu soliq qilib qoʻyilgan.

Bolasi bor kishi bolasini, farzandsiz kishi navbatma-navbat bir qoʻy olib beradi. Bu hol odat tusiga kirib qolgan. Bultur shu vaqtlarda oʻn uch yoshli Gulchehra singlim qurbon boʻlgan edi. Bugun ham shahardagi atoqli odamning bir farzandi qurbon qilinsa kerak, koʻp xalq yigʻilibdi, — debdi.

Xalq orasida birdan shovqin-suron koʻtarilibdi. Tong Guli Rustamga:

— Ana ajdaho, bola tomon chiqyapti, — deb behush boʻlib yiqilibdi. Rustam qarasa, qop-qora bahaybat bir maxluq bola tomon oʻrmalab ke-

layotgan emish. Ajdahoni sezgan qo'y toqatsizlanib qochmoqchi bo'libdi. Bola onasini yordamga chaqirgandek chinqiribdi. Bola bilan qo'y bir arqonga bog'langani sababli, ikkisidan birining ham qutulishi mumkin emas ekan. Rustam tepa tomon yuguribdi. Ajdaho bola bilan qo'yni yeyish uchun avray boshlabdi. Qo'y tipirlashdan to'xtabdi. Bola mudrayboshlabdi. Ajdaho nafasiga tortganida oldida bola, ketida "yem" bo'lgan qo'y ajdahoning og'ziga yaqinlashibdi. Bolaning ikki oyog'i ajdaho og'ziga ro'para bo'libdi. Qo'qqisdan tushgan kuchli zarba ajdahoni gangitibdi.

Ajdaho o'zini o'nглаb olish uchun soy tomon burilmoqchi bo'lganida qahr bilan tashlanib, siqilgan ikki oyoq orasidan qutula olmabdi. Yigit chaqqonlik bilan ajdahoga ikkinchi zarba tushiribdi. Ajdahoning kallasi tanidan ajralibdi.

Ajdaho yutmoqchi bo'lgan bola Rustamning bo'ynidan mahkam quechoqlabdi. Xalq bugungi marosimni shodlik to'yiga aylantirib yuboribdi. Yig'in ichida baland bo'yli, oq soqolli bir kishi Rustamning oldiga kelib, ko'zlaridan sevinch yoshlarni to'kib:

— Ba'zilar ni ofatdan qutqarib, g'am-qayg'udan ozod qilding, ko'nglimizga nur bergan ey bahodir, pahlavon, kimsan? — debdi.

Tong Guli hushiga kelib qarasa, hamma yoq shodlik bilan to'lgan, xalq Rustamni o'rab olib,

unga qayta-qayta ofarinlar aytayotgan emish. Rustamdan savol so'rab turgan odamning ko'zi Tong Guliga tushib qolibdi. U:

— Tong Gulim, hayotmisan? Seni zulmatdan kim qutqardi? — deb bag'riga bosib yig'labdi. Tong Guli:

— Sizlarni ofatdan kim qutqargan bo'lsa, meni ham zulmatdan o'sha qutqardi. "Bukri dev"ni, odamxo'r ajdahoni o'ldirgan, sizlarni ofatdan qutqarib, baxtli hayot eshigini ochilgan, o'zlaringiz dostonlar to'qib yurgan quyosh yerining pahlavoni — Rustam o'tinchi shu bo'ladi, — deb aytibdi.

Xalq Rustam bilan shahar tomon yo'l olibdi, bir necha kun shodlik to'yi qilishibdi. Rustam hamon do'stlarini va chol otasini o'ylar ekan. Kunlardan bir kuni Rustam Tong Gulining bobosi oldiga kelibdi. Unga o'zining do'stlari, betob xotmni ko'rgani borgan va arqonga bog'lanib, qora zulmatda yotgani to'g'risida birma-bir so'zlab beribdi. Hozirgi vaqtda do'stlari qanday ahvolda ekanligini bilishga, yer yuziga qanday qilib chiqishga maslahat so'rabdi. Bobo uzoq o'ylab, sekin Rustamga qarabdi. Bu juda og'ir ish deb boshini chayqabdi. Rustamning yuzida bo'lgan o'zgarishni sezib:

— Ey, pahlavon, dunyo yaratilganidan beri hech bir odam quyosh yeriga chiqqan emas. Le-

kin bobolarimizning aytgan hikoyalariga qaraganda, shu shaharning chap tomonida qirq tog' degan baland tog' bor. Shuning tepasida quyosh yeriga chiqish uchun yo'l bor emish. Lekin uni hech kim ko'rgan emas. U tog'ning tepasiga chiqaman, deb necha ming odam halok bo'lgan ekan. Yo'llar xavfli. Vahshiy hayvonlar ko'p, yana u tog' qirq bo'g'in bo'lib, har bo'g'inining balandligi yuz gazli silliq toshdan iborat. Kel, pahlavonim, sen bu niyatingdan qayt. Bizning pahlavonimiz va sarkardamiz bo'l. Birlar sendan ajralishi istamaymiz, — debdi.

Rustam ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

— Ey, menga dunyoning zahmatini loyiq ko'rmay, shafqat qiluvchi g'amguzorim, axir unda mening do'stlarim va yetimligimdan tarbiyalab voyaga yetkazgan mehribonlarim bor. Mendan ayrilib ularning ahvoli nima bo'ldi? Shulardan xabar olib ko'nglim tinchimasa, menga yashash harom bo'lsin, — debdi.

Bobo shu so'zni eshitib, noiloj rozi bo'libdi. Er-tasi butun shahar xalqi Rustam bilan xayrlashibdi. Shahar oqsoqoli Rustamning peshonasidan o'pib:

— Bizdan senga esdalik va yo'lingda hamrohing bo'lsin, — deb bobosidan qolgan qadimgi kamon bilan besh gaz uzunlikdagi o'q-yoyni beribdi. Rustam shahar xalqi bilan xayrlashib, tog' tomon yo'l olibdi.

Cho'llar kezibdi, qirlar oshibdi. Yo'llar yurib tog' tagiga yetibdi. Qarasa, tog' bobo aytgandan

ham vahimali, tepasi ko'rinmaydigan, silliq toshdan iborat baland emish, uning ustiga chiqish hech aqlga to'g'ri kelmasmish. Rustam hayron bo'lib, nima qilishini bilmasdan xayol surib tog' bag'rida o'tirgan ekan, uzoqdan na'ra tortib kelayotgan bahaybat ovozni eshitibdi. Rustam qarasa, toshlarni har tarafga uloqtirib, og'zini katta ochib, yugurganicha Rustam tomon ona sher kelayotgan emish.

Rustam irg'ib turibdi va qo'lidagi kamonga o'q-yoyni joylab, sherni mo'ljalga olibdi. Buni sezgan sher o'z joyida to'xtab:

— Ey, odamzod! Menga yordam ber, mening bolalarimni o'limdan qutqar, — deb Rustamning oyog'iga bosh uribdi.

Rustam sherning boshini silab:

— Ey, vahshiy hayvonlarning podshohi, mendan qanday yordam kutasan. Ayt, men tayyorman, — debdi. Ona sher Rustamning etagidan ushlab, tog'ning orqa tomoniga yuguribdi. Rustam borib qarasa, sher kiradigan g'orning og'zida ho'kizdan katta chayon turgan emish. U sherning g'or ichidagi ikki bolasini chaqib o'ldiray deb turgan ekan. Rustam kamonga o'q joylab, chayonni mo'ljalga olib otibdi, o'q borib chayonning boshiga tegibdi. Chayon gangib, g'or og'zidan ag'darilib tushibdi. Rustam yugurib borib, shamshiri bilan chayonning nayzasini qirqib, pora-pora qilib tashlabdi.

G'or ichida chayondan qo'rqib yotgan sher bolalari yugurib kelib onasining bag'riga tashlanibdi. Ona sher xursand bo'lib, Rustamga bosh egibdi. Rustam ko'p yurib charchaganidan yonboshlab uyquga ketibdi. Ona sher ikki bolasini Rustamning yonida qoldirib, o'zi ovqat topish uchun ketibdi. Sher bolalari xursandligidan bir-biri bilan o'ynashib na'ra tortibdilar. Shunda sher undan nimani xohlashini so'rabdi. Rustam quyosh yerning archazorlarga borib qolishni orzu qilayotganini aytibdi. Ona sher ikki bolasiga ovqat berib, Rustamni ustiga o'tkazib, tez chopib ketibdi.

Quyosh yerining pahlavoni tong otar paytida yer yuziga chiqibdi. Atrofiga qarasa, tanish archazor ko'rinibdi.

Ko'zi birdan Rustamga tushib qolgan ona ayiq ovozi boricha o'kirib yuboribdi va Rustamni o'z bag'riga bosibdi. Ona ayiq ko'zidan yosh to'kib so'zlabdi:

— Sendan ayrilganimizdan uch kun o'tgach, hokim yigitlari bilan kelib, archazorga o't qo'yib, bu yerdagilarning qo'l-oyoqlarini bog'lab olib ketdi.

Kechki payt. Ayiq bilan Rustam shaharga kelib qarasa, keng maydonga odam yig'ilgan emish. Kimdir ko'z yoshi to'kayotganmish. Halimboy saman otda kelib, xalqqa shahar hokimining gunohkorlarini dorga osib o'ldirish to'g'risidagi farmonini

o'qib beribdi. Karnaylar chalinibdi. Jallodlar dordlardan arqonlarni tushirib gunohkorlar bo'yniga bog'labdilar. Yasovullar Halimboyga hujum qilgan qo'lni ushlamoqchi bo'lganida, u qo'l har zarbda ikki-uch yasovulni ag'darib turibdi. Jallodlar hayron bo'lib, farmonni bajarishga shoshilgan ekanlar. To'satdan boshlariga tushgan yo'g'on so'yil ularni yerparchin qilibdi. "Gunohkorlar" o'zlari ni jallodlar qo'lidan ozod qilayotgan ayiqni ko'rib shodlanibdilar.

Har kim o'z farzandini olib Rustamga ofarin aytib, archazor tomon ketibdi. Siddiq yamoqchi o'z hikoyasini boshlabdi:

— Xotirangizda bordir. Bir kun archazorda hikoya aytib berayotganimda "xotin" kishi kelib qolib, hikoyam chala qolgan edi.

Rustam o'ylab turmasdan:

— Xotiramda umr bo'yi saqlangan. Qani, yo'l ustida bo'lsa ham, hikoyaning davomini ayting, — deb iltimos qilibdi.

— Ana o'sha zolimning zulmiga bardosh qilib, o'z vafodorini intizorlik bilan kutgan qiz qarshingizda turgan mening Zuhram edi.

Uyalgan Zuhraning anor singari qizargan yuzlarini ko'rib, Rustam o'zida ajoyib bir his sezibdi. Siddiq yamoqchi Rustamdan so'z kutar ekan. Rustam bir narsani eslagandek:



— Ha, aytgandek, bu kishining pahlavoni kim va qayerda? — deb so‘rabdi.

— So‘rayotgan odamning o‘zi, debdi. Rustam oldinga tashlagan qadamini to‘xtatib otasiga qarabdi. Chol Rustamning bergan savoliga qaytarilgan javobni tabassum bilan tasdiqlabdi.

Tong shamollari g‘irillab archalar orasida esar, archa yaproqlari esa o‘z soyalariga kelayotgan do‘stlarini olqishlar ekan. Bir qancha vaqtdan beri jimlik hukm surgan archazor shodlikka to‘libdi. Zulm ko‘rganlar, alamdiydalar quyosh yerining pahlavoni yetakchiligida ozod, hur, go‘zal hayot kechira boshlabdilar.

MUNDARIJA

Kenja botir	3
Sirli tush.....	11
Ajdar qush	24
Ota vasiyati	30
Abduaziz	40
Hakim baliqchining o‘g‘li	45
Ahmoq podshoh.....	60
Xurmacha polvon	67
Qurandoz	70
Shayton bilan dehqon	78
Tadbirli ayol	84
Mehrigiyo.....	89
Qiron aka	101
Erkenja	109
Sunbul bilan Gul	134
Hasan bilan Huriliqo	153
Quyosh yerining pahlavoni	173

TADBIRLI AYOL

O'zbek xalq ertaklari

**“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent – 2019**

Muharrir Mashhura Xasanova
Badiiy muharrir Shavkat Ilhomov
Texnik muharrir Umida Yaxshiboyeva
Musahhih Dilnoza Jo‘rayeva
Sahifalovchi Dilafruz Yunusova

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009 y.
18.10.2019 y.da bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 70x90 $\frac{1}{16}$. “SchoolBookC” garniturası.
Ofset bosma. Shartli bosma tabog‘i 15,21.
Nashriyot-hisob tabog‘i 7,5. Adadi 10 000 (1-zavod 3000).
Shartnoma № 19–19. Buyurtma raqami 990.

**“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti.
100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30-uy.**

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz



«O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI»
DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI



Toshkent, 100011,
Navoiy ko'chasi, 30- uy,
tel.: 71 244 09 36,
fax: 71 244 34 38.



ume.dinash@umail.uz



fb.com/ume.dinash



[ume.dinash](https://www.instagram.com/ume.dinash)



t.me/Ensiklopediya_DIN



ISBN 978-9943-07-698-3



9 789943 076983